

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI TOSHKENT  
DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**O'rurboyev Q., Sodiqov S.T., Asabayev D.X.**

**MA'DANLI FOYDALI QAZILMA  
KONLARINING HOSIL BO'LISH  
SHAROITLARI VA JARAYONLARI**

*O'quv qo'llanma*

Toshkent 2010

Ma'danli foydali qazilma konlarining hosil bo'lish sharoitlari va jarayonlari. O'quv qo'llanma. O'rumeboyev K., Sodiqov S.I., Asabayev D.X. - Toshkent, ToshDTU, 2010.

Ushbu o'quv qo'llanmada endogen guruhga kiruvchi ma'danli foydali qazilma konlarining hosil bo'lish sharoitlari va jarayonlari batafsil bayon qilingan. Uning asosiy qismida ma'danli konlarning genetik turlari: magmatik, pegmatit, karbonatit, skarn, albatitli, greyzen, gidrotermal va kolchedan konlari chuqur o'rganish ko'zda tutilgan. Misol tariqasida dunyodagi mashhur konlar qatorida respublikamizdag'i ma'lum bo'lgan oltin, mis, qor'g'oshin, ruh, mofibden, volfram, niobiy, tantal, litiy, uran konlarining geologiyasi, genetik turlari, mineralogik tarkibi va boshqa ma'lumotlar keltirilgan. Buning uchun kerakli manbalardan keng foydalaniilgan. Qo'llanma bakanlavriat ta'llim yo'nalishi talabalari uchun ilk bor ozbek tilida yozilgan bo'lib, mualliflarning ko'p yillik ilmiy amaliy ishlari natijalarini va pedagogik tajribalari asosida tuzilgan.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashining qaroriga ko'ra chop etildi.

### Taqrizehilar:

O'zR EA X.M.Abdullayev nomidagi  
Geologiya va geofizika instituti g.-m.f.d. professor R.Axunjanov

ToshDTU dotsenti, g.-m. f.n - I.Z. Shermuhamedov

## KIRISH

Ma'danli foydali qazilmalarning hosil bo'lishh sharoitlari, xususiyatlari va joylanish qonuniyatlarini geologiyaning bir tarmog'i bo'lmish foydali qazilma haqidagi ta'limot o'rGANADI.

Insoniyat tabiat sirlarini o'rganib, yer bag'rida yashirinib yetgan son-sanoqsiz boyliklarni izlab topish va xalq xo'jaligini ta'minlab turadigan xomashyolarni aniqlash uchun minglab yillar mehnat qildi.

Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, eramizdan bir necha o'n ming yil avval yashagan insonlar ayrim mineral xomashyo kremen, rogovik, tuproqni o'z ehtiyojlari uchun ishlafganlar.

XVIII asr oxirlarida Yevropaning ko'pgina yirik mamlakatlarda kapitalizmning taraqqiy etishi bilan san va texnikada ham sezilarli ko'tarilish yuz berdi. Bu orzgarish O'rta Osiyoda sezilmadi. Qadimiy xonliklar geologiyaning taraqqiyoti, tabiiy boyliklarni o'rganish, ularni qidirib topish, tog' sanoatini barpo qilish bilan deyarli qiziqmas va unga ahamiyat bermas edi. Baqt XIX asr oxirlaridan boshlab yurtimizda foydali qazilmalar o'rganish yo'llida geologiya-qidiruv ishlari keng ko'lama olib borildi va tog' sanoati joriy qilina boshlandi.

Hozirgi vaqtida respublikamizda mineral xomashyo bazasi vujudga keltirilgan. O'lkamiz zaminidagi oltin, rangli metallar, uran, fosforit, gaz, ko'mir, tuz va boshqa ko'pgina foydali qazilmalarning zaxiralari bo'yicha dunyoda yetakechi o'rinnlarni egallaydi.

Respublikamiz rahbariyati zaminimiz boyliklarini qidiruvechi geologlar zimmasiga yirik industrial va qudratli milliy sanoatimizni mineral xomashyo bilan yanada to'la ta'minlash vazifasini yuklaydi. Respublika geoglari shu sharafli vazifani muvaffaqiyat bilan bajarish maqsadida geologiya-qidiruv ishlarini kuchaytirib, foydali qazilmalar ta'limotini yangi pog'onalarga ko'tarmoqdalar.

Qo'llanma foydali qazilma konlарining paydo bo'lishi, joylanishi sharoitlari va qonuniyatlariga bag'ishlangan bo'lib, unda turli genetik tipga kiruvechi sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan konlarning xususiyatlari yoritilgan.

Mualliflar ushbu qo'llanmani yozishda X.M.Abdullayev, G.I.Tatarinov, V.I.Smirnov, I.M.Shevlyov va boshqalarning asarlaridan va X.N.Boymuhamedovning o'zbek tilida yozilgan uslubiy qo'llanmasidan foydalandilar. Keltirilgan rasm va misollar «O'zbekiston geologiyasi va foydali qazilmalar» va «O'zbekiston ma'danli konlari» kitoblari va mualliflarning ko'p yillik tajribalari asosida tuzilgan.

### I bob

## 1.1 FOYDALI QAZILMA HAQIDAGI UMUMIY TUSHUNCHALAR

Foydali qazilma konlari haqidagi ta'lilot, yer bag'rida sodir bo'ladigan jarayonlarning mahsuli - konlarni o'rGANADI. Bu ta'lilotning asosiy vazifasi foydali qazilma konlarining bosil bo'lishi va yer sharida tarqalish qonuniyatlarini o'rGANISHdir.

Foydali qazilma konlarining paydo bo'lishini to'g'ri aniqlash, geologik qidiruv ishlari olib borishdan tortib, to ma'danlardan foydali mineral va elementlarni ajratib olishga doir ko'p mablag' sarflab bajariladigan ishlar unumдорligi va effektivligini oshirishdag'i asosiy omildir.

Foydali qazilmalar konlari ta'lilotining rivojlanishi geologik, qidiruv va qazib olish paytida, shuningdek, maxsus ilmiy-tekshirish ishlari oqibatida to'plangan ma'lumotlarga bog'liq. Foydali qazilma konlarini har taraflama o'rGANISHda mineralogiya, geokimyo, petrografiya, stratografiya, geofizika kabi geologik va kimyoviy, fizika, matematika kabi aniq fanlarning yutuqlaridan foydalaniładi.

Foydali qazilma konlari haqidagi fanning asosiy tushunchalari:

Foydali qazilma deb, sanoatda yoki xalq xo'jaligida qo'llanishi mumkin bo'lgan, yer bag'rida joylashgan mineralarning to'plamiga aytildi. Qazib olinayotgan foydali qazilmalar qattiq, suyuq va gaz holida bo'lishi mumkin.

Ma'dan - xalq xo'jaligida ishlatish mumkin. iqtisodiy jihatdan foydali, texnika taraqqiyotiga muvofiq metall, mineral

yoki boshqa birikimalarni ajratib olish uchun qulay minerallar to'plami.

Ma'dan tanasi - turli tog' jinslari orasidagi foydali hayzasi qazilma (ma'dan)larining alohida to'plangan joyi.

Ma'dan belgisi - yetarli o'r ganilmagan yoki qazib olishga yaroqsiz foydali qazilmalar yig'indisi.

Foydali qazilma koni - o'ziga xos geologik sharoitda vujudga kelgan, sifati samoat talabiga javob beradigan, miqdori qazib olishga yetarli qazilmalarning bir yoki bir nechta ma'dan tanalari ko'rinishida to'plangan joyi.

Hozirgi vaqtida foydali qazilmalar fizik-kimyoviy xususiyatlari va xalq xo'jaligida ishlatalishiga qarab 3 guruhga bo'linadi.

#### 1. Metalli foydali qazilmalar.

Bu guruhga temir, marganes, xrom, nikel, oltin, kumush kabi metallar kiradi.

#### 2. Metallmas foydali qazilmalar.

Bu guruhga granit, labrodiorit, marmar, qum, shag'al kabi tabiiy holda ishlataluvechi va qayta ishlanuvechi, kaliy, natriy tuzlari, fosfatlar kiradi.

#### 3. Yonuvchi foydali qazilmalar.

Bu guruhga ko'mir, nest, tabiiy gaz, yonuvchi slaneslar kiradi.

Foydali qazilmalar kontaridagi ma'danlarning sifati va miqdori qay tarzda bo'lismeni bilish katta ahamiyatga ega, Ma'dan sifatlari bo'lishi uchun undagi foydali komponentlar ko'p bo'lib, qayta ishlash jarayonini va ishlatalishni qiyinlashtiruvchi zararli komponentlarning miqdori oz bo'lishi lozim. Masalan, ma'dan temir ma'dani hisoblanishi uchun o'z tarkibida 30-35% dan ortiq temir elementi bo'lishi lozim. Temir ma'danlarida uchraydigan oltingugurt, fosfor, margimush, ruh va qo'rg'oshin zararli qo'shimchalar bo'lib hisoblanadi. Bunday ma'danlardagi oltingugurtning miqdori 0,15-0,25%, fosfor - 0,01-1,1%, margimush - 0,02-0,05%, ruh va qo'rg'oshinlarning har biri 0,05% dan ortiq bo'lmasligi lozim. Temir ma'danlarida titan, vanadiy,

kobalt kabi qimmatli elementlar uchrasa, bu ma'danlar sifatli ma'dan hisoblanadi.

Foydali qazilma konidagi ma'danlarni qazib olishda uning zaxirasi yetarli bo'lishi shart. Jumladan, temirning eng yirik konida 1 mld. tonnadan ortiq, yirik konida 300 mln. dan 1 mld. tonnagacha, o'rtacha konida 50-300 mln. tonnagacha va mayda hisoblangan konida 50 mln. tonnagacha ma'dani bo'lishi taqozo etiladi. Qalayning miqdori tub konlarida ming tonnadan ortiq bo'lsa eng yirik, 25-100 bo'lsa yirik, 5-25 bo'lsa o'rta va 5 dan oz bo'lsa kichik kon hisoblanadi. Foydali qazilma konini ishga tushirish mumkin bo'lishi uchun unda qimmatli komponentlar va zararli qo'shimchalarining qaneha bo'lisligi sanoat konditsiyalari bilan belgilanadi. Sanoat konditsiyalari doimiy bo'lmay, tog'metallurgiya ishlari va texnologiyasi yuksak darajada takomillashishi, konning turli joylarda uchrashligi, qazilma boyliklariga bo'lgan talabning o'sishi natijasida o'zgarib turadi.

Chunonegi, XIX asrning boshlarida 10% misi bo'lgan ma'danlar foydalananishga yaroqli hisoblangan bo'lsa, hozirgi vaqtida 1% ga yaqin misli ma'danlar qazib olinmoqda. Demak, misga nisbatan sanoat konditsiyasi doimo kamayib bormoqda.

### O'zlashtirish uchun savollar

1. Foydali qazilma, foydai qazilma koni nima?
2. Metall va metallmas foydali qazilmalarni sanab o'ting?
- Ularga nimalar kiradi?
3. Temir ma'danlarida qanday elementlarning mayjudligi foydali, qandaylari zararli?

Atamalar: ma'dan, ma'dan tanasi, ma'dan belgisi.

## **1.2 FOYDALI QAZILMALARNING XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI**

Hozirgi zamон саноати ва илмиy тараqqiyoti rivojlanishining asosini foydali qazilmalar tashkil etadi.

Jumladan, mamlakatlar og'ir саноатining asosini temir tashkil qiladi. U mashinasozlik, kemasozlik, temir yo'l qurilishlaridan tortib, keng iste'mol mollari ishlab chiqarishgacha bo'lgan bir talay sohabar uchun asosiy materialdir. Temir ma'danlarini metallurgiya zavodlarida ishlash orqasida temir, cho'yatt va har xil navli po'latlar olinadi. Olinayotgan bu mahsulotlarga ma'lum miqdorda marganes, xrom, vanadiy, volfram, titan, molibden, nikel kabi elementlar qo'shiltsa, ularning qattiqligi, yaltiroqligi, yopishqoqligi, toblanishi va zanglamaslik xususiyatlari oshadi.

Kishilik hayotida mis, qo'rg'oshin, ruh, alyuminiy, qalay kabi rangli metallarning ahamiyati katta. Bu metallar ma'danlardan maxsus metallurgiya korxonalarida ajratib olinadi va xalq xo'jaligida keng miqyosda ishlataladi. Mis, asosan, elektr саноатida, uning qotishmalari esa mudofaa, mashinasozlik саноатida, tibbiyotda va turli nozik mexanizmlarni yasashda keng qo'llaniladi. Oltin va kumush zaxiralarning talay qismi mamlakatlarda pul sistemasining asosini tashkil qiladi va savdo munosabatlarda muhim rol o'ynaydi.

Keyingi o'n yillarda niobiy, tantal kabi siyrak yer metallari elektronika, elektrovakuum, yadro texnikasi, tibbiyot apparatlari ishlab chiqarishda o'z o'rinnlarini topdi.

Radioaktiv elementlardan uran topilganidan so'ng bir asrdan ortiq vaqt ishlatish tarmogi aniqlanmadidi. Ko'pgina mamlakatlarda fizik olim mutaxassislarining tinimsiz izlanishlari natijasida uran juda katta energiya manba'i sifatida foydalananish mumkinligining isbotlanishi bu metallga keng yo'l olib berdi. Natijada atom va vodorod bombalari ishlab chiqarildi. Ayni vaqtida qudratli energiya manbaidan tinch maqsadlarda foydalananishga katta e'tibor berilmoqda. Bunga 1954-yil atom elektrostansiyasining qurilishi, 1959 - yili esa atom ener-giyasi asosida ishlaydigan muzyorar kemasi ishga tushirilishi fikrimiz dalilidir.

Ko'p tog' jinslari qurilish materiallari sifatida ishlatalmoqda Kimyo sanoatida mineral o'g'itlar, ishlab chiqarishda metallmas, foydali qazilmalardan fosforit, apatit, katiy va natriy tuzlaridan foydalaniлади. Nafis sam'at buyumlari tayyorlashda olmos, gavhar, dur, yoqut, feruza, la'l, marvarid, billur, rodonit, lazurit, marmar, granit va boshqa xil minerallar va tog' jinslari ishlataladi.

Mineral yoqilg'ilar - neft, gaz, ko'mir, yonuvechi slanes va torf mamlakat energetikasida, kimyo sanoatida yetakechi o'rinni egallab turibdi. Ular, iqtisodchi olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra, barcha ishlatalayotgan energiya - 98% issiqlik, 80% dan ortiq mexanik va 84% dan ko'proq elektr energiyaning manbaи. Ulardan tashqari bu tabbiy boyliklardan insonlarning kundalik hayotida ham foydalaniлади.

Hozirgi kunda texnika taraqqiyotining yanada rivojlanishi tufayli mineral boyliklarga talab oshib bornimoqda. Yer yuzidagi foydali qazilmalarning zaxiralari tobora kamaymoqda. Shuning uchun sanoat, texnika va xalq xo'jaligining ko'p qirrali tarmoqlarini mineral xomashyolari bilan o'z vagtida to'la ta'minlash maqsadida yerning chuqur qatlamlarini o'rganish taqozo qilinmoqda.

### **O'zlashtirish uchun savollar**

1. Xalq xo'jaligining qaysi tarmoqlarida temir, javohirlar, shag'al, qum va boshqalar ishlataladi?
2. Davlatlararo muomalalarda qanday foydali qazilmalar ishlataladi?
3. Mineral yonilg'ilar deganda nimani tushunish lozim?

Atamalar: elektronika, tibbiyat, yadro sanoati.

## 1.3 FOYDALI QAZILMA KONLARINI O'RGANISH TARIXI

Foydali qazilma konlarini o'rganish tarixi juda qadim zamonlardan boshlanadi. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra eramizdan bir necha o'n ming yil avval o'tgan odamlar ayrim mineral xomashyo kremen, rogovik, tuproqni o'z ehtiyojlari uchun ishlatganlar. Keyinroq oltin, mis, qo'rg'oshin, qalay, kumush ma'danlari bilan tanishib, ularning to'plangan joyini topib, qazib ola boshladilar.

Tog' jinslari, minerallar va ma'danlar haqidagi dastlabki sodda fikrlar qadimgi grek olimlari - Tales, Geraklit, Aristotelning ishlarida uchraydi.

O'rta Osiyoning ayrim rayonlarining geologik tuzilishi va foydali qazilmalarini o'rganish sohasiga buyuk mutasakkirlar - Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniy (X-XI asrlar) munosib hissa qo'shdilar. Ibn Sino o'zining «Kitob ush shifo» asarida tog'larning vujudga kelishi, zilzilaning sabablari, toshlarning paydo bo'lishi to'g'risida fikr yuritdi. U mineralarni 4 guruhga (toshlar, eriydig'an ism (metall) lar, oltingugurlu yonuvechi jinslar va tuzlar) ga ajratdi.

Abu Rayhon Beruniy ham geologiya sohasida muhim kashfiyotlar qildi. U o'zining «Javohirkar tarixi» asarida qimmatbaho toshlar, oltin, kumush, mis va boshqa metallar haqidagi ma'lumotlar keltirdi. Mineralarni tasniflash masalalariga to'xtab o'tdi. Olim o'zining bu asarida ayrim qazilma boyliklarning hosiyl bo'ladigan joylari haqida juda yaxshi ma'lumotlar berdi.

O'rta asrlarda foydali qazilmalar konini o'rganishga muhim hissa qo'shgan tadqiqotchilardan biri chexiyalik Agrikola hisoblanadi. Agrikola Chexiya va Saksoniyadagi ma'dan konlarida olib borgan tekshirishlariga asoslanib, ma'danli tomirlarning kelib chiqishi eritmalar bilan bog'liq bo'lgan oddiy va murakkab tomir shaklidagi konlarni ajratdi.

M.V.Lomonosov (1711-1765) geologiya va foydali qazilmalarini o'rganishga doir katta meros qoldirdi. Olim o'zining «Metallarning zilziladan bunyodga kelishi haqida», «Yer qatlamlari haqida» kabi asarlarida ma'danli tomirlarning kelib

chiqishi haqida muhim fikrlarni aytди. Uningcha, ma'danli tomirlar tog' jinslari orasidagi yoriqlarda hosil bo'ladi, yoriqlar esa zilzila tufayli vujudga keladi.

XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshida ma'danli konlarning qay usulda hosil bo'lish masalalariga katta e'tibor berila boshlandi. Shotlandiyalik geolog D.Xetton (1726-1797) «Yer nazariyasi» degan kitob yozib, unda tog' jinslari va konlar magma qotishmalarining kristallanishidan hosil bo'ladilar, degan fikri oldinga surdi. Keyinchalik Xettonning bu qarashlari geologiya tarixida «plutonizm» ta'limotining vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Saksoniyada ishlagan nemis mutaxassisи A.Verner (1750-1817) ning fikriga ko'ra, foydali qazilmalarning kelib chiqishidagi asosiy omil suv hisoblanadi. A.Verner «Tomirlarni hosil bo'lish yangi nazariyasi» kitobida ma'danli tomirlar va tog' jinslari suvning faoliyatidan hosil bo'ladil deb uqtirdi, natijada «neptunist»lar nazariyasi kelib chiqdi.

Kamchiliklardan xoli bo'lmagan bu ikki g'oyaning ilmiy kurashi foydali qazilma va ularning konlarini chuqur o'rganishda muhim turki bo'ldi.

XIX asrda foydali qazilmalar geologiyasi bo'yicha sezilarli tadqiqotlar rus olimlari D.I.Sokolov, I.V.Mushketov, A.P.Karpinskiy, L.I.Lutugin, chet el olimlaridan F.Poshepuiy, X.Fogt, V.Emmons va boshqalar tomonidan bajarildi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida ayrim foydali qazilma konlariga bag'ishlangan yangi geologik ma'lumotlar chop etildi.

E.S.Fyodorov (1853-1919) mis va temir konlarini o'rganib, ularning kelib chiqishini skarnlar bilan bog'ladı.

V.A.Obruchev (1863-1956) Sibirdagi oltin sochmalarining kelib chiqishi va geologik tuzilishini ko'rsatib berdi. 1912-yili K.I.Bogdanovichning ma'danli konlar bo'yicha rus tilidagi birinchi o'quv qo'llanmasi e'lon qilindi. Qo'llanmada muallif konlarning morfologik-genetik klassifikatsiyasini berdi.

1913-yili Amerika geolog-olimi V.Lindgren (1860-1939) tomonidan yozilgan «Mineralli konlar» kitobi bosilib chiqdi. Muallif o'z kitobida konlarning genetik klassifikatsiyasini keltirdi

va turli foydali qazilma konlarining muhim xususiyatlarini eslatib o'tdi.

Bu davrda ma'dan hosil bo'lish nazariyasi yangi pog'onaga ko'tarildi. S.S.Smirnov, Y.A.Bilibin magmatik va ma'danli jarayonlarning o'zaro bog'liqlik masalalarini, A.E.Fersman, P.P.Pilipenko, V.D.Nikitin pegmatit hosil bo'lish jarayonlari, A.G.Betextin, V. Nikolayev, O.Levitskiy gidrotermal konlarini, D.S.Korjinskiy, I.N.Ovchinnikov skarn va ma'dan masalasini, A.V.Korolyov, V.M.Kreyter, A.V.Pek ma'danli konlar va maydonlarning struktura xususiyatlarini o'rGANISHDA katta muvaffaqiyatlarga erishdilar.

Foydali qazilma konlarini klassifikatsiyalash V.A.Obruchev (1922), S.S.Smirnov (1947), P.M.Tatarinov, I.G.Magakyan (1949), S.A.Vaxromeyev (1961), V.N.Kotlyar (1970) va boshqalar tomonidan bajarildi.

Orta Osiyo, jumladan, O'zbekistonda ham geologik tekshirish ishlari keng qiloch yoydi. Geologlarimiz o'lkaniz yer bag'rida ko'p asrlardan beri yashirinib yotgan sirlarni o'rGANIB, mineral xomashyolarni qidirib topdilar. Ilmiy tekshirish ishlарини avj oldirib yubordilar.

O'lkanizda A.S.Uklonskiy «Oltingugurt konlarining paydo bo'lishi va uning neft bilan aloqasi» degan mavzuda katta ishlар qildi. B.N.Nasledov o'zining «G'arbiy Tyan-Shan va O'zbekiston metallogeniyasining asosiy belgilari» degan asarida konlarni tartibga solishga urinib ko'rdi.

1950-yilda H.M.Abdullayevning «Ma'danlarning intruzivlar bilan genetik aloqalari» degan yirik ilmiy asari bosilib chiqdi. Bu asarda muallif, asosan O'rta Osiyo konlarida to'plangan ma'lumotlarga asoslanib, ma'dan konlarining paydo bo'lishi bilan intruziv jinslar orasida genetik (to'la) bog'lanish bor, degan xulosaga keldi. X.M.Abdullayevning bu asari sobiq Ittifoq geologiya jamoatechiligi tomonidan keng muhokama qilindi va undagi asosiy fikrlar ma'qullandi. 1958-yilda olimga ma'danlarning intruzivlar bilan bog'liqligiga bag'ishlangan qator asarlari uchun Davlat mukofoti berildi.

L.X.Hamroboyevning «G'arbiy O'zbekiston magmatizmi va magmadan keyingi jarayonlar» deb nomlangan ilmiy ishlarning yakuni geologiya sohasida muhim voqeа bo'ldi.

Peginatit konlari va ulaming joylashish qonuniyatlarini bo'yicha X.N.Boymuhammedovning G'arbiy O'zbekiston tog'larida olib borgan ishlari va 1960- yilda oltin konlari vulkan jinslari bilan bog'liq, degan fikri O'rta Osiyoda vulkan-gidrotermal jarayonlarning chuqur o'rGANISHiga sabab bo'ldi. V.I.Popov, I.M.Isamuhammedov, I.M.Mirxodjayev, V.G.Garkoves, G.Axmedov, Q.I.Boboyev, M.O.Axmадjonov, K.Urumbayev, T.N.Dalimov va boshqa geolog olim va mutaxassislarimiz ham foydali qazilmalarni o'rGANISH sohasida muhim ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar olib bordilar va bormoqdalar.

### O'zlashtirish uchun savollar

1. Foydalı qazilmalarni o'rGANISHda Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Boburlar qanday ishlar qilgan?
2. Foydalı qazilma konlarini o'rGANISH Rossiya, Yevropa, O'rta Osiyo tadqiqotchilaridan kimlarni bilasiz?
3. Foydalı qazilmalarni o'rGANISHda X.M.Abdul-layevning tutgan o'mi?

Atamalar: morfologiya, metallogeniya, magma-tizm.

## 1.4 YER SHARINGIN TUZILISHI VA TARKIBI

Yer quyoshi sistemasiga kiruvchi sayyora bo'lib, ko'rinishi shar, ba'zan ellipsoid shakliga yaqin. Ammo bu shakllar yerning haqiqiy shaklini to'g'ri aks ettira olmaydi. O'rGANISHlar shuni ko'rsatadiki, yerning yuzasi ma'lum bo'lgan geometrik shakllarning birortasiga ham to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun yerning shakli geoid (yerning o'ziga xos shakli) deb yuritiladi. Yerning yuzasi 510 mln km<sup>2</sup>, hajmi 1083 mlrd km<sup>3</sup> ga teng. Yer meridianining uzunligi 40008,6 km, ekvator uzunligi esa 40075,5 kmga teng.


Yer tarkibida quyidagi qobiq (sfera)lar ajratiladi: atmosfera, gidrosfera, litosfera, mantiya va o'zak.

Yerni tashqi tomonidan o'rab turgan birinchi qatlama *atmosfera*, ya'nı *havo qobig'i* bo'lib, uning qaliligi 2000 km gacha yetadi. U har xil gaz va suv bug'lardan tashkil topgan. Bu qobiqning yerga yaqin bo'lgan qismining tarkibida 78,3% azot, 20,99% kislород, 0,03% karbonat angidridi, 0,94% argon, neon, geliy, ozon, amniak va boshqa elementlar uchraydi. Atmosfera o'z navbatida trotosfera (qaliligi 70-72 km) va ionosfera (80-85 km dan balandda bosqlanadi) kabi uch qismga bo'linadi.

Yer yuzining 70,8% ini tashkil qiluvchi dengiz, okean, ko'l va daryolar *gidrosferani*, ya'nı suv qobig'ini tashkil qiladi. Uning o'rtacha qaliligi 4 kmga yaqin hisoblanadi.

Gidrosferada D.I.Mendeleyev davriy jadvalidagi ko'rgina elementlar mavjud. Lekin bu qobiq kimyo xossalariiga ko'ra, asosan, kislород va vodoroddan iborat.

Keyin keladigan uchta sfera geofizik tadqiqotlar yordamida ajratilgan (1- rasm). Geofizik tekshirish usullaridan biri bo'lgan seysmik usul yer qatlamlarning fizik holatini aniqlash imkonini beradi. Yer bag'ridagi har xil jins o'ziga xos fizik xususiyatga ega. Bo'ylama ko'ndalang seysmik to'lqinlarining bu jinslardan ottishiga qarab, yer bag'rining turli qobiqlari aniqlangan. Shulardan eng yuqori *litosfera* yoki yer qobig'i bo'lib, uning qaliligi 10 kmdan 70-75 kmgacha boradigan qobiq shaklida yerning butun yuzini o'rab olgan. Okeanlar ostida yer qobig'i yupqa 0,5-3,2 km, qit'alar ostida esa qalin, 20-75 kmgacha boradi. O'rta Osiyo rayonida yer qobig'i sezilarli darajada qalindir. Yer qobig'ining tubi Orol dengizi tomonidan 35 km chiqurlikda kuzatiladi. Tyan-Shan va Pomir tog'larida esa 60-70 kmgacha chiqurga tushadi.



1-rasim. Yerning kesimi (A.P.Vinogradov bo'yicha)  
 A-yer qobig'i; B,C,D-yuqori, o'rta va quyi mantiya; E-tashqi o'zak; F-ichki  
 o'zak; H-yer qobig'i va mantiyani bo'lib turuvchi sirt (Moxorovich  
 chegarasi)

Litosferaning kimyoviy tarkibi kislород, кремнии, алюминии, калии, кальций, натрий, магниий ва босхга элементлардан ташкіл топған. Америкалик олим V.M.Goldshmidt бу элементлардан кремнии (Si) ва алюминии (Al) ко'п учрashligini hisobga olib, yer qobig'ini «siab» qobig'i deb atagan edi.

Seysmik to'lqlarlarning tarqalishiga ko'ra, yer qobig'ida «cho'kindi», «granitli» va «bazaltli» qatlamlar ajratiladi.

Yuqori - «cho'kindi» qatlam turli tog' jinslarining nurashidan vujudga kelgan cho'kindi va metamorfizm hodisa-sining hosisalari metamorsifik jinslardan iborat bo'lib, qalinligi okean tubida 0,3-0,4 kmga yaqin, qit'alarda esa 10-25 kmga yetadi.

O'rta - «granit» qatlam granit va fizik xususiyatlari unga yaqin gneys, kristalli slanes kabi jinslardan tuzilgan. Okeanlar ostida bu qatlam bazalt va boshqa zieh cho'kindi-metamorsifik jinslardan iborat bo'lib, qalinligi 2-5 kmga yetadi. Qit'alarda esa o'rta (granit) qatlarning qalinligi 10 kmdan 30-40 kmgacha yetadi.

Quyi - (bazalt) qatlamning tarkibi seysmik to'lqinlarning tarqalish tezligiga qarab chamałanadi va bazalt, o'ta metamorfik jinslardan tuzilgan deb faraz qilinadi. Bu qatlamning qalnligi okeanlar tubida 3-7 kmga borsa, qit'alarda 10-35 kmgacha yetadi.

Yer qobig'idan keyingi qobiq - mantiyaga o'tish chegarasida ko'ndalang seysmik to'lqinlarning tezligi sezilarli o'zgaradi. Bu o'zgarish chegarasi uni o'rgangan yugoslaviyalik olim Moxorovich nomi bilan atalgan.

Mantiya Moxorovich chegarasi (80 km yer ostida) dan boshlanib, etagi 2900 km chuqurlikkacha davom etadi. U ikki po'stga bo'linadi.

Yuqori mantiya yer qobig'idan to 1000 kmgacha chuqurlikda joylashgan bo'lib, tarkibi peridotitga to'g'ri keladi deb hisoblanadi. Yuqori mantiyada kislород, kreminiy, magniy, temir, alyuminiy, kaliy va natriy elementlari uchraydi. Mantiyaning bu qismini V.M.Goldshmidt «sim» qobig'i deb yuritgan.

Quyi mantiya (1000-2900 km) ning tarkibi bazalt-dunit-peridotit aralashmalariga to'g'ri keladi deb taxmin qilinadi. Kimyoviy tarkibiga ko'ra, asosan, temir va nikeldan tashkil topgan. Shuning uchun akademik A.E.Fersman quyi mantiyani ma'danli geosfera deb hisoblagan.

Mantiyaning ostida yer or'zagi (mag'izi) yotadi. O'zakning radiusi 3500 kmga yaqin. O'zakning ichki tuzilishi yetarli o'rjaniilmagan. Undagi juda katta bosim (20 000 atmosfera) va yuqori harorat (3000-6000° C) ta'siridagi moddalari o'ta siqligan suyuqlik holida tasavvur etiladi. Keyingi vaqtarda o'zak orasida radiusi 1200 kmga yaqin kichik qotgan mag'iz ham ajratilmoqda (Leman).

Yer qobig'ining ichki tuzilishini 15-20 km chuqurlikkacha mukammal o'rjanish mumkin. Amerikalik geolog F.Klarkning ma'lumotlariga ko'ra, yuqorida eslatilgan chuqurlikkacha yer qobig'ining 95% turli magmatik va 5% cho'kindi jinslar, jumladan, 4% tuproqli slanes, 0,75% qumtosh va 0,25% ohaktoshdan tashkil topgan.

Yer qobig'ining kimyoviy tarkibini aniqlash ostida E.V.Klark, V.M.Goldshmidt, V.I.Vernadskiy, A.E.Fersman,

A.P.Vinogradov va boshqalar ish olib bordilar. XIX asrning oxirlarida F.V.Klark tog' jinslarining kimyoviy analizlaridan 6000 ga yaqinini to'plab, litosferaning o'rtacha tarkibini hisoblab chiqardi. A.E.Fersman 1939- yili yana ham aniqroq ma'lumotlarni e'lon qildi va og'irlik yoki soiz bilan ifodalanuvchi yer qobig'idagi elementlarning o'rtacha miqdorini F.V.Klark sharafiga «*Klark sonlari*», qisqacha esa *klarklar* deb ataydi. Keyinchalik klarklar akademik A.P.Vinogradov tomonidan yanada aniqlandi.

A.E.Fersman bo'yicha yer qobig'ining o'rta kimyo'iy tarkibi quyidagicha (soiz hisobida):

1. kislород	49,13	8. magniy	2,35
2. kremniy	26,00	9. vodorod	1,00
3. alyuminiy	4,75	10. titan	0,61
4. temir	4,20	11. uglerod	0,35
5. kalsiy	3,25	12. xlor	0,20
6. natriy	2,40	13. fosfor	0,12
7. kaliy	2,35	14. marganes	0,10

Mana shu 14 element litosferaning 99,51% ini tashkil etadi. D.I.Mendeleyev davriy jadvalidagi qolgan elementlar esa 0,49% ni tashkil etadi.

### O'zlashtirish uchun savollar

- Yer shari deganda nimani tushinasiz va uning parametrlari: yuzasi, hajmi, meridian va ekvatorlarning uzunligi?
- Yer shari tarkibida, uning atrofida qanday qatlamlar aniqlangan?
- Qaysi elementlar litosferaning 99,5% ini tashkil qiladi?

Atamalar: klark, mantiya, bazalt, granit.

## 1.5 MINERAL VA ELEMENTLARNING TURLI TOG' JINSLARI BILAN BOG'LIQLIGI

Foydali qazilma konlarining hamma belgilari (shakli, yotish sharoiti, tarkibi va hosil bo'lish jarayoni) shu kon yotgan yer po'stingin tarkibi va tektonik holati bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun konlarni o'rganishda kon yotgan tog' jinslarining tarkibini o'rganish katta ahamiyatga ega. Hamma foydali qazilmalar o'ziga xos va mos bo'lgan turli tog' jinslari bilan uchraydi (1- jadval).

Konlarning magmatik tog' jinslari bilan bog'liqligi. Keyingi 100 yil ichida to'plangan materiallar shuni ko'rsatadi, ko'pehilik konlar magmatik tog' jinslari bilan birga uchraydi.

A) o'ta asosiy tog' jinslari (dunit, peridotit, piroksenitlar) bilan magmatik jarayonda hosil bo'ladigan platina, xrom, titan-magnetit ma'danlari va olmos kabi boshqa foydali qazilmalar birga uchraydi.

### Kimyoiy elementlar va minerallarning turli tog' jinslari bilan bog'liqligi

1- jadval

T/r	Tog' jinslari	Elementlar va minerallarning hamrohligi
	1 2	3
I	Asosiy (gabbro, norit, anortozit va boshqalar)	1) Fe,Ti,V (titanomagnetit, ilmenit). 2) Fe,Cu,Ni,Co,Pt, (pirrotin, pentlandit, xalkopirit, magnetit, platina, va boshqalar) norit va olivinli diabazlarda uchra-ydi.
II	O'ta asosiy (dunit, peridotit, piroksenit)	1) Cr, Fe, Mg (xromit, olivin, serpentin,) 2) Pt va uning gruppasidagi metallar (Os, Ir va boshqalar) 3) Kimberlitlardagi olmoslar. 4) Xrizolit-asbest, talk (peridotitlarga gidrotermal suvlardan ta'sir etishidan hosil bo'лади).
III	Ishqoriy (nefelinli Ti, Nb, Ta va boshqalar (liporit, evdialit,	

	sienit va uning pegmatitlari)	sfen, ilmenit, va kam uchraydigan mineral gruppasi)
IV	Nordon tog' jinslari (granit, granodiorit). Nordon magmalar bilan genetik bog'langan gidrotermal tomirlar va metasomatitlar	<p>1) W, Sn, Mo, Li, F, B Be, ba'zan Nb, fa va boshqalar (volframit, turmalin, sheetit, molibdenit, kassiterit, topaz, flyuorit, beril, kolimbit, spodumen) granitli pegmatitlarda va gidrotermal tomirlarda uchraydi.</p> <p>2) Fe, W, Mo, Cu (magnetit, gemitit, molibdenit, xalkopirit, pirit, va boshqa-lar) nordon magmaning ohaktoshga ta'siri natijasida hosil bo'lgan.</p> <p>1) Au, Fe, S, As (arsenopirit, pirit, oltin va boshqalar);</p> <p>2) Zn, Pb, As ba'zida Cu, Au, Cd va boshqalar (sfalerit, galenit, prustit, xalkopirit, pirit)</p> <p>3) Ag, Bi, Co, Ni, As (kumush, argentit, prustit, koboltin, nikelin, somoltin, vismut va boshqalar);</p> <p>4) Au, Ag, Te, Se va boshqalar (telluridlar, oltin, kumush)</p> <p>5) Hg, Sb, Ba, F (kinovar, antimonit, flyuorit, barit)</p>
V	Yerning ustki qismida tashqi muhit natijasida hosil bo'lgan foydali qazimalar (qoldiq va nurash konlari)	<p>1) Fe, Mn (lateritli temir ma'dani, temir va marganes shlyapalari va Mnga boy bo'lgan birfamchi konlar hisobidan hosil bo'ladi).</p> <p>2) Al, Fe (loytuproq, boksit-tuproqsi-moni jinslar)</p> <p>3) Ni, Co, Mg (nikel va magniy silikatlari, asbolan, magnezit-o'ta asos tog jinslarining ustki yenirilishi natijasida hosil bo'ladi).</p>
VI	Dengiz va ko'llarda cho'kish gidrogyotit, natijasida hosil	<p>1) Fe, Mn (malla temirtosh, gyotit, psilometan, gausmanit, braunit)</p>

	bo'lgan foydali qazilmalar	2) Al, Fe (diaspor, boksit, kaolin, shamozit). 3) P, Ca (fosforitlar).
VII	Ko'l havzalarida ya dengizlarda bosil bo'lgan turli qatlamlar	1) Na, Ca, Mg (osh tuzi, mirobilit, gips, soda, galit, silvin, karnalit). 2) Na, Ca, Mg, B

B) asosiy tog' jinslari (gabbro, norit, anortozit) bilan esa magmatik jarayonda hosil bo'ladigan titan-magnetit va mis-nikelli ma'danlar birga uchraydi.

D) ishqorli tog' jinslarga (sienit, nefelinli sienit) magmatik jarayonda hosil bo'ladigan apatit-nefelin ma'danlari, mobiy, sirkoniy va siyrik yer elementlari hamrohdir.

E) nordon jinslar (granit, granodiorit) bilan temir, volfram, molibden, oltin va boshqa elementlar bog'liq.

### O'zlashtirish uchun savollar

1. Konlarning magmatik tog' jinslari bilan bog'liqligi deganda nimani tushunish kerak?

2. O'ta asos ishqorli va granit tog' jinslari bilan qanday foydali qazilmalar uchraydi?

3. Asosan dengiz va ko'llarda cho'kish natijasida hosil bo'lgan konlar.

Atamalar: mineral, element, asos, o'ta asos, nordon.

## 1.6 ELEMENTLARNING MINERAL HOSIL QILISHI VA TABIATDA HAMKORLIGI

Konlar tarkibiga kiradigan minerallar quyidagi asosiy yo'llar bilan hosil bo'ladi.

I. Minerallar magmaning kristallanishidan hosil bo'ladi.

Magma - yer po'stining ostki qismida o'tli, suyuq qotishniha holda joylashgan, soviganida tog' jinslari va turli minerallar hosil

qiluvechi murakkab modda. Bu massa har xil suyuq-qotishma modalardan iborat bo'lsa ham, buning ichida eng ko'pi va ahaniyaiga ega bo'lgani silikatli qotishmalar hisoblanadi. Magmaning ichida doimo har xil gazlar va o'ta qizigan bug'lar - qisman dissotsiatsiya holidagi suv, HF, H<sub>2</sub>S, CO, CO<sub>2</sub> va boshqalar mayjud bo'lib, ularidan tashqari tez uehib ketuvechi gaz - B, C, F va boshqalar ham ishtirok etadi. Bu komponentlar silikatlarning erish haroratini pasaytiradi va kristallanishga turli minerallar, foydali qazilma konlari (xrom, titan, apatit konlari) hosil bo'lishiga olib keladi.

#### II. Suv va gazlarning ko'tarilishi natijasida minerallar hosil bo'ladi.

Vulkanlar harakatga kelganda undan suv bilan birga juda ko'p gaz va boshqa holdagi birikmalar ajralib chiqadi. Gaz holidagi birikmalar sovuq crater devorlariga o'tirib qotish oqibatida turli minerallar to'plami hosil bo'ladi. Masalan, oltingugurt va bor kislotasi shu yo'l bilan hosil bo'ladi.

#### III. Bug'lanish va to'yinish.

Bug'lanish tufayli suv havzalaridagi sho'r suvlari to'yinadi. Natijada turli tuzlar cho'kmalar, ya'ni tuz konlari hosil bo'ladi. Masalan, natriy, kалиy va magniy tuzlari shu yo'l bilan hosil bo'ladi.

#### IV. Gazlar suyuqliklar va qattiq jismalarning ta'siri natijasida hosil bo'ladi.

Zamonaviy vulkanlarni va fumorollarni o'rganish natijasida fumorollar, asosan, ko'pehilik metallarning sulfidlaridan tashkil topishi aniqlandi. Masalan, mis, ruh, qo'rg'oshin minerallari gazlardan ajralib chiqadi. Bir turdag'i gazlarning ikkinchi turdag'i gazlarga va turli suyuqliklarga ta'siri natijasida ham turli minerallar hosil bo'ladi.

#### V. Suyuqliklar va qattiq minerallar bilan reaksiyaga kirishishi natijasida ham turli minerallar hosil bo'ladi.

Suyuqliklar yer po'stining ichkarisiga qarab siljib va yer ustki qismidan ko'pincha turli kimyoiy elementlarni erigan holda olib yuradi. Ma'lum bir sharoitda bir birikmaning ikkinchi birikma bilan qo'shilishi natijasida yangi minerallar hosil bo'ladi.

Turli birikmalar bilan qattiq minerallar o'rtaсидаги реаксиya katta ahamiyatga ega. Qattiq holdagi minerallar suyuq birikmalar bilan uchrashadi. Ma'lum sharoitda ular bilan almashish reaksiyalar yuz beradi. Oldin hosil bo'lgan minerallar yangi minerallar bilan qo'shilib va o'rin almashtirish natijasida yangi minerallar paydo bo'ladi. Bu hol metasomatizm deyiladi. Metasomatizm juda ko'p konlarni (volfram, mis, ruh, qo'rg'oshin) hosil bo'lishida katta ahamiyatga ega.

#### VI. Qattiq birikmalardan ajralish natijasida hosil bo'ladi.

Ko'pgina minerallar bir-birlari bilan qattiq birikmalar hosil qilish qobiliyatiga ega. Masalan, oltin, simob bilan qattiq birikma hosil bo'ladi (amalgamatsiya). Bir xil just minerallar qattiq birikmalarni yuqori haroratda hosil qilsa, ikkinchilari past haroratda hosil qildi.

#### VII. Minerallarning ochiq oraliqlarda qotishi.

Ayrim joylarda yoriqlardan yer ostiga sizib kirgan suvning ba'zi jinslarni eritishi sababli ohaktosh, gips, tuz kabilar hosil bo'ladi.

#### VIII. Minerallar hosil bo'lishida tirik organizim (bakteriya)larning faolyati ham katta rol o'yaydi.

Natijada ohaktosh, diatomitlar, oltingugurt, fosforitlar, ko'mir, torf kabi foydali qazilmalarning koni hosil bo'ladi.

#### IX. Kolloid birikmalardan minerallar hosil bo'lishi alohida o'rin egallaydi.

#### X. Ko'pgina minerallar metamorfizm jarayonida bosim va haroratning o'zgarishi natijasida hosil bo'ladi.

Masalan, metamorfizm jarayonida temir gidrooksidlaridan gematit yoki magnetit paydo bo'ladi.

Yer qobig'idagi ayrim element va minerallarning ko'pincha yonma-yon birga uchrashi (paragenezis) haqidagi qonuniyatning topilishi geologiyaning «Foydali qazilma konlari» yo'nalishida ulkan ahamiyatga ega bo'ldi. Ya'ni, ayrim elementlarning yer qobig'ida tabiiy assotsiatsiya (birlik) holatda uchrashi aniqlandi. Jumladan, xromli ma'danlar xromdan tashqari temir, magniy elementlarini uchratish mumkin bo'lsa, titan-magnetit ma'danlarida esa temir bilan birga titan va vanadiyni, kvars-kassiterit tomirlarida

volfram va molibdenning minerallari - volframat va molibdenit, oltin konlarida kumush doimiy hamroh bo'lishi aniqlandi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

### O'zlashtirish uchun savollar

1. Mineral qanday yo'llar bilan hosil bo'ladi?
2. Suv va gazlarning ko'tarilishi natijasida qanday minerallar hosil bo'ladi?
3. Qattiq birikmalar qo'shilishi oqibatida qanday minerallar hosil bo'ladi?

Atamalar: gaz, amalgama, metasomatizm.

## 1.7 MA'DANLARNING STRUKTURA-TEKSTURA XUSUSIYATLARI VA MA'DAN HOSIL BO'LISH ETAP VA STADIYALARI

Ma'danlarning struktura va tekstura xususiyatlarini o'rGANISH minerat hosil bo'lish jarayonini kuzatish imkoniyatini berish bilan birga ma'danlardan foydali elementlarni ajratib olish texnologiyasini to'g'ri ishlab chiqishga ham yordam beradi.

Ma'dan ma'danli va ma'dan emas minerallardan tashkil topadi. Ma'danli minerallar sanoatda ishlatish uchun ajratilib olinadi. Ma'dan emas minerallar esa ko'pincha ishga yaroqsiz hisoblanib, tashlab yuboriladi.


Ma'danli minerallarning tarkibida sanoat ahamiyatiga ega metallar bo'ladi. Masalan, magnetitda temir, xalkopiritda mis, antimonitda surma va hokazo metallar mayjud. Ayrim hollarda sof holda uehraydig'an oltin, kumush, mis, platina kabi metallar ham ma'danli mineral bo'lib hisoblanadi.

Ma'danlarda, bularidan tashqari yo'ldosh rolini o'ynaydigan - ma'dan emas minerallar - kvars, kalsit, barit, seritsit, granat, piroksen kabi o'nlab boshqa birikmalar ham uehraydi.

Ma'dan minerallarining hosil bo'lish shakllari, o'lehamilari va o'zaro munosabatlari ma'danning strukturasi deyiladi.


Agar mineralallar hosil bo'lish jarayonida harorat, bosim va boshqa omillar me'yorida bo'lsa, tekis donador strukturali ma'danlar yuzaga keladi. Boshqa sharoitlarda noteoris donador, plastinkali, tolali, zonal kabi o'ndan ortiq strukturalar hosil bo'ladi (2- rasm).

Ma'danlarda ma'danli mineralallar juda zinch joylashgan bo'lsa, bu ma'dan teksturasi massiv tekstura deb yuritiladi. Gidrotermal eritmalar hosil bo'lgan oltin, mis, polimetall konflarida esa ma'danli mineralallar turli o'lehamli tomirlarda joylashadi. Hosil bo'lgan tekstura ham tomirli deb ataladi. Ma'dan teksturalarining, bundan tashqari yo'l-yo'l, dog'simon, buyraksimon maydalangan turlari ham uchrib turadi.



2- rasm. Ma'danlarning ayrim struktura va tekstura turlari  
Strukturalar: a-tekis donador; b-notekis donador; c-d-plastinkali; e-zonal.  
Teksturalar: f-donsimon; g-xollanma; h-tomirli; i-yo'l-yo'l

Ma'danlarning struktura va teksturasini o'rganish mineralllarning hosil bo'lish, ya'ni kon hosil bo'lish jarayonlarini o'rganishga va bu jarayonlarni turli etap va stadiyalarga bo'lishga imkon beradi.



2-rasm. Qoratepa sheelit konidagi minerallarning hosil bo'lish sxemasi (M.S.Kuchukova bo'yicha)

Bir genetik jarayon (magmatik, pegmatit yoki gidrotermal kabi) minerallar hosil bo'lish davri yoki ma'danlanish etapi deb yuritiladi.

Etapning ichida sodir bo'ladigan ma'lum tarkibli ma'dan hosil qiluvchi minerallar shakllanadigan davri ma'danlanish stadiyasi deyiladi.

Ma'danlanish stadiyalarining soniga qarab oddiy (bir stadiyalisi) va murakkab (ko'p stadiyalisi) konlar ajratiladi. Masalan,

Orzbekistonning volfram konlarida skarn va gidrotermal etaplari va etaplар ichida 10 dan ortiq ma'danlanish stadiyalarini aniqlangan.

Ma'danlanish stadiyalarini ajratishdagi asosiy omillar: erta hosil bo'lgan minerallar va ularning to'plamlarini keyin hosil bo'lgan mineral to'plami yoki tomirlarning kesishi, erta hosil bo'lgan mineral bo'laklarini keyingi stadiya minerallari bilan «sementlanib» qolishi kabilar hisoblanadi.

### **O'zlashtirish uchun savollar**

1. Ma'danlarning strukturasi va teksturasi.
2. Etap va stadiyalar qanday hosil bo'ladi?
3. Qanday struktura va teksturalarni bilasiz?

Atamalar: ma'dan, ma'danlanish etapi, ma'danlanish bosqichining sementlanishi, gipidiomorf zarrali.

## **1.8 FOYDALI QAZILMA KONLARINING SHAKLLARI VA TABIATDA YOTISH SHAROITLARI**

Foydalı qazılma konları va ular joylashgan tog' jinslarining hosil bo'lishiga qarab, konlar ikki turga bo'linadi: *singenetik* va *epigenetik* konlar.

Singenetik konlarda foydalı qazılmalar tog' jinsi bifaн birga bir vaqtда, bir xil geologik sharoitda hosil bo'ladi. Bu konlarga toshko'mir, tuz qatlamlari, boksitlar misol bo'la oladi.

Epigenetik konlar esa, asosan, tog' jinslari hosil bo'lgandan keyin butunlay boshqa-boshqa geologik jarayonda hosil bo'ladi. Bu konlarga misol qilib magmadan keyin hosil bo'lgan konlarni keltirish mumkin. Bu konlar ko'pineha turli tog' jinslarining darzliklarida tomir holda joylashadi.

Konlar uch o'leham (uzunligi, bo'yи, chuqurligi)ga ega bo'ladi. Shu o'lehamga qarab foydalı qazılma konlarining ma'dan tanalari quyidagi shakllarga bo'linadi.

1. Izometrik - tarallama o'lehamlari bir biriga yaqin bo'sib, bu shakldagi konlar ko'p tarqalgan emas.

2. Plita shaklidagi, asosan, ikki o'leham bo'yicha cho'zilgan (uzunasi va eniga), uchinchchi o'lehami (qalinligi) kichik ma'dan tanalari.


3. Tomir shaklidagi, asosan, uzunasi, eni va qalinligi katta ma'dan tanalari.

4. Truba (ustun) shaklidagi, asosan, bir o'lehamli (chuqurligi) bo'yicha cho'zilgan, qolgan ikki o'lehami kichik ma'dan tanalari.

1. Izometrik shaklidagi ma'dan tanalari. Bu tip ma'dan tanalariga quyidagilar kiradi:

1. Shtokverk - ko'pincha turli tomonga qarab yotgan o'zaro kesiluvchi ma'danli tonirchalarning to'plami. Bu ma'danli tonirchalar, asosan, tog' jinslarining darzliklarida yoki intruziv massivlarning yuqori qismlarida joylashadi (4-rasm). Shtokverk shakli qalay, volfram, molibden va mis konlari uchun xarakterlidir.

2. Shtok - ma'dan tanalarining noto'g'ri (izometrik) shakli bo'lib, ko'pincha xrom, mis va ba'zi polimetall (Pb, Zn) konlari uchun xarakterlidir. Uya deb, ko'pincha uncha katta bo'lmagan (ko'ndalang kesimi 10 metrgacha etadigan) minerallar to'plamiga aytildi. Bu tipdagisi ma'dan tanalari o'ta asosiy tog' jinslari bilan bog'langan platinali va nordon magmatik jinslarida uchrovchi pegmatitlarga xosdir.



4- rasm. Kondagi ma'dan tanalarining ayrim shakllari  
a-shtokverk (plan); b-linza (plan); c-trubasimon (qirqim); e-tomir (qirqim)

**II. Plita ko'rinishidagi ma'dan tanalari** - singenetik va epigenetik konlarda uchraydi va quyidagi formalarga bo'sinadi.

1. Plast (qatlam) - ikki parallel tekislik bilan chegaralangan tog' jinslari orasida joylashadi. Bu plastlar uneha katta qalinlikka ega bo'lmasa ham, uzoqqa cho'zilgan bo'ladi. Bu tipdagi ma'dan formalari temir, marganes, gips, tuz konlarda uchraydi.

2. Linza - ma'danli uyumlar bo'lib, formasi linzaga o'xshash, asta-sekin chetiga qarab qalinligi kamayib boradi.

**III. Tomir ma'dan tanalari** - tog' jismlarining yoriq (darzlik)larida ma'danli minerallar to'planishi natijasida hosil bo'ladi. Tomirga o'xshash ma'dan tanalarining forma va razmerlari har xil bo'ladi. Bu tomirlarning qalinligi bir necha santimetrdan yuzlab metrgacha yetadi. Tomir ichida sodda, murakkab, narvonsimon, setkasimon va boshqa shakllari ajratiladi.

**IV. Trubasimon (ustunsimon)** ma'dan tanalari - silindr shakliga ega bo'lib, ularning o'qi yer yuzasiga qarab yo'nalgan bo'ladi. Bu formadagi konlar 200-300m chiqurlikkacha cho'zilgan bo'lib, cho'kindi tog' jinslari uchraydigan qo'rg'oshin, ruh, kumush konlari xarakterlidir. Yana qalay, molibden, olmos, oltin konlari ham uchrashi mumkin.

### **O'zlashtirish uchun savollar**

1. Foydalı qazilma konlarining ma'danlari qanday shakllarda uchraydi?

2. Shtok va shtokverk nima?

3. Tomirli ma'dan tanalarining shakllari qanday?

Atamalar: plita, plast, linza, izometrik, truba, singenetik, epigenetik.

## **1.9 FOYDALI QAZILMA KONLARINING TASNIFlash USULLARI**

Foydali qazilma konlarini tasniflashda (bo'lishda) turli prinsiplar asos qilib olinadi.

1. *Morfologik tamoyil* Bunda konlardagi ma'dan tanalarning shakliga qarab va ma'danlarning tog\* jinsi orasida yotish holatiga qarab, guruhlarga bo'linadi.

2. *Kimyo-teknologik tamoyil* Bunda ma'danlar konlarning tarkibiga va uning xalq xo'jaligida ishlatalishiga qarab tasniflanadi.

3. *Genetik tamoyil* - ya'ni konlar hosil bo'lish sharoitiga qarab tasniflanadi.

### **MORFOLOGIK TASNIFASHI**

*Konlarning morfologiyasiga qarab tasnifash* juda ham sodda bo'lib, u ma'danlarni qazib olishda katta abhamiyatga ega.

O'tgan asrda shu prinsip asosida B.Kott konlarni ikki guruhga bo'lgan.

I. To'g'ri yotgan konlar:

- a) qatlam holidagi konlar (plastlar);
- b) tomirlar (qatlamlı, kesuvechi, tutash va boshqalar);

II. Noto'g'ri yotgan konlar:

- a) shtoklar;
- b) xollangan konlar.

### **KIMYO - TEKNOLOGIK TASNIFASHI**

Bu tasnifashning asosida ma'danlarning tarkibi va ularning qo'llanishi yotadi. Bunda foydali qazilmalar quyidagi guruhlarga bo'linadi.

1. *Metall foydali qazilmalar*:

1-guruh - qora metallar: temir, xrom, titan, marganes,

2-guruh - rangli metallar: mis, qo'rg'oshin, ruh, nikel, kobalt, alyuminiy, magniy.

3-guruh - nodir metallar: vanadiy, molibden, volfram, qalay, simob, surma, marginush, vismut, litiy, berilli, niobi, tantal.

4-guruh - asl metallar: oltin, kumush, platina.

5-guruh - radioaktiv elementlar: uran, radiy, toriy.

6-guruh - tarqoq elementlar: kadmiy, germaniy, galliy, tellur, indiy, reniy, rubidiy, gafniy va boshqalar.

7-guruh - siyrak yer elementlari: samariy, seriy va boshqalar.

#### II. Ma'dan emas foydali qazilmalar:

1. Kimyo sanoati va qishloq xo'jaligi xomashyolari: osh tuzi, kaliy tuzi, fosforit, apatit, oltingugurt, barit, flyuorit va boshqalar.

2. Qurilish materiallari va ularning xomashyolari: magmatik va metamorfik tog' jinslari, ohaktosh, mergel, gips, qum, quimtosh, shag'yal, loytuproq va boshqalar.

3. Abraziv materiallar va ularning xomashyolari: olmos, korund, granat, boksit.

4. Izolyatsion materiallar: asbestos, slyuda, marmar.

5. Keramik, olovga va kislotaga chidamlı materiallar va ularning xomashyolari: tuproq, kaolin, dala shpati, kvars va boshqalar.

6. Qimmatbahlo va rangli toshlar: olmos, rubin, topaz, nefrit, malaxit.

7. Bo'yoglar: talk, barit, kaolin, ohak, loytuproq.

III. Yonuvchi foydali qazilmalar: gaz, neft, yonuvchi slaneslar, torf, ko'mir.

## GENETIK TASNIFLASH

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib foydalı qazilma konlarini o'rGANISH alohiida bir san darajasiga aylanib, bu fanni chiqur o'rGANISH konlarning kelib chiqishiga qarab tasniflash imkonini yaratdi. Bu tasniflash genetik (konlarning hosil bo'lish shart-sharoitlari va uning yer bag'rida tarqalish) tasniflash deyiladi.

Konlarning genetik tasnifini yaratishda juda ko'p olimlar ish olib borganlar.

O'tgan asrning ikkinchi yarmida V.I.Smirnov ma'lum tasniflarni umumlashtirib, o'zining yangi tasnifini yaratdi (1965).

V.L.Smirnov hamma konlarning hosil bo'lishi jarayonlarini uchta katta seriya (endogen, ekzogen, metamorfogen)ga bo'ldi.

*Endogen* seriyasiga kiruvchi konlarning hosil bo'lishi yer qobig'ining chuqur qismlarida bo'slib o'tadigan jarayonlar bilan bog'liq bo'ldi. Endogen seriyasida 5 guruh (magmatik, pegmatit, karbonatit, skarn, albitl va greyzen, gidrotermal) konlari, bu konlar ichida esa 14- klass konlarga ajratiladi. Keyingi vaqtida bu seriya konlar tarkibida yangi kolchedan konlar guruhi ham ajratilmoqda.

*Ekzogen* konlar seriyasi nurash va qoldiq konlarni tashkil qiladi. Bularga 4-guruh qoldiq, sizma, sochma va cho'kindi konlar kiradi. Bularning paydo bo'lishi yer qobig'ining yuqori qismida sodir bo'ladigan geologik, mexanik, geokimyoviy jarayonlar bilan bog'lanadi.

*Metamorfogen* seriyasidagi konlar esa yer bag'rida sodir bo'ladigan o'zgarishlar mahsuli hisoblanadi. Bu seriyada 2 guruh (metamorflangan va metamorfik) konlarga ajratiladi. Metamorfik guruh esa o'z navbatida 2- klass konlariga bo'linadi (2-jadval).

## A) ENDOGEN KONLAR SERIYASI

### I. Magmatik konlar

- 1) erta magmatik konlar;
- 2) kech magmatik konlar;
- 3) likvatsion konlar.

### II. Pegmatit konlar

- 1) oddiy (keramik) pegmatit konlari;
- 2) qayta kristallangan pegmatit konlari;
- 3) metasomatik o'rin almashtish pegmatit konlari;
- 4) desilitsir pegmatit konlari

### III. Karbonatit konlar

- 1) magmatik konlar;
- 2) metasomatik konlar;
- 3) aralashgan konlar.

### IV. Skarn konlari

- 1) magnezial skarn konlari;
- 2) ohak skarn konlari.

*V. Albit va greyzen konlari*

- 1) albit konlari;
- 2) greyzen konlari.

*VI. Gidrotermal konlar*

- 1) plutonogen-gidrotermal konlari;
- 2) vulkanogen- gidrotermal konlari;
- 3) magmatik.

*VII. Kolchedan konlar*

- 1) gidrotermal-metasomatik konlar;
- 2) gidrotermal-cho'kindi konlar;
- 3) aralashgan konlar.

**B) EKZOGEN KONLAR SERIYASI**

*I. Nurash konlari*

- 1) qoldiq konlar;
- 2) infiltratsion (sizma) konlar;
- 3) sochma konlar;
- 4) elyuvial;
- 5) flyuvial;
- 6) prolyuvial;
- 7) alyuvial;
- 8) literal;
- 9) glyatsial.

*II. Cho'kma konlar*

- 1) mexanik cho'kmalar;
- 2) kimyoviy cho'kmalar;
- 3) biokimyoviy cho'kmalar;
- 4) vulqon cho'kmalari.

**D) METAMORFOGEN KONLAR**

*I. Metamorflangan konlar*

*II. Metamorfik konlar*

- 1) regional - metamorfik;
- 2) kontakt - metamorfik.

## O'zlashtirish uchun savollar

1. Foydali qazilma konlarini tasniflash tamoyillari.
2. Kimyo-texnologik tamoyil.
3. Genetik tasniflash.

Atamalar: endogen, ekzogen, kolchedan, cho'kma, hidrotermal, seriya.

### II bob ENDOGEN KONLARNING HOSIL BO'LISH JARAYONLARI

Endogen konlar yer bag'rida bo'lib o'tadigan murakkab jarayonlar mahsuli bo'lib, ularga magma deb ataluvchi, yerning chuqur qismlaridan ko'tarilib chiqadigan o'tli, suyuq hamirsimon moddaning shakllanishi bilan bog'liq. Magma o'z holatiga ko'ra ko'proq qotishma bo'lib, tog' jinslari hosil qiluvechi alyumuniy, temir, kalsiy, magniy, kaliy, natriy, kremniy, kistorod vodorod elementlaridan tashqari, turli foydali qazilmalarga, har xil gaz va o'ta issiq bug': N, ON, NG, H<sub>2</sub>S, HCl, CO, CO<sub>2</sub>, B, S, F larga boy bo'ladi. Magma yer qobig'ining ustki qismlariga ko'tarilib kelayotgan paytda katta bosim ostida asta-sekin soviydi va turli shakldagi tog' jinslarini hosil qiladi. Ba'zan esa qotayotgan magmaning atrosidagi jinslarga ta'siri kuchli bo'lib, ular erib, magmaning tarkibini sezilarli darajada o'zgartirishi (assimilyatsiya)ga olib keladi. Magmaning qotishi va keyingi shakllanishi davomida ma'danli qazilmalar o'zlarini turlicha tutadi.

Asos va o'ta asos magmaning kristallanib gabbro, dimit, peridotit kabi tog' jinslari hosil bo'layotgan jarayonda ma'danli minerallar ham shakllanib *migmatik* konlarni hosil qiladi. Minerallaning to'plamlari shu tog' jinslarining ichida yoki yaqnin atrofida joylashgan bo'ladi.

Nordon intruziv jinslardan granit, granodioritlar shakllanish jarayonida magma o'choqlarida yengil-uchuvchan birikmalarga

boy bo'lgan qoldiq eritma-qotishmalar paydo bo'lib, *pegmatit* deb ataluvchi tomirsimon konlar hosil qiladi.

Keyingi yillar davomida foydali qazilma konlarining yangi turi *karbonatit* aniqlandi. Ular o'ta asosiy-ishqoriy jinslarning shakllanish jarayonida hosil bo'ladi.

Magma qotayotgan vaqtida yoki endan tog' jinslari hosil bo'lgandan so'ng magma manbaidan gaz holidagi qaynoq eritmalar ajralib, atrofdagi tog' jinslariga ta'sir etishi oqibatida yangi konlar vujudga keladi. Masalan, yer bag'ridan ko'tarilib qotayotgan magma o'z atrofdagi tog' jinslariga kimyoviy va fizikaviy ta'sir etadi. So'ンgra bu jarayonga o'zidan ajralib echiqayotgan yuqorida bayon etilgan eritmalar kelib qo'shiladi. Natijada, nordon magmatik jinslar granit, granodioritlar bilan ohaktosh, dolomit kabi karbonat jinslarning tutashgan yerlarida *skarn* konlar hosil bo'ladi.

Agar gazsimon va suv holatidagi eritmalar nordon va o'rta jinslarning orasiga tarqalib, yuqori haroratda ularning tarkibidagi minerallarni o'зgartirib yuborsa, albitit - greyzen deb ataluvchi kerilar hosil bo'ladi.

Magmatogen konlarning oxirgi bo'g'imi *gidrotermal* konlar bo'lib, ular tabiatda juda keng tarqalgan. Bu konlar magma faoliyatining so'nggi etaplarida ajraladigan ma'danli elementlarga serob bo'lgan issiq suvli eritmalarning yuqoriga ko'tarilib, kichik va o'rta chiqurliklarda turli-tuman jinslari orasida yangi minerallar hosil qilishidan paydo bo'ladi. So'nggi davrlarda bu seriyaga yangi konlar (gidrotermal-metasomatik, gidrotermal-cho'kindi va ularning aralashgan turlari) guruhi ham kiritilmoqda.

## O'zlashtirish uchun savollar

1. Qanday konlar endogen konlar deyiladi?
  2. Qanday konlar ekzogen konlar deyiladi?
  3. Qanday konlar metamorfik konlar deyiladi?
- Atamalar: magma, karbonatit, skarn.

## 2.1. MAGMATİK KONLAR

Foydali qazilmalarga boy magmaning differensiyallanishi jarayonlarida o'ta asos, asosiy va ishqorli qotishmalardan hosil bo'lgan konlar *magmatik* konlar deb ataladi. Bu konlarda titan-magnetit, apatit-magnetit, mis-nikel, xromit ma'danlari, platinoidlar, oltin, olmos, kobalt, vanadiy, siyrak yer elementlari, grafit kabi foydali qazilmalarning yirik zaxiralari ma'lum.

Magmatik konlar 1300°-1500° dan ham ortiq haroratda, yuzlab atmosfera bosimi ostida sezilarli chuhurlikda shakllanib, yuqorida aytib o'tilgan tog' jinslarning orasida uchrashligi bilan xarakterlanadi. Demak, bu xil konlarning va ularni o'rabi turgan tog' jinslarining hosil bo'lishi magmaning yer bag'ridan ko'tarilib chiqib qotishayoni bilan chambarchas bog'liq.

Ko'pincha magmatik konlarni o'zida joylashtiruvchi tog' jinslari gabbro, norit, piroksenit, dunit kabi asosiy va o'ta asosiy jinslar bo'lib, bu jinslarning ma'lum turlari bilan aniq foydali qazilmalar bog'lan-gan bo'ladi. Jumladan, asosiy jinslarning - gabbro, norit, anortozit xillari bilan titan, vanadiy, mis-nikel, kobalt konlari fazoviy va genetik bog'lansa, dunit, peridotit, piroksenit kabi o'ta-asosiy jinslar bilan platina, xromit, olmos konlari birga uchraydi (2- jadval).

**Magmatik konlarning turli magmatik tog' jinslari (formatsiya) bilan bog'liqligi**

2-jadval

Struktura	Bosqich	Magmatik jins (formatsiya)	Ertal magnatik	Magnatik konlar	Likvatsion
Burmalar	Ertal O'rta Kech	Peridotit Gabbro-piroksenit -dunit	Xromit (platina)	Xromit (platina) Titan-magnetit (platina)	-
Platformalar	- - -	O'ta asos asosiy o'ta asos ishqoriy dunit keinbriy	- - -	Olmos Apatit-magnetik nodir va siyrak elementlар	Mis-nikel -

Ko'pchilik magmatik konlar joylashgan massivlarning yo'l-yot tuzilishi (ya'ni differensiatsiyalashgan otqindi jinslardan tuzilishi) e'tiborni jaib qiladi. Bu hol asosiy jinslarda temir guruhi metallarining yuqori miqdorda va kremnezyomning kam bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, natijada bunday tog' jinslarini hosil qiluvchi magmaning qayish-qoqligi kam, lekin yengil harakatchan bo'lishiga, ya'ni uning differensiatsiyalanishiga sabab bo'ladi. Magmaning sial va semik qisimlarga bo'linish jarayoniga ma'danlarning suyuish haroratini kamaytiruvchi va birikmalarning harakatlanishini yaxshilovechi turli uchuvechi komponentlar ( $H_2O$ , Cl, B, F, P)ning ham ma'lum ta'siri bo'ladi. Bo'linish natijasida magma eritmasida ilgari kristallanib olgan minerallar pastga cho'kadi, yengillari esa yuqoriga ko'tariladi, ya'ni magmatik jinslarning och rangli yengil minerallari ustki va qoramitir og'irlari pastki hududlarda joylashadi. Bunday differensiatsiyalanish darajasi har xil bo'lib, ayrim rayonlarda, masalan, Uraldag'i intruziv massivlarida hududdan hududga o'tish sezilarsiz bo'lsa, boshqa yerlarda keskin farqlanuychan bo'lishi mumkin.

Ona jinslarni tashkil qilgan massivlarning shakkllari lakkolit, sillia, monoklinal bo'lib, cho'kindi va metainorfik jinslarni yorib chiqqan, ba'zan ularning orasida monand yotgan bo'ladi. O'lchamлari ham turficha bo'ladi. Masalan, Uraldag'i Kachkanar intruzivining ko'rinish turgan maydoni 100 kv km dan ortiq.

Magmatik konlarni o'rganishga rus geologlari M.Godlevskiy, A.Zavariskiy, V.Sobolev, G.Sokolov, chet el olimlaridan I.Fomin, P.Vagner va boshqalar munosib hissa qo'shdilar. Bu tadqiqotchilararning olib borgan ishlariiga ko'ra magmatik konlar turli yo'llar bilan hosil bo'lishligi aniqlangan.

## 1) Erta magmatik konlar

Magmaning kristallanish differensiatsiyasi vaqtida xromit, platina, olmos, loparit, monatsit, sirkon kabi siyrak yer minerallari birinchi bo'lib yoki tog' jinslari hosil qiluvchi olvin, piroksen minerallari bilan bir vaqtda hosil bo'lish xususiyatlariga egadir. Bu minerallar solishtirma og'irlikdari yuqori bo'lganliklari uchun asta-

sekin qota boshlagan magmaning silikatli qismi ostiga cho'kib yig'iladi yoki hosil bo'layotgan jins orasiga tarqaladi. Ana shunday yo'l bilan hosil bo'lgan konlar *erta magmatik* konlar deb ataladi. Bu konlarning hosil bo'lish harorati va bosimi magmatik konlar ichida eng yuqori bo'ladi. Masalan, olmos kabi qazilmalar yer bag'ridan 100 kilometr chuqurlikda paydo bo'lishligi mumkin.

Erta magmatik konlarning o'ziga xos xususi-yatlari - ma'dan tanalarning uya, linza, plita, olmos konlarida esa truba shakllaridan tashqari ko'pincha noaniq bo'lishligi, ma'dan bilan jins orasida sezilarli chegara bo'lmaslidir. Ma'danlarni ko'zdan kechir-sak, ma'danli minerallarning aniq formaliligi va ularni keyin ajralgan tog' jinslari hosil qiluvchi minerallar o'rabi, ya'ni «sementlab» turganini ko'ramiz.

Erta magmatik sharoitda hosil bo'lgan xromit, peridotit, titan-magmatitli ma'dan tanalari gabbro, grafit to'plamlari esa ishqorti jinslar bag'rida yotadi. Olmos esa o'ta asosiy jinslarning o'ziga xos xili kimberlit ichida joylashadi. Foydali qazilma ma'danlarda alohida dona (hol)lar shaklida, ba'zan tomonchiga o'xshash shlix ko'rinishda joylanib, foydali komponentlarning miqdori katta bo'lmaydi. Shu tipga kiruvechi xromit konlarida Cr<sub>2</sub>O<sub>3</sub>ning miqdori 10-20% va ayrim hollarda 30-40%gacha borishi mumkin. Olmos konlaridagi qimmatli kristallar peridotit jinslarning 0,00004-0,00009% niginha tashkil qiladi.

Erta magmatik konlar guruhiiga Janubiy Afrikadagi xromit va platinali mashhur Bushveld koni, Uraldagagi Klyuchevsk xromit koni, Afrika qit'asining janubidagi Kimberli, Yoqtistonidagi olmos konlari kiradi. Ularning ayrimlari bilan tanishamiz.

Janubiy Afrikaning Transval o'lkasidagi Bushveld koni erta magmatik sharoitda hosil bo'lgan xromit va ayniqsa platinaning ko'plab to'plangan joylaridan biri. Geologik tuzilishining asosini kembriy davridan oldin hosil bo'lgan, 100 ming kv km dan ortiq maydonni egallab yotgan o'ta-asosiy jinslardan tashkil topgan murakkab differensiatsiyalangan intruziv kompleksi tashkil qildi. Xromitli xoldor va massiv ma'danlar piroksenit va anorto-zitlarga monand yotqiziqlar ko'rinishida yotadi. Platina va uning guruhiga kiruvechi elementlar esa noritga birikkan. Ular sof holda va

sulfidlardagi izomorf qo'shimchalar hолда uchraydi. Bu kondagi Cr<sub>2</sub>O<sub>3</sub>ning miqdori 36-45%ni tashkil qiladi. Bir tonna ma'dandagi platinoidlarning miqdori 5-9 grammgacha yetadi.

Bu konga xos xususiyatlardan biri ma'danli intruzivning nisbatan tinch tektonik sharoitda vujudga kelishidir. Shuning uchun bu intruzivlarning tog' jinslari bir-birlarini kesmay, qavat-qavat bo'lib joylashadi. Ma'danli tog' jins hosil qilishi jarayonlari bilan bog'liq bo'lganligi uchun, hosil bo'lgan ma'dan tanalari ham tog' jinslari orasida tekis yotadi.


Erta magmatik konlarining ikkinchi tipik vakili bo'lib Sharqiy Sibirdagi «Mir» olmos trubkasi hisoblanadi (5-rasm). Bu konning geologik tuzilishida quyi ordovik karbonat jinslari va ularning orasida voronkasimon shaklidagi kimberlit trubkasi ishtirok etadi. Bu trubkaning tepadan ko'rinishi oval bo'lib, Sibir va Janubiy Afrikadagi boshqa trubkalar singari yer bag'tiga tushgan sari torayib boradi. Trubka, yuqorida aytib o'tganimizdek, kimberlit bilan qoplangan. Kimberlit - porfir strukturali o'ta-asosiy jins bo'lib, o'z tarkibida magmaning qotishidan hosil bo'lgan va atrofidan tushgan boshqa jins bo'laklarining minerallaridan tashkil topadi.

Trubkaning yer yuzasiga yaqin yerlarida kimberlit o'zgarib sariq-yashil tuproqqa aylangan. Kimberlit bilan tutashgan karbonat jinslarda esa mexanik harakatlar va gidrotermal eritmalarining ta'siri qolgan.

Odatda yuqori navli, kristallografik ko'rinishi, rangi, o'lebaimlari turlicha bo'lgan olmos kristallari yoki siniqlari butun kimberlit bo'ylab notejis tarqalib olivin, diopsid, granat kabi minerallar bilan birgalikda uchraydi.

Ba'zan esa bu mineralarni olmosning ichida ham uchratish mumkin. Bu esa olmosning kimberlitni hosil qiluvechi minerallar bilan oldinma-keyin hosil bo'lganligini ko'rsatadi.

Bu va boshqa olmosli trubkalarni har taraf-lama o'rganish olmos ustida olib borilayotgan eksperiment natijalari qattiqlik sulton-i olmos konlari juda katta bosim va chuqurlikda kimberlitli magmaning «portlab» ko'tarilganligi va shakllanishi natijasida hosil bo'lishligini ko'rsatmoqda.



5- rasm.“Mir” kimberlit trubkasining sxematik geologik kartasi va qirqimi

1-elyuvial-delyuvial qatlari; 2-sariq rangli o'zgargan kimberlit; 3-yashil o'zgargan kimberlit; 4-qora yashil rangli kam o'zgargan kimberlit;  
5-karbonat jinslar

## 2) Kech magmatik konlar



Magma kristallanish jarayonining oxirlariga kelib, undagi uchuvchi birikmalar miqdorining ortishi tufayli jins hosil qiluvchi minerallar kristallanadi. Ma'danli minerallar esa yig'ilib, qoldiq ma'danli qotishmalarni vujudga keltiradi. Ular esa o'z navbatida tashqi va ichki kuchlar, masalan, tektonik harakatlarning kuchayishi yoki ichki gaz kuchla-nishining ortishi tufayli siljishi va qotib bo'layotgan intruziv tanalaridagi yoriqlarni to'ldirishi mumkin. Shu usul bilan kech magmatik konlar vujudga keladi. Bu konlardagi ma'danni ko'zdan kechirsak, ma'dan emas minerallar

birinchi, ma'danlı minerallar esa ikkinchi navbatda hosil bo'lganini ko'rainingiz. Erta magmatik konlardan farqli o'taroq, bu yerda ma'danlı minerallar ko'pincha «sement» rolini o'ynaydi. Bu toifadagi konlarda ma'danlı minerallardan xromit va platinoидлар peridotit bilan, titano-magnetit va ilmenit gabbro-dunit bilan, apatit, magnetit, nefelin, siyrak yet elementlari esa ishqoriy jinslar bilan genetik bog'langan bo'ladi.

Kechki magmatik konlar qoldiq ma'danlı qotishmalarning ona jinslardagi yoriqlarida shakllanishi sababli, ma'dan tanalarining asosiy shakkllari tomir va linsasimon bo'ladi. Shtok, uya kabi ma'danlar yig'ilgan joylar ko'p uchraydi. Ma'dan tanalarining uzunligi 400-800 metrgacha borsa, apatit-nefelin linsolari bir necha kilometrgacha yetadi. Qalinligi esa o'nlab metrlar bilan o'lehanadi. Ma'dan tanalari bilan or'z ichiga olgan jinslarning tutash chegarasi keskin bo'ladi. Ma'danlar massiv, ba'zan esa xoddor teksturani tashkil qiladi. Foydali komponentlarning miqdori yuqori bo'ladi. Masalan, yuqori navli xrom ma'danida Cr<sub>2</sub>O<sub>3</sub>ning miqdori 45% dan ortiq bo'lib, 35-40% xrom oksidi bo'lgan ma'danlar past navli hisoblanadi.

Kechki magmatik konlar qora (Fe, Cr, Ti), legirlovechi (V), asl (Pt) metallar, fosfor, alyuminiy olishda muhim ahamiyatga ega. Ta'riflayotgan konlarning xromitli (Kempirsoy, Saranovsk) va platinali xillari Uralda va Janubiy Afrikada joylashgan. Titanomagnetit va ilmenit konlari esa Ural (Kusinsk, Pervouralsk, Kachkanar)dan tashqari tog'li Shoriya, Sayan tog'larida uchraydi. Apatit-magnetitli konlar Shvetsiyada (Kirunavara), apatit-nefelinli konlar esa Kola yarim oroli (Sibir)da topilgan. Kechki magmatik konlarga misol tariqasida Uraldag'i Kempirsoy xrom konini (6-rasm) va Kachkanar temir konini ko'rib eliqish mumkin.

Janubiy Uraldag'i Kempirsoy xromit konining geologik tuzilishida quyi palecozoy yotqiziqlari orasida joylashgan o'tasosiy va asosiy jinslar massivi ishtirok etadi.



6- rasm. Kempirsoy xromit koni uchlastka-laridan birining ko'ndalang qirqimi (N.V. Pavlov va I.I.Chuprinina bo'yicha)  
1-garburgit; 2-piroksinli dunit; 3-dunit; 4-xromit ma'dani

Uzunligi 70 kmdan ortiq, eni 5 kmdan 30 kmgacha yetuvchi cho'zilgan faktolit shaklidagi bu intruziv massivi uch qavat (zona) bo'lib, yuqori qavati peridotit, o'rta qavati dunit-garburgit va quyi qavati dunitdan tashkil topgan.

Ushbu jinslarning barchasi serpentizatsiya jarayomiga uchragan.

Ma'dan minerallari xromspinelidlar, xrom-diopsid, xrom-aktinolit, magnetit, gemitit, sulfidlardan iborat. Ma'dan tanalari tabaqa, linzasimon bo'lib, uzunligi 800 metr, qalintigi or'tlab metrga yetadi. Ma'danlar tarqoq va zinch (tutashgan) holda uchraydi.

Bu konning eng xarakterli xususiyatlaridan biri ma'danlarning tarqalishidir. Xromitli ma'danklar yuqorida aytib o'tilgan intruziv jinslarning barcha turida uchrasa-da, xromga boy katta ma'dan tanalari pastki qavatdagi dunitga birikkan. Intruziv massivlarning janubiy sharqida rivojlangan bu jinslar orasidagi xrom oksidining miqdori 60 ga, glino-zyomning miqdori esa 7-11%ga yetadi.  $\text{Cr}_2\text{O}_3$ ning FeOga nisbati 4 dan oshiqligi bu ma'danlarning yuqori sifatlilikidan dalolat beradi. Yuqori hudud-

larda joylashgan ma'danlarda esa  $\text{Cr}_2\text{O}_3$  40%ga yetsa,  $\text{Al}_2\text{O}_3$  ning miqdori 3-4 barobar ortadi.

Ikkinci xususiyat P.M.Tatarinov ta'kidlaganidek, ma'dan dan keyingi tektonikaning intensiv rivojlanganligi bilan ifodalanaadi. Oqibatda, ko'pgina ma'dan tanalari yoriqlar bilan qayta-qayta suritib, bloklarga bo'linib ketgan.

Shimoliy Uraldagagi Kachkanar titano-magnetit koni gabbro-piroksenithi intruziv massiviga birikkan. Piroksenitlar massivning yarmiga yaqinini tashkil qiladi. Titano-magnetit ma'danlari shujinslar ichida xoldor, shlix, yo'l-yo'l, ayrim yerlarda uya, tomir ko'rinishda uchraydi. Ma'danlarning asosiy qismi magnetit (ozgina ilmenit, pirit, xalkopirit, pirrotin)dan iborat. Bu minerallar silikatli minerallardan keyin hosil bo'lganliklari uchun ma'danning sideronit strukturansini hosil qilgan.

Ma'danlardagi temirning o'rtacha miqdori 16-17%, titanning miqdori 1,3%ga yetadi. Qimmatli qo'shimeha vanadiyning miqdori 0,14%.

O'zbekistonda sof magmatik konlar ma'lum emas. Ammo I.N.Hamroboev, R.Nazirovalarning Sultan-Uvas tog'larida olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlari oqibatida shu hududdagi osfalist hududlaridagi (Kaxrali-Soy) gabbroidlari va Jaimon-Soy intruzivi zabbro-dioritlari tarkibida xrom birikmalari krokoit, bellit mineralarining topilishi va keyinchalik bu dalillar V.Baranov tomonidan hududning boshqa uchastkalarida ham aniqlanishi, I.M.Golovanov va E.Aliyevlar Chotqol tog'ining g'arbiy qismidagi (Shavas-Belyatau) soylaridagi gabbro massivlarida kattaligi no'xat donalari va undan ham katta shaklda pirit, pirrotin va xalkopirit uyalarining mavjudligi haqidagi ma'lumotlari kelajakda respublikamizning shimoliy va shimoli-sharqiy hududlarida sof magmatik konlarning topilishi ehtimoli borligidan dalolat beradi.

Keyingi o'n-o'n besh yillar davomida R.T.Yusupov va A.Golovkolar tomonidan Chotqol tog'i (Qo'shmonsoy)da, Markaziy Qizil-Qumning Bukantau tog'laridagi vulkanik trubkalarining o'rganilishi oqibatida respublikamizda ham olmos konlari mavjudligi isbotlandi. Bu konlarda aniqlangan olmos donalari mayda va anchea sisatsiz bo'lishiga qaramay, bu namunalar

kelajakda Bukantau. Chotqol tog'larida katta zaxiralarga ega bo'lgan olmos konlari topilishi mumkinligidan dalolat beradi.

### 3) Likvatsion konlar

Uchinchchi xil magmatik konlar magmaning sovishi jarayonida, biri-biriga aralashmaydigan sulfidli va silikatli qismlarga ajralishi oqibatida, ma'danli qismning qotishi natijasida hosil bo'ladi. Bu konlar shunday ikki qismga ajralishi, ya'ni likvatsiya tufayli paydo bo'lganliklari uchun likvatsion kon deb yuritiladi. Magmaning bunday qismlarga ajralish sabablari ko'pchilik olini va mutaxassislar: N.Fogt, P.Ram dor, M.Godlevskiy, A.Betextin, V.Smirnov va boshqalar tomonidan o'rganilgan. V.Smirnov bo'yicha likvatsiya magmadagi oltingugurtning to'planishi, temir, magniy, kreminiy va suyuq silikatli magmaning tarkibida xalkofil elementlarning bo'lishi sabab, masalan, silikatli magmada temir bo'lsa, u sulfidlarning erishini oshiradi. Magma qotayotganida temir miqdorining kamayib borishi esa, sulfidli qotishmalar ajralishiga va bir yerga yig'ilib qolishiiga olib keladi. Ba'zan esa bunday ajralish yon jinslarning magnaga ta'siri (ya'ni assimilyatsiya) tufayli ham bo'lishi mumkin. Chunki magmaning silikatli va sulfidli qismlarga bo'linishi tajribalar asosida ham tekshirilgan. Jumladan, Ya.I.Olshanskiy 1947-1950 yillarda olib borgan eksperimental ishlari 1500 va undan ortiq haroratlarda, ma'lum miqdordagi minerallashuvlarning ishtiroti tufayli, sulfidlar magmada eruvchan bo'lishligini, haroratingning pasayishi sulfidlarning eruvchanligi kamayishiga va so'ngra ularning silikatli qismlardan ajralib ketishini isbotladi. Likvatsiya jarayonining boshida sulfidli moddalar mayda tomchilarga ajraladi. Ular esa o'z navbatida boshqa tomchilarga o'xshash formadagi sulfidlar bilan birlashib, asta-sekin og'irliklari tufayli pastga qarab tusha boshlaydi. Sulfid tomchilari silikat qismining mineralлари bilan birga kristallanib, singenetik ma'danlarni hosil qiladi. Uya, finza, yo'l-yo'l yot-qiziqlar ko'rinishidagi ma'dan tanalari lipolit shaklidagi kuchli differensiatsiyalangan intruzivlar-ning tagida joylashadi.

Ba'zan esa sulfidli qotishmalar qotib bo'lgan intruzivdag'i turli tektonik harakatlardan tufayli paydo bo'lgan yoriqlarda shakllanadi. Ayrim yerdarda sulfidli qotishmalar intruzivdan tashqarida, masalan, vulkanogen jinslar orasida joylanishi ham mumkin (Sadberi, Norilsk). Shuning uchun ham, epigenetik ma'dan deb ataluvchi ma'dan tanalari kesuvechi tomir ko'rinishda bo'ladi. Singenetik ma'danlar xollangan bo'sib, o'zini o'rabi turgan jinslar bilan chegarasi sezilmaydi. Ikkinechi ma'danlar massiv teksturaga ega bo'sib, o'z atrofisidagi jinslar bilan keskin chegara lanadi.

Likvatsion konlar asosiy jins vakillari - gabbro, gabbro-norit, peridotit, olivinli diabaz bilan genetik bog'langanligi va ma'danlari mis va nikel minerallaridan tashkil topganligi bilan boshqa konlardan keskin farqlanadi. Shuning uchun bu konlar geologik adabiyotlarda mis-nikelli konlar deb yuritiladi.

Ma'danlar, asosan, pirrotin, xalkopirit, pentlandit va turli miqdordagi magnetit, kubanit, millerit kabi birikmalardan tashkil topgan. Ma'danlarda platina, oltin va kobalt ham uchraydi.

Ayrim kon ma'danlarida 7-1,46% nikel, 8-1,9% mis, 12% kobalt bo'ladi (Sadberi). Nikel va misning nisbati 1:1, 2:1 yoki 1:2 bo'lsa, nikelning kobaltga nisbati 20:1 dan 40:1 ni tashkil qiladi.

Likvatsion konlar guruhiiga Krasnoyarsk o'lkasidagi Norilsk, Taimyr, Kola yarim orolidagi Monche-Tundra, Kanadadagi Sadberi va Janubiy Afrikadagi Insizva konlari kiradi. Bularidan eng yiriklari Kanadadagi Sadberi konidir. Bu kon oval shaklidagi yolg'on stratifikasiyalangan, murakkab differensiatsiyalashgan intruzivga birikkan. Intruzivning yuqori qavati olivinli norit, pastki qismi esa noritdan tuzilgan bo'sib, sulfidli mis-nikel minerallari noritning ostida yig'ilgan. Ma'dan tanalarining shakli tabaqo, devorsimon bo'sib, uzunligi minglab metrga, qalinligi - bir necha o'n metrgacha boradi. Ma'danda minerallar xollangan va massiv bo'sib, asosan, pentlandit, pirrotin, xalkopirit, kubanitdan iborat. Unda oltin, kumush, selen, tellur, sfalerit, galenit ham uchraydi.

Sadberi koni ma'danlarining tabaqo, finzasimon yotqiziqlar shaktida hosil bo'lishi va intruziv ostida joylashishi, likvatsion

jarayonlarda sulfidlarning asta-sekin cho'kib yig'ilishini yaqqol tasdiqlaydi.

M.N.Godlevskiyning ma'lumotlariga ko'ra, Sadberi koni ma'danlaridagi platinoidlarning miqdori 4,5 g (1 tonnada), ayrim yerlarida 50-60 g, kumush-20 g, oltin esa 0,5-0,7 g gacha boradi.

Likvatsion jarayonlarni kuzatish imkonimi beradigan konlardan yana bittasi Kola yarim orolidagi Monche-Tundra koni (7-rasm). Bu yerda ma'dan hosil bo'lishi jarayonlari uzunligi ikki kilometrgacha yetadigan differensiatsiyalashgan asosiy-o'ta asosiy intruziv jins bilan bog'langan. Otqindi jinslar yuqori-dan pastga piroksenit va peridotit, piroksenit va gabbro-norit bo'shib o'zgaradi. Eng pastki hududda Sadberidagidek xollangan tag ma'danlar joylashsa, piroksenit va peridotitlar orasidagi, R.V.Karpov bo'yicha, parallel tik yotiqlarida massiv ma'danli tonirlari uchraydi. Ma'dan pirrotin, pentlandit, xalkopirit, magnetit, pirit va titanomagnetitdan iborat.



7- rasm. Monche-Tundra mis-nikel ko'ndalang sxematik kesimi  
(E.V.Galkin bo'yicha)

1-ultrabazitlar; 2-piroksenit; 3-norit; 4-gneys; 5-xollanna ma'dan; 6-massiv ma'dan

## O'zlashtirish uchun savollar

1. Magmatik konlar.
2. Erta magmatik konlar.
3. Kech magmatik konlar.
4. Likvatsiya konlari.

Atamalar: kimberlit, serpentizatsiya, likvatsiya.

## 2.2 PEGMATIT KONLAR

Magmatik jarayonning oxirgi etaplarida uchuvchi komponentlarga boy bo'lgan qoldiq qotishmalarining shakllanishidan hosil bo'lgan birikimlari *pegmatit* deb yuritiladi. Pegmatitlardan nodir metallar - berillyy, litiy, niobiy, tantal, sirkoniy, qalay, siyrak elementlar - rubidiy, seziy, grafniydan tortib, qimmat toshlar: zuminad, sapfir, berill, topaz va ma'dan emas xomashyolar - muskovit, dala shpati, kvars, kortund kabilar qazib olinadi.

Ko'pchilik pegmatitlar yuqori haroratda (A.E.Fersman bo'yicha  $700\text{-}400^{\circ}\text{C}$  intervalda), bir necha ming atmosfera bosim ostida va sezilarli chuqurlikda (A.Ginzburg bo'yicha 2-7 km) bo'lib o'tadigan magmatik jarayonning mahsulidir. Pegmatitlar intruziv jinslar bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ulardan o'lchamlarining kichikligi, shakllarining tomir va uyasimon, ichki tuzilishi, tog' jinsi hosil qiluvechi minerallarning kattaligi, uchuvchan birikmali minerallarning bo'lisligi bilan ajraladi. Tabiatda eng ko'p tarqalgan pegmatitlar nordon magmatik jinslar bilan bog'liq bo'lib, granit pegmatitlari deb nom oлган. Ishqoriy, asosiy va o'ta asosiy jins pegmatitlari esa kamdan - kam uchraydi. (3-jadval).

### Granit pegmatitlari

Granit pegmatitlari nordon jinsli massivlarning ichida hosil bo'lganligi uchun, ularning mineralogik tarkibi ona jinslar - granit, granodioritnikiga to'g'ri keladi.

3-jadval

Strukturna	Bosqich	Magmatik jins formatsiyasi	Pegmatit tipi	Tarqalish darajasi
Geosinklinar	Ertा	O'ta, asos va asos plagiogranit sienit	Asosiy	Juda kam
	O'rta	granodiorit.	Ishqoriy	Kam
	Kech	Granit kichik intruzivlar	Granit	Kam
Platforma	-	Granit	Granit	Juda ko'p tarqalgan
	-	Asosiy	Asosiy	Kam
	-	Ishqoriy	Ishqoriy	Keng tarqalgan


Bu pegmatitlarning asosiy qismi kvars, dala shpati va slyudadan tuziladi. Pegmatit qotishmalarida  $H_2O$ ,  $HCl$ ,  $HF$ ,  $H_3BO_3$ ,  $H_3PO_4$  kabi uchuvchan komponentlarning ko'payishi, nodir va siyrak elementlarning yig'ilishi tufayli, shunday komponent va elementlardan tuzilgan yangi minerallar paydo bo'lib, ular pegmatitlarda aksessor qo'shimchalar sifatida uchraydi. Bu minerallar guruhiga muskovit, topaz, turmalin, berill, litiy, lipidolit, spodumen, siyrak yer elementli - ortit, sirkon, monatsit, kolumbit, tantalit, samarskit, uranitit va boshqalar kiradi.

Pegmatitlarni ona jinslardan ajratib turadigan belgilardan biri minerallarning yirik kristallanishidir. Masalan, pegmatitlardan balandligi 2 metrdan ortiq kvars, 5,5 metrga yetadigan berill, 14 metrik spodu-men minerallari topilgan. Pegmatitdan olinadigan biotit plastinkalari  $7\ m^2$ , muskovit esa  $1\ m^2$  gacha yerni yopib turishi mumkin. Pegmatitlarda yana boshqa gigant - minerallar ham ma'lum. Masalan, Yekaterinburg tog' instituti muzeyida og'irligi 750 kg "Malyutka" va kvarsning boshqa bir xili - morionning eng kattasi (10 tonna) ma'lum. Shuningdek 60 kg topaz 100 tonnalik dala shpati, mikroklin minerallari ham pegmatitlardan olingan.

Granit, pegmatitlarning tarkibi, ona jinslarning tarkibiga bog'liq. Agar pegmatit bosil qiluvchi qotishma-eritmalar ona jinsi

granit yoki tarkibi granitga yaqin granit-gneys, kristalli slanes jinslari orasida shakllansa, bu holda granitning tarkibiga mos keladigan *toza chiziqli pegmatitlar* vujudga keladi. Pegmatit hosil qiluvchi qotishma eritma-granitdan farqlanuvchi tog' jinslari bo'lsa, *chalkash chiziqli pegmatitlar* hosil bo'ladi.

Aksariyat bunday zonal tuzilishli pegmatit tanasi tekis donador, blokli, to'la differensiatsiyalangan, nodir metalli o'rIN almashinuvchi va albit-spodumenli 5ta tekstura-paragenetik tipdan iborat bo'ladi (8- rasm).



8- rasm. Pegmatit jarayonining rivojlanish sxemasi va pegmatit tiplarining o'zaro aloqasi (K.A.Vlasov bo'yicha)

I grafik va tekisdonador, II blokli, III to'la differensiatsiyalangan, IV nodir metalli o'rIN almashinuvchi, V albitli-spodumenli pegmatit turlari

1-maydadonador, 2-yirikdonador granit (pegmatoidli), 3-“yozuvli” va “granit” strukturali pegmatit, 4-yirik donador granitdagi pegmatitlar, konlar 5-mikroklin oligoklas va ba'zan spodumen hududi, 6-kvars (spodumen, berill) hududi, 7-o'rIN almashishi (albit, muskovit, kvars, berill, spodumen, tantalit va boshqalar) hududi, 8-nodir metalli minerallar (spodumen, berill va boshqalar), 9-muskovit-kvars-albitl hududi, 10-qo'shni jinslar (slaneslar va boshqalar)

Granit pegmatitlari tarkiblari va ichki tuzilishlariga ko'ra oddiy (differensiatsiyalananmagan) va murakkab (differensiatsiya-langan) pegmatitlarga bo'linadi.

Oddiy pegmatitlar dala shpatlari va kvarsdan tuzilsa murakkablar turli minerallardan tashkil topadi va ko'pincha zonal tuzillishga ega bo'ladi.

Birinchi tip mayda donador kvars, dala shpatlardan tuzilgan bo'lib, pegmatit tanasining eng chuqur qismlarida rivojlanadi. Ikkinchisi tipning tarkibi yuqoridagidek bo'lsa ham struktura tuzilishi boshqacha - blokli bo'ladi. Uchinchi tip kvars bloklari dala shpatlari bilan nodir metall mineralari (spodumen, berill tantalit) dan tashkil topgan hududlardan iborat bo'lib, to'liq differensiatsiya-lanishni ifodalaydi.

To'rtinchi va beshinchi tiplar jarayonning oxirgi etaplarida bo'lib o'tadigan nodir metalli o'rinni almashtishning natijalaridir. Bunda avval hosil bo'lgan mineralarning orniga uchuvchi birikmalarning ta'siri ostida yangilari (albit, muskovit, mobiy tantalitlar, cassiterit) paydo bo'ladi.

Ko'pincha pegmatit tanalari oddiy va murakkab tomir ko'rinishida bo'ladi. Murakkab tuzilgan tomirlar mayda tomirlar sistemasiidan iborat bo'ladi. Ulardan tashqari yotqiziq. Imza tomehi, uya, truba ko'rinishdagi pegmatitlarni uehratish mumkin. Pegmatit tanalarining uzunligi bir necha santimetrdan to bir necha yuz metrgacha boradi. Masalan, Sibirdag'i ayrim tomirlar 200 metrgacha kuzatilgan. AQShda esa 500 metrga yetadigan tomirlar uehraydi. Pegmatit tomlarning qatliligi ham har xil bo'lib, yiriklarniki 50-150 metrga yetadi.

Pegmatit tanalarining muhim xususiyatlaridan biri ularning cho'ziqlik va qiyaligi bo'yicha sekin-asta torayib to'xtashidir. Bunday tanalar ona intruzivning ustki kontakt hududlari (kontaktga yaqin magmatik jinslarda ham, ularni o'rabi turgan cho'kindi-metamorfik jinslarda ham uehrashi mumkin)da joylashadi.

Pegmatitlar o'zları hosil bo'ladigan manbaga qarab ikkiga bo'linadi. (A.I.Ginzburg, 1952). singenetik va epigenetik Singenetik pegmatitlar, qoldiq-pegmatit hosil qiluvchi qotishmalar yig'ilgan joyining or'zida shakllanishidan hosil bo'ladi. Tinch

tektonik sharoitda vujudga keluvchi tomchi, oval shakllaridagi kontaktlari sezilarsiz bunday pegmatitlar ona jinsning bag'tida uchraydi. Epigenetik pegmatitlar tektonik sharoitga qarab ona jinsning orasida yoki cho'kindi-metamorfik jinslar ichida tomir shaklidagi uchraydi. Tomirlarning kontakti keskin bo'ladi. Murakkab (differensiatsiyalangan) pegmatitlar shu guruhga kiradi. Pegmatit konlarini o'rganish borasida A.E.Fersman katta ishlari qilgan.

O'rta Osiyo pegmatitlarini har taraflama o'rganishda H.M. Abdullayev, Q.I.Boboyev, H.N.Boymuhammedov, S.M.Bobojumayev, N.K.Djamolidinov, I.X.Hamroboyev va boshqalarning xizmatlari katta.

Pegmatitlarning paydo bo'lish masalasi juda murakkab bo'lib, hozir bu haqda uch xil gipoteza ma'lum.

Birinchi gipoteza A.E.Fersman tomonidan mukammal ishlab chiqilgan bo'lib, bunda pegmatitlar magmadagi uchuvchi komponentlarga boy goldiq qotishmalarning shakllanishidan hosil bo'ladi. Bu qotishmalar magma manbaidan tog' jinslari orasiga qadar bo'ladi. Bu qotishmalar magma manbaidan tog' jinslari orasidagi biror bo'shilqqa chiqib qota boshlaydi.

Fraksiyalanib kristallanish qoidasiga amal qilingan holda avval piromagmatik minerallar hosil bo'ladi. So'ngra ularning ayrimlari shu vaqtgacha yig'ilib qolgan uchuvchi mineralizatorlarning ta'siri ostida o'zgarib yangi mineralllar hosil qiladi.

Bu gipoteza ancha vaqt geologlar uchun asosiy qo'llanna bo'ldi. K.A.Vlasov, S.Kameron kabi geologlar tomonidan yanada rivojlantirildi. Lekin pegmatit konlaridagi minerallar orasidagi tektonik siljishlarning bo'lishligi, ayrim tomirlarni oxirgi etaplarda hosil bo'lgan minerallardan tuzilgan tomirlarning kesishi kabi geologik faktlarning to'planishi va o'tkazilgan eksperimentlar natijasida (R.V.Goranson) granitli qotishmaning suv va boshqa yengil-uchuvchan komponentlarni ma'lum miqdorda eritishi mumkinligining aniqlanishi pegmatitlar boshqa yo'l bilan ham hosil bo'lishi mumkin, degan xulosaga olib keldi. Shunga asosan bir guruh tadqiqotchilar (D.S.Korjinskiy, V.S.Sobolev, R.Djons, E.Xess, V.Shaller, K.Landus) pegmatit hosil bo'lishida metasomatik o'zgarishlarni hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblab.

ikkinechi gipotezani yaratdilar. Ular bo'yicha pegmatit jarayoni ikki-magmatit va pnevmatilit-gidrotermal etaplarga bo'linadi. Birinchi etapda qoldiq qotishmadan dala shpati va kvarsdan tuzilgan tog' jinslari yoki pegmatitlar hosil bo'ladi. Keyinchalik bularga pastdan (magma mahsulidan) chiqayotgan yengil uchuvechan birikmali eritmalar ta'sir etib, oddiy pegmatitlardagi ayrim minerallar (dala shpatlari) o'mini muskovit, berill, topaz, turmalin, nodir va siyrak elementlar yangi minerallar hosil bo'lishiga olib keladi. Demak, bu gipotezaga binoan jarayon yopiq sistemada boshlanib, keyinchalik ochilib ketadi.

Uchinchi gipoteza A.N.Zavaritskiy, V.D.Nikitin tomonidan yaratilgan. A.N.Zavaritskiy pegmatit hosil bo'lishi jarayonlarini ikki bosqichga bo'ladi. Birinchi bosqichda pegmatit hosil qiluvchi, ya'ni mayda va o'rtacha donador jinslar o'rniغا yirik va dag'al donador kvars - dala shpatli jinslar paydo bo'ladi. Bu jarayon yopiq sistemada (komponentlar chiqarmaydi va tashqaridan qabul qilinmaydi) sodir bo'ladi. Ikkinci bosqichda esa kvars - dala shpatli jinslar metasomatik o'zgarishlarga duchor bo'lib, pegmatit tanalarida muskovit, albitl, litiyli va boshqa elementli minerallar paydo bo'ladi.

Turli belgililar (qanday jinslar orasida yotishi, chiqurligi, morfologiysi kabi) asosida tuzilgan tasniflar ichida V.I.Smirnovning o'quv qo'llanmasida (1965) keltingan pegmatitlar bo'linishi tabiatda hosil bo'lgan bareha pegmatit turlarini genetik tushuntirib beradi. V.I.Smirnovning ushbu tasnifi asosida pegmatit konlarining quyidagi genetik tiplari ajratiladi:

1. Oddiy (keramik) pegmatitlar.
2. Qayta kristallangan pegmatitlar.
3. Metasomatik o'rin almashish pegmatitlari.
4. Desilitsir pegmatitlari.


### **1) Oddiy (keramik) pegmatit konlari**

Oddiy pegmatitlar, ko'pchilik tadqiqotebilarining ta'kidlashicha, pegmatit hosil qiluvchi qoldiq qotishmalarning shakllanishi tufayli hosil bo'lib, kimyoiy-mineralogik tarkibi o'z bag'tiga

olgan ona jinslarning tarkibiga to'g'ri keladi. Masalan, oddiy granit-pegmatitlar kaliy-natriyli dala shpatlari va qvarsdan iborat bo'ladi. Oz miqdorda slyuda, turmalin, granat uchrashi mumkin, bu pegmatitlarda granit yoki «xavfli granit» strukturasi ko'proq bo'ladi. Pegmatit tanalari va o'lehamlari turlicha oval, linzimon-chozilgan, tomchisimon-shlir shaklida bo'lib, ona jinslar (granit, granodiorit, leykokrat granit)dan tuzilgan massivlarning tepe qismida yotadi. Oddiy pegmatitlardan qvars va dala shpatlari ajratib olinib, keramika (chinni-sopol) samoatida ishlataladi.

Bu xil pegmatitlarga Janubiy Nurota tog'ining Oq tog' dalasi pegmatitlari misol bo'la oladi (9- rasm).

Bu pegmatitlar ko'pincha leykokrat graniti, aplit-pegmatit jinslarining daykalariga, ularning biotit graniti bilan kontakt huddulariga birikadi.



9- rasm. Mikroklin formatsiyasiga kiruvechi pegmatitning morfologiysi va ichki tuzilishi (P.T.Azimov bo'yicha)

1-biotith granodiorit; 2—"yozyvli" pegmatit; 3-blokli mikroklin hududi; 4-blokli qvars hududi; 5-tektonik buzilish; 6-geologik qirqim chiziqlari

Mineralogik tarkibi mikroklin, qvars; ba'zan biotit, albit, muskovitdan iborat. Aksessor minerallar granat, apatit, sirkon, moniton, sfen, ilmenorutil, berill, blometrandin, nitroortit va boshqalar ham uchrab turishligi massivning Nb, Ta, Tr kabi elementlarga maxsuslashganligini ko'rsatadi (P.Azimov).

Pegmatit tanalarining shakllari linza, tomir, noaniq ko'rinishda bo'lib, qalinligi bir necha santimetrdan 10-20 metrga, uzunligi esa 300 metrgacha boradi.

N.K.Jamolidinov va boshqa geologlar bo'yicha, bu keramik pegmatitlar granit va aplitlarga qoldiq qotishma (eritma)lar ta'sir etishi tufayli hosil bo'lgan.

## 2) Qayta kristallangan pegmatit konlari

Bu pegmatitlar pegmatit hosil qiluvchi birikmalar tarkibiga to'g'ri keladigan tarkibli issiq gaz - suv eritmalari ta'siri ostida dastlabki moddalarning qayta kristallanishidan hosil bo'ladi. Nati-jada dastlabki mayda donador (pegmatit) jinslar qayta kristallanib, turli donador, yirik va ulkan kristallangan struktura-larga ega bo'ladi. Mineralogik tarkibida esa kvars, dala shpati va dala shpatining buzilishidan hosil bo'ladigan muskovit mineralari bo'ladi. Teksturasi xilma-xil bo'lib, to'g'ri, teskari zonal, horizontal, assimetrik-zonal bo'lishi mumkin. Pegmatit tanalarining o'lebovlari o'zgaruvchan bo'lib, eng uzun tanalari bit necha yuz metr, hatto 5-6 kmga, qalinligi esa o'nlab metrga yetishi mumkin. Ular to'g'ri qatlamsimon, tomir, linsasimon yotqiziq, shtok, truba va taramlanib ketgan tanalar ko'rinishida uchraydi. Ularning ichki tuzilishi turli-tuman, ko'proq differensiyalangan zonal bo'ladi.

Qayta kristallangan pegmatitlarning ko'pchiligi arxey va pro-terozoy davrla hosil bo'lib, qadimgi platforma, shitlardagi kristalli slanes, gneys, amfibolit, ba'zan granit jinslari orasida uchraydi.

Qayta kristallangan pegmatitlardan muskovit, dala shpati va kompleks xomashyo (kvars-dala shpati) olinmoqda. Muskovitli pegmatitlar Sibirning Mamsk rayoni, Kareliya, Kola yarim orolida topilgan. Qolgan foydali qazilmalar esa yuqorida aytib o'tilgan joylardan tashqari U-kraina va Uralda olinmoqda.

Muskovitli pegmatitlar rivojlangan rayonlardan biri Sibirdagi Mamsk-Chuysk rayonidir. Bu rayonning pegmatit maydonlari kembriy metamorfik jinslar orasida joylashgan. Metamorfik qatlarn pastdan yuqoriga mamsk, kadlikansk, bodaybinsk kichik seriya-larga bo'linadi.

Demak, bu xil pegmatitlarga kvars va muskovit o'rın almashishi xarakterli bo'lib, albít va albítlizatsiya juda oz rivojlanadi. Pegmatitlarning asosiy minerallari - kvars, plagioklaz, mikroklin, muskovit, biotitdir. Ba'zan, albít, apatit, turmalin, magnetit, gemitit, granat, disten, xlorit, seritsit uchraydi. Pegmatit tanalari yotiq qatlamlarga monand linza va shtoksimon yotqiziqlar, kesuvchi tomir ko'rinishda bo'lib, o'lehamlari turlicha bo'ladi.

### 3) Metasomatik (o'rín almashish) pegmatit konlari

Bunday pegmatitlar qayta kristallanish va metamorfik o'rín almashish jarayonlari natijasida hosil bo'ladi. Yuqorida bayon qiliungan ikkinchi xil pegmatitlar hosil bo'lishida qayta kristallanish jarayoni asosiy rol o'ynasa, bu pegmatitlar murakkab o'rín almashish natjasidir. Ikkinchi tomondan qayta kristallangan pegmatitlarda kaliyli metasomatoz bosh bo'lsa, bu pegmatitlar paydo bo'lishida natriyli metasomatoz muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham albítlizatsiya, greyzenizatsiya kabi o'zgarish hamda zonal tuzilishi metasomatik o'rín almashish pegmatitlarning asosiy xususiyatlaridan biri. Hududlar soni 8-11 tagacha yetadi.

Bunday pegmatitlarning mineralogik tarkibi turlicha bo'ladi. Masalan, mikroklin-albitli pegmatitlarda 100ga yaqin mineral turlarini uchratish mumkin. Ular ichida kvars, mikroklin va albít bosh minerallar bo'lib, muskovit, qora turmalin, biotit, granattlar esa ikkinchi darajali hisoblanadi. Nodir metalli minerallar safiga esa tantalit-kolumbit, berill, spodumen, lepidolit, cassiterit va boshqalar kiradi.

Metasomatik o'rín almashish pegmatitlari qayta kristallangan pegmatitlarga nisbatan keng tarqalgan bo'lib, asosan proterozoydan keyingi davrda hosil bo'lgan. Bu pegmatitlardan hozirgi vaqtida tog' billuri, qimmatbahoh toshlar (topaz, berill, turmalin, granat), berilliyl va litiy, ba'zan qaçay, volfram, uran, toriy, nodir va siyrak yer elementlarining minerallari olinmoqda.

Litiyli yirik pegmatit konlari Kanada (Lag-Korn koni), AQSh (Etta, Blek-Xill), Janubiy Afrika (Zambiya, Rodeziya), Braziliya, Avstraliyada topilgan va G'arbiy O'zbekistonda ma'lum.


Metasomatik (o'rın almashish) pegmatitlarni ifodalovchı ma'danlı va ma'dan emas xomashyoli ayrılm pegmatit konlari bilan tanishamiz.

Zirabuloq tog'ining janubi-g'arbiy tomonida mikroklin-muskovit-nodir metalli pegmatitlar topilgan. Granitoit massivi konlar  $S_2$ -R<sub>1</sub> davrida hosil bo'lib, granodiorit, ikki slyudali va leykokrat granitlaridan iborat uch ketma-ket fazalar rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Tomirli derivatlardan plagiogranit, granit aplit, aplit keng tarqalgan. Pegmatit tanalarining ko'pchiligi ikki slyudali granit va aplit-granitlarga birikkan. Pegmatitlarning joylanishida protektonik yoriqlar muhim rol o'ynagan. Bu yoriqlar aplit va pegmatit bilan to'ldirilgan.

Tarkibida mikroklin, muskovit, kvars, albit, turmalin va nodir metalli minerallar aniqlangan. Keyingi minerallar, asosan, albitlashgan va greyzenlashgan maydonchalarda uchraydi. Pegmatitlarning ichki tuzilishi oddiy bo'lib, o'rın almashish murakkab minerallashgan, yirik-donador, blokli pegmatit strukturasiga ega. Tanalari yoyilgan, kengayuvchi va ayrılm yerlarda torayuvchi tomir hamda linza ko'rinishida, qalinligi kengaygan yerlarda 10-15 metr, uzunligi 1000-12000 metrga yetadi. Atrof jinslar bilan kontaktlari keskin.

#### 4) Desilitsir pegmatit konlari

Agar pegmatit hosil qiluvchi qotishma - eritma tarkibiga mos kelmaydigan jinslar orasida qota boshlasa, u holda yuqorida ko'rib o'tgan pegmatitlardan katta farqlanuvchi pegmatitlar hosil bo'ladi. Bunda pegmatit hosil qiluvchi qotishma - eritma o'zidagi ayrılm birikmalarini berib, o'zida yo'q yoki kam komponentlarni esa o'zlashtirib oladi. Bu jarayon qotishma - eritma bilan asosiy va o'ta asosiy, karbonat jinslar orasida intensiv o'tadi.



10- rasm. Desilitsir pegmatit tanalaridan birining tuzilishi  
(K.A.Vlasov bo'yicha)

1-plagioklazit; 2-flogopit hududi; 3-talk hududi; 4-talk-dolomitli jins;  
5-metamorfplashgan dunit

Desilitsirlashgan pegmatitlarning xarakterli xususiyatlaridan biri ularning zonal tuzilishidir (10- rasm). Pegmatit tanalarining markazi linza, hudud ko'rinishdagi plagioklazitdan tuziladi.

Oz miqdorda esa apatit, flyuorit, turmalin, zumrad, berill mineralлари uchraydi. Ayrim tomirlarda plagioklazit bilan birga kichik qalinlikdagи kvars linzalari bo'ladi.

Plagioklazit hududini ikkala tomonidan flogopit (biotit) hududi o'rab turadi. Bu zonaning asosini flogopit tashkil qilib, zumrad, berill, apatit, flyuorit, turmalin, aktinolit kabi ikkinchi darajali mineralлари ham uchraydi.

Xloritdan iborat hudud ham ko'pehilik pegmatit tanalarida uchrab, uning tarkibida sinokit, xrizoberilli, aleksandrit, flyuoritlar uchraydi. Oxirgi hudud talkdan iborat bo'lib, juda oz miqdorda xlorit, flogopit, aktinolit, dolomit, magnetit mineralлари uchraydi.

Shuni ta'kidlash zarurki, bu umumiy ajratilgan hududlarning hammasi bir yerda rivojlangan bo'lishi qiyin. Ba'zan biror hudud tushib qolishi yoki aralashgan holda kelishi mumkin.

## **O'zlashtirish uchun savollar**

1. Pegmatit konlari.
2. Granit pegmatitlari.
3. V.I. Smirnov bo'yieha pegmatitlarning genetik tiplari.  
Atamalar: singenetik, epigenetik, gipoteza.

## **2.3 KARBONATIT KONLAR**

Orta asosiy-ishqoriy intruzivlar bilan fazoviy va genetik bog'langan kalsit, dolomit kabi karbonatlarning endogen to'plami *karbonatitlar* deb ataladi (V.I.Smirnov, 1965). Ularda niobiy, tantal, pikroniy kabi nodir metallar, siyrak yer elementlari temir, titan, fosfor, flogopit, vermiculitning yirik zaxiralari uchraydi. Keyingi yillarda esa karbonatitli konlarda uran, toriy, mis, molibden, flyuorit, asbestning yirik to'plamlari aniqlangan. Ba'zan karbonatitlar ohak olish uchun ham ishlataladi.

Karbonatitlarning hosil bo'lish harorati A.A.Kuxarenko bo'yieha 600-800 darajadan 150-100 darajagacha boradi. Karbonatit tanalari yer yuzasiga yaqin masofada yotadi. Lekin ayrim massivlarda (Gullinsk, Alno) esa ma'danlar 1500-2000 metr chiqurlikda ham davom etadi. Shunga ko'ra V.I.Smirnov ta'kidlaganidek, karbonatit hosil bo'lish jarayoni o'zgarib turuvchi turli bosim ostida o'tadi.

Karbonatitlarning asosini (80-99%) karbonat minerallari tashkil qiladi. Ularning ichida eng ko'p tarqalgani kalsit bo'lib, ayrim yerlarda dolomit, ankerit va siderit uchraydi. Qolgan mineralllar aksessor bo'lib, jami 70 dan ortib ketadi. Ular ichida muhimlari flogopit, apatit niobiy va tantalli piroxlor, dizanalit, gatchetollit, sirkoniqli baddelenit, nioboirkoit, seriy va boshqa siyrak yer elementli basnezit, sinxizit va boshqalardir.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, karbonatitlar o'ta asosiy - ishqoriy tarkibli murakkab intruziv massivlarda uchraydi. Hozirgi vaqtida shunday massivlar o'rganilgan bo'lib, ularning ko'pehligi Janubiy Afrikaning Buyuk Afrika yoriqlari hududida, qolgantari esa Rossiyada, O'zbekistonda (Shavaz-soy), Shvetsiya, GFR.

Kanada, AQSh, Braziliyada joylashgan. O'ta asosiy - ishqoriy jinslarning massivlari murakkab tuzilgan bo'lib, bir necha bosqichda paydo bo'ladi (L.Egorov, T.Goldburt, A.I.Ginzburg, E.M.Eynshteyn) chiqayotgan magmaning tarkibi o'ta asosiy (peridotit-dunit)dan ishqoriy - o'ta asosiy (piroksenit, peridotit, melteygit)ga, o'ta asosiy - ishqoriy (iyolit, meltegít) dan ishqoriy (ishqoriy va nefelinli sienit) gacha o'zgaradi. Birinchi bosqichda olivinit, dunit, peridotit kabi o'ta asosiy jinslardan tuzilgan yoriq intruzivlari hosil bo'ladi. Ularda titanomagnetit, perovskit, platinoidlar aksessor minerallar miqdorida uchraydi. Ikkinchi bosqichda piroksenit, biotitli peridotit, melteygit jinslari hosil bo'lib, titano-magnetit, apatit kabi aksessor minerallari bilan uchraydi. Uchinchi bosqichda iyolit, melteygit kabi o'ta asosiy - ishqoriy jinslar va ular ichida perovskit-apatit, sfen kabilar paydo bo'ladi. To'rtinchchi bosqichda neselin sienitlari, grano-sienitlar hosil bo'ladi.

Hamma bosqichda jinslarning kontakt hududlarida metamorfik jarayonlar sodir bo'lib, natijada serpentinizatsiya, biofizatsiya, ilogopitzasiyadan tortib, setolitizatsiya kabi o'nlab o'zgargan jinslar va ulardan iborat zonalar vujudga keladi.

Karbonatit komidagi intruziv jinslarning oldinma keyin hosil turishi ko'pehilik geologlar tomonidan ma'qullansa ham, magnatik jarayonlarning oxirgi etaplarida karbonatit tanalarining hosil bo'lishi masalasida esa har xil sikrlar mavjud. Masalan, L.Egorov, T.Goldburt va boshqalar Gulinsk intruziv massivlating shakllanishini yoritib, karbonatitlarni intruzivning oxirgi 5-etapi bilan bog'laydilar. Bunda avval yirik donador kalsitli va dolomitli karbonatitlar hosil bo'lishi ko'rsatilgan.

Sibirdagi karbonatit konlarini o'rgangan E.M.Eynshteyn, L.K.Pojaritskaya, Y.A.Bagdasarov va boshqalar esa karbonatitlarni - o'ta asosiy ishqoriy massivlar shakllanib bo'lgandan so'ng sodir bo'ladiigan metasomatik jarayonlarning mahsuli deb hisoblaydilar. Ularning aytishlaricha karbonatitlar 4 bosqichda hosil bo'ladi:

1. Erta kalsitli karbonatitlar bosqichi bo'lib, ular asosan, kalsit (30-70%), avgitdiopsit yoki forsterit (20-50%), biotit yoki

temirli flogopit (5-20%), apatit (3-20%) va magnetit (1-10%) dan tuzilgan. Perovskit guruhiga kiruvchi dizanalit va kalsitit bosqichidagi asosiy aksessor minerallardir.

2. Kalsitli karbonatitlar bosqichidagi minerallar deyarli yuqoridagi bosqichdagidek bo'lib, to'q rangli mineralarning kamayishi (10-30 %), avgitdiopsit va biotit o'rniغا diopsit va flogopitning paydo bo'lishi va piroxlor, gatechettolit, apatit kabi sanoat ahamiyatiga ega ma'danli mineralarning bo'lishi bilan xarakterlanadi.


3. Keehki kalsit va dolomitli karbonatitlar o'z tarkiblarining murakkablanganligi, karbonat minerallarining soni oshiqligi va soydali qazilmalarni turli - tuman bo'lishligi bilan ajralib turadi. Avvalgi bosqichidagi minerallar bo'yicha o'rni almashish jarayontari ham kuchayadi. Bu bosqichidagi karbonatitlar amfibol - kalsit, amfibol - dolomit, flogopit - dolomit va dolomitli karbonatitlardir. Nodir metalli mineralning asosiyi piroxlor bo'lib, ba'zan eshinit, lindokit, fersmanit, sirkon ham uchraydi.

4. Keehki dolomit va ankeritli karbonatitlarda karbonat mineralarning umumiyoq miqdori juda ko'p (85-95%) bo'lib, asosan, dolomit, ankerit, ba'zan sideritdan tuzilgan bo'ladi. Bu bosqichda tipik gidrotermal minerallardan flyuorit, pirit, galenit, molibdenit, sfalerit, barit paydo bo'ladi. Nodir metalli minerallardan kolumbit, piroxlor siyrak yer elementli minerallardan basnezit, berbankit rivojlanadi.

Bu bosqichlardan so'ng ham endogen faoliyat davom etadi. Karbonatitdan keyingi bu bosqichda kalsit epidot albitl, kalsit epidotli tomirlar hosil bo'lib, ular bilan birga flyuorit, gematit, krokidolit uchraydi. Karbonatit hosil qiluvchi o'ta asosiy-ishqorli massivlar shakllanish sharoitlariga ko'ra ikkiga bo'linadi.


1. «Ochiq» massivlarda o'ta asosiy-ishqorli magmaning mahsulotlari yer yuziga (otillib) chiqqan bo'ladi. Tog' jinslari vulqon plutonik xarakterga ega. Bu rasmana vulqon bo'lib, bo'g'zida effuziv, intruziv jinslar va karbonatitlar joylashadi. Bu xil massivlarda karbonatit tanatlari vulqon bo'g'zining yuqori qismida joylashib, pastga tushgan sari, o'lehamlari kichrayib boradi. Ikkinech'i tomondan esa chuqurlikning oshishi bilan ishqoriy

jinslar kamaya borib, o'ta asosiy (giperbazit) jinslarning miqdori esa ortib boradi. (11- rasm).



11-rasm. «Ochiq»(a) va «yopiq»(b) karbonatit konqlarining vertikal tuzilish sxemasi (A.I.Ginzburg va E.M.Eynshteyn bo'yicha)  
1-karbonatitlar; 2-vulqon bo'g'zidagi jins; 3-o'ta asosiy-ishqoriy effuziv va uning turrlari; 4-ishqoriy va nefelinli sienit; 5-iyolit-milteygit; 6-giperbazit

«Yopiq» yoki «ko'rinmas» massivlar yer yuzasiga yetib chiqmasdan shakllangan bo'lib, karbonatit tanalari yer yuzidan pasiga tushgan sari kattalashib boradi. (12- rasm).



12- rasm. O'ta asosiy-ishqoriy massivlarda to'g'ri (a) va teskaror horizontal zonallikning ko'rinishi (A.I.Ginzburg va E.M.Fynshteyn bo'yicha)

1-karbonatitlar; 2-forsterit-magnetit-apautit jins; 3-silikatli metasomatitlar;  
4-sienit; 5-iyolit-melteygit; 6-giperbazit

Karbonatit konlarining hosil bo'lishi masalasi murakkib bo'lib, bu haqida bir necha fikr mayjud.

1. Karbonatitlar magmatik jinslar paydo bo'lishi jarayonida, pastdan olib chiqilgan ohak-toshlarning qayta kristallanishidan hosil bo'ladi (R.Deli, S.Shend, E.L.Butakov). Lekin ko'pchilik karbonatitlar rivojlangan rayonlarda ohaktosh kabi cho'kindi jinslarning uchramasligi, shtok, uya, tomir, dayka ko'rinishdagi karbonatit tanalarning silikatli (magmatik va boshqa) jinslarga birikishi, karbonatitlardagi o'ziga xos foydali elementlar uchrashligi kabi faktlar bu fikrning rivojlanishiga jiddiy to'siq beradi.

2. Karbonatitlarni magmatik yo'l bilan hosil bo'lishligi L.S.Egorov, A.Jabin, U.Raxmedov va chet el olimlari V.Bregger, X.Ekkerman kabi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, karbonatitlar karbonatli magmatik qotishmaning kristallanishidan hosil bo'ladi, deb hisoblanadi. Buni Afrika o'lkasida karbonatitli lavalarning uchrashi, karbonatit tanalarining yirik o'lehamlari, tekis va aniq

tutash kontaktlari, turli jimslarni kesuvchi karbonatit dayka va tomonlarining o'zgarmasligi kabi faktlar tasdiqlaydi.

3. Karbonatitlarni gidrotermal-metasomatik yo'l bilan paydo bo'lishli rus geologlari A.A.Kuxarenko, L.S.Borodin, A.I.Ginzburg, L.K.Pajaritskaya, chet el geologlari N.Bouen, E.Setter va boshqaar tomonidan ilgari surilmoqda. Bunday karbonatitlarda kuzatiladigan metasomatik zonallik, ma'danli jarayonning ko'p stadiyalarini bo'lishi kabi qator faktlarga asoslanadi. Bularidan tashqari ayrim tadqiqotchilarining fikriga ko'ra (V.I.Smirnov) chiqurdagi karbonatitlar magmatik jarayonning gaz-suyuqlik fazasi bilan bog'liq holda hosil bo'lgan hisoblanadi. Shuning uchun chiqur kesilgan intruziv massivlari va konlarni o'rgangan geologlar karbonatit tamalarida magmatik jarayonning xususiyatlarni kuzatsalar, kam kesilgan (yuvilib ketgan) konlarda esa gidrotermal jarayonning belgilari kuzatilgan.

L.S.Borodin, A.I.Ginzburg, A.A.Frolov va boshqa geologlar karbonatit konlaridagi soydali qazilmalarning tarkibiga ko'ra fosfor-temirli (apatit-magnetitli), tantal-niobiyl (piroxlor-gatchettitli), polikomponentli (niobiyl va siyrak yer elementlari), flogopitli kabi karbonatitli karbonatit konlarni ajratadilar.

Fosfor-temirli karbonatitli karbonatit konlari Palabora (Janubiy Afrika Respublikasi), Bukusu (Uganda), Alno (Shvetsiya), va Kovdor (Rossiya), massivlarida topilgan.

Tantal-niobiyl karbonatit konlari eng ko'p tarqalgan. Bareyro de Araksa, Tapira (Braziliya), Paudrexorn (AQSh), Laute (Zoir), Fen (Norvegiya) konlari yirik konlardir. Rossiyada ham shunday konlar bor.

Polikomponentli karbonatitlar AQSh (Mauntin-Pass koni), Malavi (Kangankunde), Sharqiy Sibirda uchratiladi.


Flogopith konlarga Odixincha (Rossiya), Gul, (O'zbekiston), Palabora (Janubiy Afrika Respublikisi) konlari misol bo'la oladi.

Karbonatit konlariga misol tariqasida fosfor-temirli Kovdor konining ayrim xususiyatlari bilan tanishamiz (13-rasm).

A.A.Froloving ma'lumotlariga ko'ra, Kovdor massivining apatit-magnetitli ma'danlar massivning g'arbiy qismidagi iyolit va

fenitlar ichida topilgan. Ma'dan tanasi maydonning 11 km<sup>2</sup> keladigan oval shaklidagi shtok ko'rinishiga ega. Ma'dan tarkibida forsterit-magnetit, apatit-forsterit-magnetit va kalsit-apatit-forsterit-magnetitli xillari ajratiladi. Ular xol-xol, dog'simon, yo'l-yo'l, massiv teksturaga ajratilib, tarkibida 30 % temir, 3 - 6% P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>, 0,4 - 0,8% TiO<sub>2</sub> uchraydi. O'rta Osiyoda sof karbonatit koni ma'lum emas.

Ammo 70- yillarda Chotqol tog'ining janubi-g'arbiy qismida topilgan Shavaz-soy litiy konini ba'zi bir geologlar aynan shu guruh konlari qatoriga kiritadi. T.M.Matsokinaning fikricha, bu kon vulqonli-cho'kindi-gidrotermal koni bo'lib, litiyli ma'dan tanasi yuqori paleozoy yoshidagi nordon vulqonli tog' jinslari orasida cho'kindi qatlam shaklida joylashgan. Genetik jihatdan «Kalder» simon vulqonli strukturaga aloqador. Litiy, asosan, gelsimon montmorillonit va ikkilamchi muskovit tarkibida uchraydi. Sof magmatik karbonatit g'oyasi tarafador U.Raxmedovning ma'lumotlariga qaraganda, bu kon yuqori paleozoy yoshidagi ishqoriy tog' jinslari sienit-diorit, granosienit va traxit formatsiyalari bilan bog'liq.




13- rasm. Apatit-magnetitli Kovdor o'ta asosiy-ishqoriy massivning geologik tuzilishi sxemasi (A.A.Frolov bo'yicha)

1-turyantlar; 2-jyolit; 3-melteygitlar; olivi-ntlar;

4-apatit-magnetit ma'danlari; 5-karbonatitlar

Kondagi ma'danlar tanasi shtok shaklida bo'lib, sienit-diorit, granosienit massivlari atrofida joylashgan. Mineralogik tarkibi, ayniqsa, kalsit donalari tarkibidagi uglerod 18-20 izotopdan tashkil topganligi uchburchak, romb shakllari va litiyning magmatik minerallaridan polifitionitning mavjudligi konni sof karbonatit konlari toifasidan ekanligidan dalolat beradi (14- rasm).



14- rasm. Shavaz-soy litiy konining soddalashtirilgan xaritasi (A) va kesmlari; a- T.M.Matsokina bo'yicha; b-U.Rahmedov bo'yicha  
 1-yuqori paleozoy vulqonli tog' jinskari; 2-sienitdiorit granosienit;  
 3-tektonik yoriqlar; 4-kon va befgilari (1-Shavaz-soy;  
 2-Shimoliy Shavaz-soy; 3- Qamishli); 5-Kalder chegarasi

### O'zlashtirish uchun savollar

1. Qanday konlarga karbonatit konlari deyiladi?
  2. Karbonatitlarning hosil bo'lish yo'llari?
  3. Shavaz-soy litiy koni qanday hosil bo'lган?
- Atamaclar: kalder, o'leham, zonallik.

## 2.4 SKARN KONLARINING HOSIL BO'LISHI

Skarn jinslarining va ular bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina metallik foydali qazilma konlarining paydo bo'lislari tarkibi har xil bo'lgan pnevmatolit suyuqliklarni - karbonat (obaktosh) va silikatli (granit) jinslari bilan bo'lgan munosabatlari (reaksiyalari) natijasidir. Skarnlar o'zlarining paydo bo'lislari davriga va qanday ohaktosh jinslari bilan bog'liqligiga qarab ikki guruhga ajratiladi:

1. Magneziyal skarn konlari;
2. Ohakli skarn konlari.

Bu guruhlar hosil bo'lislida metasomatoz jarayoni katta rol o'yynaydi.

Bu postmagmatik jarayon bilan bog'liq bo'lib, magmatik jinslarining, hali qotishga ulgurmagan va «o'choq» deb ataluvchi qismlaridan ko'tariluvchi baland harorat va bosimga ega bo'lgan postmagmatik suyuqliklar turli kimyoviy elementlar o'ta kimyoviy faoliyat bilan atrofidagi tog' jinslariga ta'sir ko'rsatish yo'lli bilan hosil bo'ladi.

*Metasomatoz* - tog' jinslarida, postmagmatik suyuqliklarning kimyoviy ta'sirida ro'y beruvchi chuhur o'zgarish. Bu o'zgarishlar tog' jinslarining minerallarini o'zgartiribgina qolmay, balki ularning kimyoviy tarkibi va struktura - tekstura tuzilishlarini ham keskin o'zgartirib yuborishi mumkin.

Bu ikki xil yo'l bilan sodir bo'ladi:

1. Tog' jinsini tashkil etuvechi mineral modda-lariga suyuqliklarning ta'sir etishi tufayli erish va o'sha suyuqliklardan hosil bo'lgan mineral uyushmalari bilan tog' jinsi o'z tarkibini o'zgartirayotganiga qaramay, doimo qattiq holatini saqlaydi;

2. Hodisalar natijasida jinslarning tarkibi o'zgarsa ham (bir jins o'mniga ikkinechisi paydo bo'ladi) ularning hajmi o'zgarmaydi. Agar postmagmatik suyuqliklar ikki xil (biri-biriga kimyoviy tarafdan yaqin bo'lmasan) jinslar orasida harakat etib, ular orasida keskin metasomatik o'zgarishlarni vujudga keltirsa, unday metasomatozni *kontakt (chegara)* metasomatozi deb ataymiz. Bunday hodisa ko'pincha postmagmatik suyuqliklari ajratayotgan granit massivlarini ohaktoshlar bilan bo'lgan chegara hududida

kuzatiladi va skarnlarning paydo bo'lishiga olib keladi. *Skarn* paydo bo'lishi uchun, birinchidan, baland haroratga va bosimga ega bo'lgan, avvalo pnevmatolit (flyuid) holatidan asta-sekin gidrotermal eritmalariga o'tuvchi, turli jinsiy komponentlar ( $\text{SiO}_2$ ,  $\text{TiO}_2$ ,  $\text{Al}_2\text{O}_3$ ,  $\text{P}_2\text{O}_5$ ,  $\text{CaO}$ ,  $\text{FeO}$ ,  $\text{MgO}$ ,  $\text{O}_2$ ,  $\text{Na}_2\text{O}$ ,  $\text{K}_2\text{O}$ ,  $\text{S}$ ,  $\text{CO}_2$ ,  $\text{H}_2\text{O}$ )ga va metallar ( $\text{W}$ ,  $\text{Mo}$ ,  $\text{Fe}$ ,  $\text{Mn}$ ,  $\text{Cu}$ ,  $\text{Pb}$ ,  $\text{Zn}$ ,  $\text{Au}$ ,  $\text{B}$ ) elementlarga boy bo'lgan postmagmatik eritmalarini mavjud bo'lishi kerak bo'lsa, ikkinchidan, shu eritmalarini o'z bag'ridan ajralib chiqqiyotgan magmatik jins (granit, granodiorit) massivlarini ohaktosh (ohaktosh, dolomit, mergel va boshqa) qatlamlari bilan kontakti bo'lishi zarur. So'ogra shu ikki xil bir-birlariga kimyoviy jihatdan mos kelmaydigan (granit va ohaktosh) jinslar chegarasi-da harakat etuvchi (yuqorida aytilgan) murakkab tarkibli va kimyoviy faoliyikka ega bo'lgan postmagmatik suyuqliklar turli keskin metasomatik o'zgarishlar hosil bo'lishiga olib keladiki, natijada ohaktosh skarnlari hosil bo'ladi.

## **I. Magnezial skarnlar**

Magnezial skarnlarning paydo bo'lishligi nordon va deyarli nordon magmaning harakati, ularning magnezial yoki dolomitli ohaktosh jinslari qatlamlarini yorib o'tish jarayonida undagi ba'zi bir eritmalarining dolomit ohaktoshlari bilan kimyoviy reaksiyaga kirishi natijasida hosil boladi. Bu bir necha davrdan iborat:

*Magmatik davr* yoki *magmatik etap* bo'lib, bu magnezial skarnlar deyarli ahamiyatga ega emas. Buning sababi shuki, bu davrning skarnlari magmadan o'tib ketuvchi toza (steril) suyuqliklar bilan bog'liq. Ayrin vaqtida forsterit-kalsifitit hududida 4-10% miqdorda magnetit uehrashligi mumkin bo'lsa ham, bu miqdorda uehraydigan temir minerallari sanoat ahamiyatiga ega bo'la olmaydi.

Magnezial skarnlarni postmagmatik davrdagi foydalii qazilmalari ohaktosh skarnlaridan deyarli farq qilmaydilar.

## **2. Ohakli skarn konlari**

Skarn hosil bo'lishida eng faol ishtirok etuvchi jinslar ohaktosh va mergellar hisoblanadi. Geokimyoviy reaksiyalar jarayonida ohaktoshlardan skarnlar uchun eng kerak bo'lgan CaO komponenti olinsa, ular bilan chegaradosh bo'lgan magmatik (granit) jinslardan asosan  $\text{SiO}_2$  va  $\text{Al}_2\text{O}_3$  komponentlari olinadi. Ohaktosh jinslardan olinuvchi bu 3 komponent ( $\text{SiO}_2$ ,  $\text{TiO}_2$ ,  $\text{CaO}$ ) jinslari kimyoviy parchalanishi vaqtida, boshqa komponentlar ( $\text{CO}_2$ ,  $\text{K}_2\text{O}$ ,  $\text{Na}_2\text{O}$ )ga o'xshab, postmagmatik suyuqliklarga qo'shilib erib ketmasdan, shu joyning or'zida skarn hosil qiluvchi reaksiyalarda qatnashadi. Ularni D.S.Korjinskiy inert komponentlar deb ataydi. Aksincha, postmagmatik suyuqliklar bilan bog'liq bo'lgan va atrotidagi jinslardan eritilib olingen boshqa komponentlar o'zaro aralashib o'z joylaridan siljib ketadi. Bu komponentlar «siljuvchan» komponentlar deb ataladi. Ularning tarkibi  $\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{CO}_2$ , S,  $\text{K}_2\text{O}$ ,  $\text{Na}_2\text{O}$ ,  $\text{O}_2$ ,  $\text{MgO}$ ,  $\text{FeO}$  va boshqalardan iborat bo'lib, skarn va skarnlardan so'ng ma'dankanish jarayonida ham faol ishtirok etadi. Ayrim sharoitlarda inert komponentlar «siljuvchi» holatga va «siljuvchi» komponentlar esa inert holatiga ham o'tishlari mumkin. Umuman, bu elementlar inertligi bilan emas, balki turli darajadagi siljish xususiyatlari bilan ajralib turadilar. Tabiatda atrof jinslardan olinuvchi inert va suyuqliklar bilan keluvchi siljq komponentlarning bir-birlari bilan kimyoviy reaksiyaga kirishishlari *natijasida skarn jinslari* paydo bo'ladi. Ularning mineral tarkibi reaksiyaga kiruvechi elementlarning ko'pozligiga (hisobiga) qarab har xil bo'ladi va quyidagicha nomlanadi: piroksenli, granitli va vollastanit skarnlar.

Shu yo'l bilan tashkil topgan skarn jinslari *bimetasomatik skarnlar* deb ataladi.

Bimetasomatik skarnlar hosil bo'lish sharoitiga ko'tra ikki turga ajratiladi: ohaktoshlar hisobiga paydo bo'lgan skarnlarni ekzo (tashqi), granitoidlari hisobiga paydo bo'lganlari *endo* (ichki) skarnlar deb ataladi. Bu ikki turdag'i skarnlar orasida infiltratsion-metasomatik skarnlar ham hosil bo'ladi. Masalan, Choruh - Dayron infiltratsion skarnlari granit massivlarining bag'tida joylashgan.

Skarnlar va ular ichidagi ma'danlarni har taraflama o'rganish-ga U.M.Abdullayev, V.A.Jarikov, D.S.Korjinskiy, L.N.Ovchinnikov, L.I.Shabinin va boshqalar munosib hissa qo'shdilar. Skarn jinslari bilan ko'pineha turli metallik foydali qazilmalar bog'liq bo'ladi. Shu o'rinda biz volfram, molibden, mis, qo'rg'oshin, ruh, oltin, temir, qalay va ba'zi nodir metallarni aytib o'tishimiz kisoya. Lekin skarn konfarida aytib o'tilgan elementlardan ayrimlarigina sanoatda yetarli bo'lgan to'plamlar tashkil etishi mumkin. Qolganlari esa shu konlarda kam miqdorda uchrab, deyarli sanoat ahamiyatiga ega bo'imaydilar. Shuning uchun asosiy foydali qazilma tashkil etayotgan metallning turiga qarab skarn konlarining ham turlari o'zgara boradi. Shu asosda volframli skarnlar, molibdenli skarnlar, volfram - molibdenli skarnlar ajratiladi.

Konlarda skarnlarning mineralogik tarkibi ko'pineha bir-biridan deyarli farq etmaganiga qaramay (granat, piroksen, vollastonit va boshqalar) ularning foydali qazilma beruvehi ma'dani regiondan-regionga, kondan-konga o'zgara borishi mumkin. Ma'danli minerallardan skarnlarga xos bo'lganlari quyidagilardan iborat: volfram uchun sheelit ( $\text{CaWO}_4$ ), molibden uchun molibdenit ( $\text{MoS}$ ), mis uchun xalkopirit ( $\text{CuFeS}_2$ ), temir uchun magnetit va gematit ( $\text{Fe}_3\text{O}_4$ ,  $\text{Fe}_2\text{O}_3$ ), polimetallar (qo'rg'oshin va ruh), uchun galenit ( $\text{PbS}$ ) va sfalerit ( $\text{ZnS}$ ) va boshqalar. Magnezial skarnlarida yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari, boshqa foydali qazilmalar: bor minerallari: lyudvigit ( $(\text{Mg},\text{Fe})_2\text{Fe}(\text{BO}_3)_2$ ), aksinit ( $\text{Ca}_2(\text{Mg},\text{Fe})\text{Al}_2\text{BSi}_4\text{O}_{15}(\text{OH})$ ), donburit ( $\text{CaB}_2(\text{SiO}_4)_2$ ), datolit ( $\text{CaB}(\text{SiO}_4)(\text{OH})$ ), osharit ( $\text{MgHBO}_3$ ) va boshqalar uchraydi.

Bulardan tashqari skarnlar bilan oltin ( $\text{Au}$ ), vismut ( $\text{Vi}$ ), platina ( $\text{Pt}$ ) ma'danlari bog'liq bo'lishlari ham mumkin. Shu asosda, skarn konlarning ma'da-niga qarab turli ma'dan formatsiyalari ajratiladi. Masalan, volframli formatsiya (Ingichka, Goytosh konlari), molibdenli skarn formatsiyasi (Tim koni), volfram-molibdenli skarn formatsiya (Langar koni), G'arbiy O'zbekiston va boshqa yerlarda: temirli skarn formatsiyasi (Magnitli tog' koni, Suren-Ota koni), mis skarn formatsiyasi (i ureta tog'i koni) Uralda, polimetalli skarn formatsiyasi

(Olxovskiy koni) Garbiy Sibirda, qalay skarn formatsiyasi (Pitkyaranta koni) Koreyada, berilliq skarn formatsiyasi (Qora temir koni) AQShda, borli skarn formatsiyasi - Rossiya, Xitoy, AQSh, Shvetsiya va boshqa yerlarda tarqalgan.

Skarnlar bilan ma'danlarning munosabatiga o'tganimizda shuni aytish kerakki, skarn jinslari bilan ma'danlar bir postmagmatik foydali qazilmalar suyuqliklariga qaramay, ular bir davrda emas, balki o'sha suyuqliklardan birin - ketin (turli stadiyalar davomida) paydo bo'ladilar. Akademik H.M.Abdullayevning tadqiqotlariga qaraganda, skarn va ular bilan bog'liq bo'lgan ma'danlarning paydo bo'lish jarayonlari 4 stadiyada bo'lib o'tadi.

1. Skarnlarning paydo bo'lish stadiyasi. Bu stadiya davomida skarn hosil qiluvchi minerallar hosil bo'ladи.


2. Kvars ma'dan stadiyasi. Bu stadiya davomida skarn jinslari o'zgaradi, kam miqdorda ma'danlar hosil bo'ladи. Bu jarayon metasomatik usulda yuz beradi. Shu davrda skarnlarda epidotlanish, skapolitlanish, kvarslanish va shunga o'xshash baland haroratlil o'zgarishlar sodir bo'ladи. Shu o'zgarishlar natijasida, suyuqliklardagi yuqori haroratlil turli elementlarning oksidlaridan iborat bo'lgan ma'dan minerallari skarnlarga joylashadi. Misalan, sheelit, magnetit, gematit, cassiterit, lyudvigit va boshqalar.

3. Kvars va sulfidlar stadiyasi. Bu stadiya davomida ma'danlar tashkil etuvchi suyuqliklarning bosimi va issiqliklari pasayib, yo'qolib, ular o'rta harorat hotatlariiga yaqinlashadi va ulardan turli sulfidlar (xalkopirit, arsenopirit, molibdenit, galenit, sfalerit, pirit, pirrotin, vismutin va boshqalar) ajratib, skarnlarga o'mashadi. Shu davrdagi skarnlarning o'zgarishlaridan xloritlanish, serpentinlanish, kvarslanish va boshqa metasomatik jarayonlar sodir bo'ladи.

4. Kvars va karbonatlar stadiyasi. Bu stadiyada suyuqliklar eng past harorat va bosimga ega bo'lib, kimyoiy faoliyklarini yo'qotadi, oqibatda kvars va kalsit tomirlarini tashkil etishlari mumkin. Oz miqdorda ma'dan minerallari (pirit, ankerit, osharit kabi) ham hosil bo'ladи. Shuning uchun bu stadiya - ma'dansiz stadiya deb ham ataladi.

Magnezial va ohak skarn konlariga xos bo'lgan konlar bilan tanishamiz.

Magnitli tog' koni-magnezial skarn konlarining misoli bo'lib, Janubiy Uralning sharqiy qismida joylashgan. Konning tuzilishida bu necha xil quyi ohaktosh, dolomit, slanes effuzivlaridan tashqari, murakkab tuzilishga ega bo'lgan, turli davrlarda paydo bo'lgan magmatik jinslar va ularning tarmoqlari ishtirot etadi (17-rasm). Bu konda ma'danli skarnlar shu magmatik jinslarning yuqorida avtigelan cho'kindi va effuziv jinslari bilan bo'lgan kontaktlarida hosil bo'ladi. Bu skarnlar (magnezial va skarnlar), asosan, ikki tabaqcha shakldagi tanalardan iborat. Ular «G'arbiy» va «Sharqiy» tanalar deb atalib, turli skarn minerallaridan tuzilgan: granat, salit, diopsid, gedenbergit, epidot, amfibol va boshqalar.




15-rasm. Magnitli tog' konining kesimi (G.Braun va boshqalar bo'yicha)

1-oksidlangan ma'dan; 2- birlamchi ma'dan; 3-dellyuvial yotqiziq;  
4- porfirit; 5-ohaktosh va marmar; 6-skarn; 7-diorit; 8-granit;  
9-aplit; 10-yig'indi jins; 11-tektonik uzilma

Ingichka koni G'arbiy O'zbekistonning Zirabuloq tog'larini janubi-sharqiy qismida joylashgan bo'lib, sheelitli skarnlar formatsiyasiga kiradi.

Bu konning geologik tuzilishida quyi silur va devon davrida yuzaga kelgan slanes, rogovik, ohaktosh va ularni yorib chiqqan granodiorit, granit jinslari ishtirok etadi.



16- rasm. Ingichka skarn koni kesuvchi ma'dan tanalarining tuzilishi  
(N.K.Jamoliddinov bo'yicha)

1-yig'indi jins; 2-granit; 3-marmar; 4-skarn ma'dan tanasi

Ma'danli minerallar magnetit, gematit va turli temir va mis sulfidlaridan tashkil topgan. Magnetit va gemitit sanoat ma'danlarini tashkil etuvchi minerallar bo'lib, sulfidlar deyarli ahamiyatiga ega bo'lmay, yo'ldosh minerallar sifatida uchraydi.

Bulardan tashqari, cho'kindi va magmatik jinslarini kesish, dayka shakllariga leykokrat granitlari ham uchraydi. Ma'danli skarnlar granodiorit va leykokrat granitlarining ohaktoshlar bilan bo'lgan kontaktidan hosil bo'lgan. Ular, asosan, tabaqa, linza, tarmoq va tutash shakllarida bo'lib, gedenbergit, salit, granat, amfibol, vezuvian, vollastonit va boshqa skarn minerallaridan tashkil topgan. So'nggi stadiyalardagi gidrotermal o'zgarishlari natijasida ohak skarnlar kvarslashib ma'danli minerallardan sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan sheelitdan tashqari, molibdenit, pirit, xalkopirit, pirrotin va boshqa tarzda hosil bo'lgan.

## **O'zlashtirish uchun savollar**

1. Skarn konlari.
  2. Magnezial skarn konlari.
  3. Ohakli skarn konlar.
- Atamalar: metasomatoz, tez siljuychi va inert komponentlar.


### **2.5. ALBITITLI VA GREYZEN KONLARI**

Bu ikki xil konlarning bir guruhiga kirishining asosiy sabablari ular bitta geologik jarayon oqibatida ketma-ket hosil bo'lishligidadir. Aksariyat bu konlar nordon va o'ta nordon tog'jinslarining yuqori qismlarida natriy va kaliy elementlarning isbtirokida sodir bo'ladigan metasomatik jarayonlar oqibatida hosil bo'ladi. Ilk bor bu muammoni G.Sherberba Markaziy Qozog'iston hududida isbotlagan. Uning ma'lumotlariga ko'ra, nordon tog'jinslarining yuqori va kontakt qismlarida albititning hosil bo'lishi natriy, greyzennen esa kaliyning metasomatozining oqibati. Albitit koniarida uehraydigan soydali qazilma va minerallar qatoriga sirkoniy, niobiy, tantal, toriy, greyzenlarda esa berilliyl, litiy, qalay, volfram, hyuorit, topaz va boshqalar kiradi. Bularning hosil bo'lishida nafaqat ishqoriy metasomatoz jarayongina, balki ma'lum uva jada bu elementlarning miqdori ona jinslar tarkibida yuqori bo'leganligi ham sabab. Bu guruhga kiruvchi konlar Qozog'istonda, Baykal ko'li atrofida. Uzoq Sharqda, Sharqiy Sibirda, Ozbekistonda va uzoq xorijdan - Kichik Osiyo, Indoneziya, Xitoy, Markaziy va Garbiy Afrika davlatlarida ma'lum.

Albititli konlar geologik nuqtayi nazardan avvalambor burnalarning oxirgi va keyingi rivojlanish stadiyalarida, qadimiy shit va platformalarni faollashgan qismlarida ko'p tarqalgan rosmana biotitli granitlar, ishqoriy va o'ta nordon granitlar ba'zan esa nefelinli sienitlar tarkibida uehraydi. Yoshi jihatdan bu konlar kembriy davrlaridan tortib, mezo-kaynozoy davrlarigacha hosil bo'ladi. Strukturasida intruzivlarning yuqoridan qoplab turgan cho kindi tog'jinslarining qatlamlari, fizik-kimyoviy xususiyatlari, burnalari, yoriqlar alohida o'rin oladi.

Bu guruh konlarining hosil bo'lishi jarayoni quyidagicha sodir bo'ladi (17- rasm).

Albititli konlar hosil bo'lishiga qarab, ko'poq pegmatit va skarn konlari bilan yonma-yon sodir bo'ladi. Jumladan albititli konlarning boshlang'ich davrlari pegmatit tomirlari, greyzenlar esa skarn jismlariga doimiy yo'dosh. Ammo bu jarayonda albititli va greyzen konlari pegmatit va skarnlarni hosil qiluvchi ona tog' jinsi shakllanishining oxirgi stadiyalarga to'g'ri keladi.



17- rasm. Albititli va greyzen konlarining hosil bo'lishi jarayonining ideallashtirilgan ko'rinishi

1-oddiy mikroklinli granit; 2-albititlashgan granit; 3-greyzen hosil bo'lish qismi; 4-yoriqlar va elementlar (Be, Nb, K, Na) miqdorining o'zgarish yo'nalishi

Aksariyat bu konlarning qaliligi (bo'yiga) uncha qalin emas (150-250m) ba'zan 800-1000m ham bo'lishi mumkin. Bu hollarda jinsning mineralogik tarkibi pastdan (tog' jinsining chuqur qismi) yuqoriga qarab quyidagicha o'zgaradi: biotitli granit - biotit-muskovitli granit- albititlashgan granit - albitit - greyzen. Quyidagi

shu guruhga kiruvechi ba'zi bir konlarni ko'rib chiqamiz. Markaziy Qozog'iston albtitli konlar: G.Sherbaning ma'lumotlariga ko'ra, ushbu hududda ma'lum bo'lgan albtitli konlar, o'ta nordon leykogranit va shular orasida (porfirli kvars) granitlardan tashkil topgan bo'lib, tarkibida albtitning bir necha xili ma'lum: berill, volfram, molibden, qalay va tantal elementlarining mineralllariga boy muskovit-mikroklin-kvarsli albtitlar; tantal, niobi, litij va rubidiy elementlarining minerallari uchraydigan litionit-mikroklin-kvarsli albtit: sirkoniy, itriy, siyrak yer elementlari, toriy, mineralllarga boy biotit-kvarsli albtit; bulardan tashqari, ishqoriy tog' jinslarida egirinli va nefelinli albtit konlari ham ma'lum. Bundan tashqari, hududda yana ikki xil shakldagi albtit uchraydi: fenitli va chiziqli, yoki cho'ziq albtitlar: bulardan birinchisi ishqoriy tog' jinslari tarqalgan uchastkalarda, ayniqsa, bu jinslar qadimiy gneysslar, granit-gneysslarni yorib chiqqan bo'lsa, uchraydi. Bu hollarda massivlar tarkibida fenitli halqasimon tarkibida fergynsonit, evdialit, lovenit va boshqa siyrak yer elementlar mineralllari bo'lgan nefelin-plagioklazli albtitlar hosil bo'ladi.


Cho'ziq yoki uzunchoqsimon shakldagi albtitlar aksariyat qidimiy darzlar bilan bog'liq. Platforma va shitlarning quyi qatlamlarida magmatizmga aloqasi bo'lмаган holda chuqurlikdan ko'ta-rilib kelayotgan flyuidlarni atrof tog' jinslarga ta'siri (natriylik metasomatoz) ogibatida hosil bo'ladi. Bunda ishqoriy amfibol (ribekit) va berill mineral-laridan gentgelvin, fenokit va boshqalarda uchraydi. Ba'zan shu turdag'i albittlarda uran mineralllari ham bo'lishi mumkin.

Greyzen konlari yuqorida aytganimizdek, bu konlar magmatik plutonik tog' jinslarining yuqori qismlarida yoki ular atrofida alyumosilikat yoki karbonatli jinslar bilan qo'shilgan kontakt va shu atrollardagi yoriqlarda kaliylik eritmalar metasomatoz ta'siri ogibatida hosil bo'ladi (18- rasm).

Bu jarayon har xil tog' jinslarida turlicha sodir bo'ladi, jumladan, tarkibi alyumosilikatli jinslarda gorizontal bo'ylab o'zgargan (greyzenlash-gan): granit-muskovit-kalsitli greyzen-kvarsli greyzen-topaz-kvarsli, sof topazli va turmalinli greyzenlar.

O'ta asosiy va asosiy tog' jinslarida: o'zgargan amfibolit (serpertirit)-margarit-flogopit hududi-kvars-plagioklaz hududi-kvars-muskovit hududi-aktinolit-flogopit hududlari; ohaktosh tog' jinslarida: marmarlashgan ohaktosh-slyuda-flyuoritli hudud-topaz-flyuoritli hudud-mikroklin (turmalin)-flyuoritli hudud-sulfid-kvars-flyuoritli hudud (18- rasm).

O'zbekistonda albitilli greyzen konlar guruhi Chotqoltog'ining shimoliy qisimida joylashgan Baqiroq va Kundil regional darzliklar hududidagi Sargardon konlari kiradi. Bu konlar, asosan, berill-litiy flyuoritli formatsiya turkumidan bo'lib, qo'shimcha ravishda ular tarkibida ko'p metall, niobiya, tantal va siyrak yer elementlarining minerallari ham uchraydi.




18- rasm. Albititli va greyzen konlarining ideallashtirilgan zonal sxemasi (G. Shellerba)

1-greyzenlashgan tog' jinsili; 2-greyzen; 3-pegmatit; 4-skarn; 5-kvars  
tomirlari shuokverk; 6-greyzenlarning yugori chegarasi

Konlarning geologik tuzilishida devon va quiyi karbon erishda ohaktosh va perm plyumazitli-granitlar ishtirot etadi. «Sial» granitlar turkumiga kiradi. Granitlar genetik jihatdan yerning granit qatlaming «palin-genezis» (erish) jarayonlari oqibatida hosil bo'lgan. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu konlarning hosil bo'lishi 3 bosqichidan iborat:

1. Ohaktosh yotqiziqlarida intruziv kameralarning shakllanishi;
2. Magnyaning sovishi va kristallanishi oqibatida intruzivning hajmi qisqarib, markaziy qismida uncha katta bo'limgan darzlar kontakt qismlarida esa skarn, albititli va anogranit zonalarining hosil bo'lishi;
3. Darzlar bo'yicha magmaning qoldiq flyuidlari yuqoriga ko'tarilib, markazda tomirsimon greyzen va kontakt qismida skarn va apogranitlarda albititli foydali qazilma konlarni hosil qilishi.

Sargardon koni - geologik tuzilishida devon va quyi karbon ohaktosh qatlamlari va shularni yorib chiqqan alyaskitlar (R-T) tshtirok etadi. Kesinmadagi shakli to'ntarilgan stakanga o'xshaydi. (19-rasm). Konning asosiy genetik xususiyati granit magmasi-ning shakllanishida ohaktosh qatlamlari va intruziv markazidagi darzliklarda har xil foydali qazilma elementlariga (F, Be, Li) boy flyuidlarning echo'kishi (konservatsiya jarayoni) oqibatida ma'dan-migmatik sistemalarining hosil bo'lishi kuzatiladi. Bunda intruzivning ekzokontakt qismida (300 m) ch'orkindi qatlamlar bilan flyuorit va berellga boy magnezial - xondradit - forsteritli skarnlar hosil bo'ladi.



19-rasm. Sargardon albitit-greyzen konining soddalashtirilgan sxemasi

1-quyi karbon yoshidagi ohaktosh yotqiziqlari; 2-Sargardon graniti;  
3-flyuorit-spodumen-slyudali metasomatozlar; 4-kvarslashgan ohaktosh yotqiziqlari; 5-kvars-topaz-albitit-sinnival-ditli greyzen; 6-litivli apogranitlar

Bu skarnlarda qo'shimcha elementlarning (W, V, Sn, Mo, Cu, Pb) mineralari ham ma'lum. Markazda kvars-dalashpat-kassiterit-volframit va sulfidlarga boy tomirsimon greyzenlar hosil bo'ladi. Bunda quyidagi zonal o'zgarish aniqlangan: greyzenlashgan piroksenli skarn-kvars-dalashpat-lyuoridli greyzen va greyzenlashgan ohaktosh hududi. Bu bududlardagi soydali qazilmalar asosan stor, berilliyl va magniy elementlarning minerallaridan iborat. Konning umumiy qalinligi 250-300 mm tashkil qiladi.

Baqiroq koni ham ko'p jihatdan Sargardon koniga oxshash bo'lib, faqat maydonlari miqdorining ancha ko'pligi bilan farq qiladi. (19- rasm)

## 2.6 GIDROTERMAL KONLAR

«Gidrotermal» tushunchasi grekcha so'zdan (gidro-suv) termos-issiq olingan bo'lib, «issiq suv» ma'nosiga ega bo'lganiga qaramay, geologiyada «issiq kimyoviy eritmalar» tushunchasini beradi. Ma'lumki, postmagmatik suyuqliklar magmatik jinstordan ajralgan paytlarida gaz holatiga ega bo'lib, ularning harerati, geologiyada qabul qilingan kritik haroratdan yuqori bo'ladi. Keyinchalik ular, nisbatan sovuq bo'lgan tog' jinslaridagi o'zgargan hududlar va g'ovaklar orasida siljishi natijasida, o'z haroratlarini pasaytira boradilar.  $400^{\circ}\text{C}$  chegarasida pasayganda gaz holatlarini yo'qotib eritma holatiga o'tadi. Aynan shunday suyuqliklar hidrotermal eritmalar deb ataladi. Bunday eritmalar murakkab tarkibga ega bo'lib, asosini tashkil etuvehi suvdan tashqari, turli ma'dan komponentlariga ham boy bo'ladi. Gidrotermal eritmalarha harorat va bosimdan tashqari, kimyoviy faoliyat ham xosdir. Bu eritmalar o'z yo'llarida turli tog' jinslari bilan kimyoviy reaksiyalarga kirishib, natijada bir xil komponentlarni tashlab yoki tog' jinslaridan o'zlashtirib olgan komponentlarga boyib, o'z xususiyatlarini va tarkiblarini o'zgartiradi. Bu hoidisalar hidrotermal eritmalarning  $400^{\circ}\text{C}$  dan  $50^{\circ}\text{C}$  gacha bo'lgan oraliq'ida sodir bo'ladi. Ushbu eritmalar tog'

jinslari orasidan o'tish jarayonida turli ma'danlar to'plamlarini va toydali qazilma konflarini hosil qilishi mumkin.

Gidrotermal konflar tabiatda eng ko'p tarqalgan, juda katta nazary va amaliy ahamiyatga ega. Ulardan hozirgi vaqtida qora (Fe, Mn, Co, Ni, W, Mo), rangli (Cu, Pb, Zn, Sn, As, Bi, Hg-Sb), asl (Au, Ag), radioaktiv ( $^{14}U$ ) metallar, siyrak yer elementlari va ma'dan emas toydali qazilmalar - flyuorit, barit, la'l, kvars, magnezit, asbestos va boshqa minerallar qazib ofinmoqda.

Gidrotermal konflarni hosil qiluvchi eritmalar turli chuqurliklarda hosil bo'ladigan ikki xil magmatik jinslar bilan bog'liq bo'lgan gidrotermal konflarga bo'linadi. 1 kilometrdan 5-7 kilometrgacha bo'lgan chuqurlikda joylashgan granitoidlar plutonlar bilan bog'liq bo'lgan plutonogen gidrotermal konflari va yer ustidan boshlab. 1 kilometrgacha chuqurlikda joylashgan vulqon yoki subvulqon deb ataluvchi mag-matik jinslari bilan bog'liq bo'lgan vulkanogen gidrotermal konflari.

HAR ikki xil kon hosil qiluvchi gidrotermal eritmalar haroratlari va bosimlarining pasayishi va ulardan ajratayotgan turli harorat intervallarida yuzaga keladigan mineral uyushmalariga qarab bo'linadi.

1. Yuqori haroratlari gidrotermal konflar ( $400\text{-}300^{\circ}\text{C}$ )
2. O'rta haroratlari gidrotermal konflar ( $300\text{-}200^{\circ}\text{C}$ )
3. Past haroratlari gidrotermal konflar ( $200\text{-}50^{\circ}\text{C}$ )

1. Yuqori haroratlari konflar, asosan, nordon (granit, granodiorit va boshqa) magmatik jinslar bilan bog'liq bo'lib, ko'pincha ana shu ona jinslar bag'rida joylashadi. Ayrim paytlarda ular ona jinslarni yorib chiqib, qurshovchi cho'kindi, metamorfik yoki effuziv jinslar ichida ham joylashishlari mumkin. Bu konlarda ma'dan elementlari W, Mo, Sn, Fe, As, Cu, Pb, Zn, Au va ayrim nodir va tarqoq elementlar minerallari volframit ( $\text{Fe}, \text{Mn}$ ) ( $\text{WO}_4$ ), molibdenit ( $\text{MoS}_2$ ), cassiterit ( $\text{SnO}_2$ ), magnetit ( $\text{Fe}, \text{Fe}_2\text{O}_4$ ), gemitit ( $\text{Fe}_3\text{O}_4$ ), arsenopirit ( $\text{FeAsS}$ ), xalkopirit ( $\text{CuFeS}_2$ ), galenit ( $\text{PbS}$ ), sfalerit ( $\text{ZnS}$ ), oltin ( $\text{Au}$ ), pirit ( $\text{FeS}_2$ ), pirrotin ( $\text{FeS}_2$ ) va boshqalar uchraydi. Ma'dan emas qazilmalardan berill, topaz, turmalin, ilogopit, grafit uchrab turishi ham mumkin. Butlardan tashqari

tomir minerallaridan kvars, dala shpatlari, amfibollar, granatlar, muskovit va boshqalar yondosh bo'lishi ehtimol.

Yuqori haroratli gidrotermal konlarga xos bo'lgan foydali qazilmalarning ko'pchiligi o'rta haroratli jarayonlarda ham to'plamlar (konlar) hosil qilishi mumkin. Cu, Au, Pb, Zn larning asosiy to'plamlari o'rta haroratli konlarga to'g'ri keladi. Shunga qarab foydali qazilma konlarini qanday haroratda paydo bo'lganliklarini aniqlashimiz mumkin. Bu savolga javob berishlik uchun, avvalo kon ma'danining mineral tarkibini va boshqa shu turdag'i konlar ma'dan tanalarni, bu tanalarning qurshovchi jinslarda sodir bo'lgan o'zgarishlarni aniqlash zarur. Baland haroratli konlardagi eng asosiy o'zgarishlardan biri greyzenizatsiya (greyzenlanish)dir. Greyzenlanish hodisasi magmatik va boshqa tog' jinslarining tarkibidagi dala shpati kaliylik eritmalar ta'sirida parchalanib, kvars, slyuda (muskovit) uyushmalari hosil bo'ladi. Shuningdek shu sharoitlarda (gazlardan) paydo bo'luvechi topaz, berill, turmalin, flyuorit va boshqa minerallar ham uchraydi.

Yuqori haroratda yuzaga kelgan gidrotermal konlarga noto'g'ri tarmoqli, yoyilgan (ot dumiga o'xshash) tarmoqli, linza, shtokverk va boshqa morfologik shakllar xosdir. Shunday shaklli ma'dan tanalarining eni (qalinligi) bir necha santimetrdan bir necha metrga, ayrim yerdarda o'nlab metrga, uzunligi esa bir necha metr dan bir necha kilometrgacha bo'lishi mumkin.

Yuqori haroratli gidrotermal konlar orasida eng ko'p tarqalgan foydali qazilmalaridan biri oltin bo'slib, konlarda oltin-margimush va kvars-oltin formatsiya-larini tashkil etadi. Birinchi formatsiyaga misol qilib Uraldagi Koch Kar Djetigar konini ko'rsatish mumkun bo'lsa, ikkinchi formatsiyaga «qadimgi» kembriy davrida hosil bo'lgan Braziliya-dagi Morovello, Hindistondagi Kolar, Kanadadagi Porkyupayn va boshqa konlarni ko'rsatish mumkin.

Polimetall (qo'rg'oshin-ruh) konlari ham baland haroratli gidrotermal jarayonlar oqibatida paydo bo'lishlari mumkun. Bular safiga Avstraliyaning Brokken-Xil, Kanadaning Sullivan konlari kiradi.

Yuqori haroratlari hidrotermal jarayonlar natijasida, ma'dan konlariidan tashqari, turli noma'dan foydali qazilmalar ham hosil bo'ladi. Bunga Sibirda (Aldan), Kanada, Shvetsiya, Madagaskar va boshqa o'lkalarda uchragan muskovit va flyuorit konlari; Ukrainadagi grafit koni; Ispaniyadagi apatit konlari; Rossiya, Afrika va Hindistonda topilgan qimmatbaho tosh (topaz, berill, turmalin) konlari misol bo'ladi.

Demak, zikr qilingan konlarning tarkibida uchrovchi slyudalar, grafit, rangli va qimmatbaho toshlar - korund, topaz, berill va boshqa minerallar chiqurlikdagi intruzivlar bilan bog'liq bo'lgan baland haroratlari hidrotermal eritmalarining hosilasi. Bu konlarning magmatik jinslar bilan genetik bog'la-nishini aniqlash qiyinchilik tug'dirmaydi. Chunki ular ko'pincha o'z ona jinslari bag'rida yoki shu jinslarga yaqin bo'lgan qurshovchi jinslar orasida joylashadi.

2. O'rta haroratlari plutonogen hidrotermal konlarning hosil bo'lishi eritmalarining 300°C dan 200°C ga pasayishi bilan bog'liq bo'lib, katta va o'rta chiqurliklarda paydo bo'ladi. Agar baland haroratlari konlar, asosan, nordon magmatik jinslar bilan genetik bog'liqlikda bo'lsa, o'rta haroratlari konlar magmatik jinslarning barcha turlari (nordon, ishqoriy, asosiy, o'taasos) bilan bog'liq bo'ladi. Xalq xo'jaligida o'rta haroratlari hidrotermal konlar katta ahamiyatga ega. Ulardan Au, Ag, Cu, Vi, Pb, Zn va boshqa metallar olinmoqda. Bu konlarning asosiy mineralarni oltin (Au), kumush (Ag), elektrum (Ag, Au), xalkopirit ( $CuFeSe$ ), bornit ( $Cu_3FeS_4$ ), kuprit ( $Cu_2O$ ), sfalerit (ZnS), nikelin (Ni As), millerit (NiS), kobaltin (Co, Fe)AsS), shmidtin (Co As<sub>3</sub>), gematit ( $Fe_2O_3$ ), siderit ( $FeCO_3$ ), pirit (FeS<sub>2</sub>), arsenopirit (FeAsS), cassiterit ( $SnO_2$ ), stannin ( $Cu_3FeSnS_4$ ), molibdenit (MoS<sub>2</sub>), uraninit ( $U_2UO_7$ ), nasturit ( $U_2UO_7$ ) va boshqalar tashkil etadi. Bularidan tashqari bu sinf konlariid: bir qancha noma'dan foydali qazilmalar: talk, magnezit, xrizotil-asbest, tog' biiluri va tomir minerallari-kvars, barit, karbonatlar ham uchrab turadi.

O'rta haroratlari hidrotermal konlarni qurshovchi yon jinslari turli o'zgarishlarga duechor bo'ladi. Bu o'zgarishlar qurshovchi jinslarning mineral va petrokimiyoviy tarkiblari bilan chambarchas'

bog'liq. Masalan, nordon va o'rta jinslar (granit, granodiorit, adamellit, diorit) o'rta haroratli gidrotermal eritmalarining kimyoviy ta'siri natijasida berezitlanadi, ya'ni berezit jinsiga aylanadi. Berezitlanish deb, nordon va o'rta jinslarning dala shpatlarini parchalanib, o'rinalariga kvars va seritsit paydo bo'lisligi va biotit, shoh aldamchisi minerallarining parchalanishi oqibatida, pirit hosil bo'lisljarayonlariga (o'zgarishlariga) aytildi.

Qoramtiler minerallari kam nordon magmatik jinslar (ikki slyudali granit, alyaskit), loyqa qatlami va seritsitga parchalanadi. Seritsitanish bu - tog' jinslari dala shpatlarining, mayda muskovit (seritsit) va kvarsga aylanishi.

Qora minerallarga boy bo'lgan o'rta magmatik jinslar xloritlanadi. Bu hodisa natijasida jinslar tarkibidagi temir hisobiga xlorit, slyudalar paydo bo'ladi. Ayrim (mis, qo'rg'oshin, ruh) konlarida karbonatlanish ham yuz beradi. Agar qurshovchi jinslar loyqa qatlamtosh, arkoz-qumtosh bo'lса, kvarslanish va boshqa o'zgarishlar yuz berishlari mumkin.

O'ta asosli jinslarda, ikki tur o'zgarish (serpentinlanish va listvenitlanish) sodir bo'ladi. Serpentinlanish - o'ta asosli jinslarning magnezial silikatlari hisobiga serpentinlar paydo bo'lislidi. Listvenitzatsiya deganda o'ta asosli magmatik jinslarning silikatlari (olivin, piroksen) eritmalar ta'sirida parchalanib, o'rinalariga temir va magnititli karbonatlar, kvars, fuksit hosil bo'lishi tushuniлади.

O'rta haroratli gidrotermal konlar ona magmatik jinslarning bag'tidangina joy olmasdan, ularidan anche uzoqda yotgan turli (cho' kindi va metamorfik) jinslar ichida joylashishi ham mumkin. Bu turdagagi konlar metasomatik yo'llar bilan yoki ochiq darzlarga joylashish yo'llari bilan yuzaga kelib, oddiy va murakkab tomir, linza, shtok, shtokverk, ustun, qatlam va boshqa shakllarga ega bo'ladi.

Bu turdagagi konlar tabiatda ko'p tarqalgan bo'lib, ular ichida turli ma'danli formatsiyalar ajratiladi:

1. Oltin sulfidli formatsiyasi. Bu formatsiya konlari O'zbekiston (Muruntog' koni), Qozog'iston (Stepnyak) va AQSh da topilgan.

2. Mis-molibden formatsiyasiga O'zbekistondagi Qalmoq-qir, Qozog'istonidagi Kounrad, AQSh dagi Bingxem va boshqa konlar kiradi.

3. Sof molibden formatsiyasi. Bu formatsiya kam uehrashiga qaramay, tabiatda juda katta konlar hosil qiladi (AQSh dagi Klyaymaks koni).

4. Polimetall (Pb, Zn) formatsiyasi juda keng tarqalgan formatsiyalardan biri hisoblanib, Rossiya da Takeli, Sadon, Gorevskoye, Leninogorskoye, Timinskoye va boshqa konlarni o'z safida uyuşdıradi. Bu formatsiya boshqa davlatlarda ham eng ko'p tarqal-gan formatsiyalar qatoriga kiradi.

5. Xrizotil-asbest formatsiyasini tashkil etuvchi konlar Ural, Kanada, Rodeziyada uehraydi.

6. Log' billuri formatsiyasi (Pomir, Aldan va boshqa yerlarda uehraydi) ham shu haroratlari hidrotermal konlar bilan bog'liq. Bulardan tashqari bu sinf konlarda barit (Salayir, Oltoy), miaskit (Uralda), flyuorit (Obirahmat, Takob-O'rta Osiyoda), magnezit (Satka-Uralda) formatsiyaları ham ko'p uehraydi.

3. Past haroratlari hidrotermal konlar. Bu konlar hidrotermal eritmalarining harorati 200°C dan 50°C gacha pasayishi natijasida yuzaga keladi. Bosim ham past bo'ladi. Bu jarayon hidrotermal eritmalarini boshlanish davrlarida (yuqorida aytilgandek) baland harorat va bosimdan past harorat holatiga o'tgumeha sezilarli uzoq masofani (6-8 km) bosib, yer qobig'ining ichki qismlaridan ustki (bosim past) qismlariga yetib kelguncha sodir bo'ladi.

Past haroratlari hidrotermal konlar rivojlangan hududlarda o'sha konlarni hosil qiluvchi (eritmalarini beruvechi) magmatik ona jinslari ko'pincha uehramaydi. Chunki ular konlarga nisbatan anche chiqurlikda joylashgan bo'lib, kuzatish imkoniyatidan tashqarida bo'ladi. Bunday sharoitda konlar magmatik ona jinslarini ustida yotgan cho'kindi-metamorfik jinslar (ohaktosh, quimtosh, slanes, effuzivlar va ularning aralashib yotgan qattamlari) ichida joylashadi.

Ona magmatik jinslarining turlari ravshan emas. Lekin ilmiy ma'lumotlarga qaraganda, ular nordon (granit) va ishqoriy (sienit) guruhlardan iborat bo'ladi.

Past haroratli gidrotermal jarayon natijasida turli ma'dan va nomda'n dan foydali qazilmalar paydo bo'ldi. Bularning ichida muhim ahamiyatga ega bo'lganlarni quyidagi minerallar-kinovar ( $HgS$ ), antimonit ( $Sb_2S_3$ ), realgar ( $AsS$ ), auripigment ( $As_2S_3$ ), oltin ( $Au$ ), kumush ( $Ag$ ), elektrum ( $Ag$ ,  $Au$ ), telluridlar-kalaverit ( $AuTe_2$ ), silvanit ( $AuAgFe_4$ ) va boshqalar hisoblanadi. Noma'dan minerallar safini kvars, karbonatlar, barit, alunit va boshqalar tashkil qiladi.


Ko'pchilik past haroratli gidrotermal konlardagi ma'dan tanalarining shakli tomir, linza, tabaqasimon bo'ldi. Bu xil konlarda ma'dan oldi o'zgarishlaridan seritizatsiya, dolomitizatsiya, baritizatsiya, kvarslanish jarayonlari sodir bo'ldi.

Bu konlar ichida bir necha ma'danli formatsiyalar mayjud. Masalan, misli qumtosh formatsiyasiga Qozog'istonning Jezkazgan, Sibirdagi Udkan, Zambiyadagi konlar kiradi. Mis-seolit ma'dan formatsiyasi AQSh (Upper Lake) da topilgan.

Polimetall formatsiyasining vakillari Qozog'istonning Qorotog'ida (Achisoy, Mirgolimsoy), AQShning Missisipi daryosi atrofida uchraydi. Siniob va surma formatsiyasiga Donbassdag'i Nikitovka, O'rta Osiyoda Haydarkon, Qadamjoy, Ispaniyadagi Amaden va Xitoydag'i qator konlar kiradi.

Plutonogen-gidrotermal koniga misol tariqasida Qoramozotog' idagi Qalmoqqir mis-molibden va Markaziy Qizil - qumdag'i Muruntog' oltin konlari kiradi (19, 20, 21- rasmlar).

Qalmoqqir, mis-molibden konining geologik tuzilishiда devon davrining ( $D_1, D_{2,3}$ ) cho'kindi vulqon jinslari va ularni o'rta toshko'mir davrida yorib chiqqan sienit-diorit intruziv massivi qattashadi.



20-rasm. Qalmoqqir mis-molibden konning geologik qirqimi (R.A. Musin bo'yicha)

1-otaktosh; qumtosh; konglomerat; 2-andezit-datsit-porfir; 3-kvarsli porfir; 4-granodiorit-porfir; 5-sienit-diorit; 6-nordon jins daykalar; 7-tektonik buzilishlar; 8-sulfidli mis-molibden ma'danlari

Sienit dioritlari o'z navbatida C<sub>1</sub>-P<sub>1</sub> yoshli granodiorit-porfir, sienit-diorit-porfir, aplit, diabaz-porfirit daykalarini yoradi.

Mis-molibdenli ma'danlar sienit-diorit shtoki bilan granodiorit-porfirlar tutashgan yerlarda sienit-diorit va kvarsli porfirlarda joylashgan. Ma'dan tanasi shtokverk bo'lib, undagi asosiylar minerallar magnetit, pirit, xalkopirit, molibdenit, gemitit, pirrotin, markazit, galenit, sfalerit, volframit, sheelit, sofoltin ham uchraydi. Tomirli mineralarning asosiysi kvars bo'lib, undan tashqari angidrit, kalsit, barit, dolomit, ankerit, seolitlar ham ma'lum.



21- rasm. Mis-molibden konidagi xollanma ma'danning ko'rniishi  
1-sienit-diorit; 2-xalkopirit minerali

Konda sezilarli qalnlikda oksidlanish hududi mayjud. Bu hududda malaxit, xrizokolla, atakamit, xalkozin, kuprit kabi misning gipergen minerallari va ferrimolibdat degan molibden minerali ko'p uchraydi.

Qalmoqqir konining birlamchi ma'danlarida mis, molibden, oltin, kumush va nodir element (selen, tellur, reniy, vismut, indiy) lari bor.

Tekstura xususiyatlariga ko'ra birlamchi ma'danlar tomirchalar va uyasimon xillarga bo'linadi (20- rasm).


Koning qurshovchi jinslarida o'rta haroratlil plutonogen-gidrotermal konlariiga xos bo'lgan o'zgarishlar (seritsitatsiya, kvarslanish, xloritizatsiya, ortoklazizatsiya) va mayda darzlar keng rivoj-langan bo'lib, ular ma'danlari hosil bo'lislida muhim rol o'yaydi.

Ko'pchilik mutaxassislarining fikriga ko'ra, Qalmoqqir konining ma'danlari granodiorit-porfir va sienito-diorit porfirlar sbtoklari bilan genetik bog'langan.

Muruntog' oltin koni Navoiy viloyatining Tomdi hududida joylashgan bo'lib, mohiyati va zaxirasi bo'yicha Yevro-Osiyo qit'asida ma'lum bo'lgan oltin konlarining eng kattasi hisoblanadi. Bu kon haqidagi dastlabki ma'lumotlar o'tgan asrning o'stuzinchisi

yillarnga to'g'ri kelishiga qaramasdan (A.F. Sosedko va b. 1930-yil) uning shakllanishi, asosan, 1956-65-yillari davomida sobiq Ittifoq rahbariyatining tashabbusi va keng geologik jamoat-chilikning timorisiz olib borgan mashaqqtali qidiruv, razvedka va ilmiytadqiqot ishlari oqibatida dunyoda-gi mashhur oltin konlar qatoriga kirdi va 1969-yili 21-iyulda ilk bor oltin quymasi olindi. Bu ishlar samarasи sifatida bir guruh geologlar yuksak mukofotlarga sazovor bo'ldilar. Bu konning topilishi markaziy Qizil-qumda yana bir qancha oltin konlarini (Myutenboy, Charmiton, Kokpatas, Zarmiton va b.) ochilishiga olib keldi va bu hudud oltin konlar o'chog'i ekanligini ko'rsatdi (22-rasm). Hozirgi kunda bu kon ochiq karyer usuli bilan 780 m chuqurlikdan har yili 50-60 tonna yuqori sifatli (999,9) so'l oltin olinmoqda.

Konning hosil bo'lishida va geologik tuzilishida kembriyga qadargi qora Besopan cho'kindi tog' jinslari va quyi paleozoy yoshidagi tektono-magniatik jarayonlari asosiy rol egallaydi. 1980-yillarda ma'danlar ostidagi yotqiziqlarni o'rGANISH maqsadida Sg-10 markati o'ta chuqur (4294 m) skvajina kavlanib, 4005 m chuqurlikda aniq yoshi 285-290 mil. yilga teng grandiorit, adamelit va leykogranit tog' jinslari aniqlandi.



22- rasm. Muruntog' ma'danli maydonining soddashtirilgan sxemasi  
 1-qadimiy ohaktosh yotqiziqlari; 2-besopan qatlami; 3-konlar;  
 (a-Muruntog'; b-Myutenboy; d-Triada; e-Besantog'; f-Boylik;  
 g -Sharqiy-Besopan; h-Toshko'mir.); 4-karyer chegarasi;  
 5-regional yotqiziqlar

Kon maydonining birlamchi strukturasi-Muruntog' burmasi bo'lib, keyinchalik yo'naliishi bo'yeha mayda-mayda bo'laklariga parchalangan. Ma'danli tanalar shtokverk shaklidagi har xil yo'naliishdagi kvars-oltin tomirlaridan iborat.

Tomirlar atrofidagi cho'kindi tog' jinslari yuqori haroratlida gidrotermal jarayonlar oqibatida har xil darajadagi kontakt-metamorfizmga uchragan: oqibatda rogoviklar va asosiy ma'dan minerallari oltin, sheelit va kvars assotsiatsiyasi joylashgan tomirsimon kvars biotit - dala shpati metasomatitlari hosil bo'lgan. Bular ichida biotitli, muskovit-andouzitli va andaluzit-kordierithli turlari ajiratiladi

### **O'zlashtirish uchun savollar**

1. Albititli va greyzen konlari.
  2. Albititli konlar.
  3. Greyzen konlari.
  4. Sargardon koni.
- Atamalar: kondradit, forsterit, sinnivaldit.

## **VULKANOGEN GIDROTERMAL KONLAR**

Bu turdag'i konlar ham tabiatda keng tarqalgan bo'lib, sanoatda katta ahamiyatga ega. Vulkanogen gidrotermal konlarni boshqacha qilib aytganda kam chuqurlikdagi yoki sayoz konlar deb ataladi. Nega deganda yuqorida ko'rilgan plutonogen gidrotermal konlari 1,0 - 1,5 km chuqurlikdan boshlab, 6-7 km chuqurlikda paydo bo'tishlari mumkin bo'lsa, vulkanogen gidrotermal konlari esa V.I. Smirnovning sikricha, bir necha metr chuqurliklardan boshlab, 1 km chuqurlikkacha bo'lgan yer osti sharoitlarida yuzaga kelishlari mumkin.

Vulkanogen gidrotermal konlarining bizga ma'lum bo'lgan, yer qobig'ini yorib chiqib, havoga dahshat bilan otiluvchi vulqonlardan farqi bor. Vulkanogen tushunchasi, oddiy vulqonlardan tashqari, yer ustiga chiqolmay to'xtagan, subvulqon deb ataluvchi, 1 km gacha bo'lgan chuqurliklarda hosil bo'ladigan mag-

matik jinslarni va ular bilan bog'liq magmatik hodisalarini ham o'z ichiga oladi. Biz ta'riflayotgan vulkanogen konlari vulqon va subvulqon (traxit, andezit, datsit, bazalt, porfirit, tuf) larni yuzaga keltiruvchi pastdag'i magmatik o'choqlar bilan bog'liq bo'ladi. Ular magmatik jarayonlarning so'nggi etaplarida, o'choqlarida gaz va gidrotermal eritmalar hodiда rivojlanadigan, katta bosim va haroratga ega bo'lgan, turli metall va metallmas komponentlarga boy bo'ladigan eritmalarning yer ustki (bosim past) qismiga ko'tarilib, yuqorida ko'rsatilgan vulqon va subvulqon jinslar orasida kristal-fanishidan hosil bo'ladi.

Bu jarayonda vujudga keladigan magmatik jins tanalarining hejmlari katta bo'lmaydi, shtok va dayka shakllarga ega bo'ladi. Aksariyati ularni «kichek intruzivlar» deb ham ataydilar.

Plutonogen gidrotermal konlari Pluton magmatik massivi bilan genetik bog'liq bo'lsa, vulkanogen konlari esa vulqon va subvulqon jinslari bilan paragenetik bog'liqlikda bo'ladi. Bu esa vulkanogen konlarni tashkil etuvchi gidrotermal eritmalar yuqorida ko'rsatilgan vulqon va subvulqon magmatik jinslaridan emas, balki shu jinslar hosil bo'lgan pastki magmatik o'choq bilan bog'liq degan so'zdir. Gidrotermal eritmalar magmadan so'nggi davrda ajarlib, vulqon, subvulqon jinslar orasida joylashib, turli ma'dan tanalarini tashkil etadi. Bu hodisalar natijasida yuzaga kelgan ma'dan tanalari, o'z shakllari bo'yicha plutonogen gidrotermal ma'dan tanalarining shakllaridan deyarli farq etmaydi. Masalan, bunday konlarga xos bo'lgan shakllardan ma'dan tomiri, linza, va noto'g'ri shaklli ma'dan tanalarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Ayrim paytlarida, pastki gorizontlarda oddiy shakllarga ega bo'lgan tomirlar, yer ustiga yaqinlashgan sari parehalanib, shohlangan bir necha mayda tomirlarga aylanib, o'z shaklini murakkablashtirishi mumkin. Ma'dan tanalari shakllarining murakkablanishi ko'pincha tog' jinslarining bo'li-nish, qatlamlanish va parchalanish hududlari bilan bog'liq. Nega deganda, shu hodisalar natijasida ma'dan tanalarini tashkil etuvchi gidrotermal eritmalar oqib o'tuvchi yo'llari ko'p qismlarga bo'linib murakkablashadi va ular iehra joylashgan ma'dan tanalari ham, tabiiy ravishda murakkab shakllarga ega bo'ladi.

Ma'dan tanalarining chuqurligi yer ostiga qarab 300-500 metrgacha cho'zilgan bo'lib, ayrim yerdarda 800-1000 metrgacha kuzatilishi; uzunligi esa bir necha metrdan to o'nlab - yuzlab metrgacha, ba'zan bir necha kilometrgacha yotishi mumkin. Konlarning tarqalishi maydonlari ayrim paytlarda bir necha kvadrat kilometrga teng bo'ladi.

Vulkanogen gidrotermal konlarning boshlan-g'ich harorati ( $600-500^{\circ}\text{C}$ ) bo'lighiga qaramay (ularning rivojlanish sharoitlari yer ustiga yaqin bo'lgan-liklari tufayli) eritmalarini harorati tezda baland haroratdan o'rta ( $300-200^{\circ}\text{C}$ ) va past ( $200-50^{\circ}\text{C}$ ) haroratgacha kamayib ketadi. Shu tufayli bunday konlarning ma'dan tanalarida baland haroratda paydo bo'lgan mineral (volframit, kassiterit, turmalin, topaz kabi) lar bilan bir qatorda, o'rta va past haroratda hosil bo'lgan (galenit, sfalerit, kinovar, antimionit va boshqa) minerallar ham ishtirok etishlari mumkin. Baland haroratda paydo bo'lgan mineral formatsiyalarning ustiga o'rta va past haroratda paydo bo'luchchi minerallarning formatsiyalari joylashadi. Shuning uchun vertikal bo'yeha kam masofada turli harorat intervalida paydo bo'lgan bir necha mineral uyushmalarini (assotsiatsiyalar) kuzatish mumkin. Bu esa o'z navbatida katta, lekin juda murakkab tarkibga ega bo'lgan ma'dan tanalarini hosil qiladi. Bunday hodisalarni geologiyada «teleskoplashtirish» hodisasi deb ataladi. Plutonogen gidrotermal konlarida turli harorat intervallarida paydo bo'lgan minerallar va konlar nisbatan oldinma-keyin, zonal bo'lib o'tin olsalar, vulkanogen gidrotermal konlarida bu hodisaning o'tniga yuqorida aytilgan teleskopplash-tirish hodisasini kuzatish mumkin.

Qurilayotgan vulqonli gidrotermal (sayoz) konlarning mineral tarkiblari murakkab bo'lib, plutonogen gidrotermal konlarida uehraydigan va bizga ma'lum bo'lgan volframit, magnetit, gematit, kassiterit, arsenopirit, xalkopirit, pirit, pirrotin, gemitit, sfalerit, vismutin, kinovar, antimionit va boshqalardan tashqari bu konlarning o'zlariga xos bo'lgan minerallari (electrum -  $\text{Ag}_2\text{Au}$ , silvinit -  $\text{AuAgTe}_3$ , kalaverit- $\text{AuTe}_2$ , nagiagit -  $\text{AuTe}_2\text{Pb}$  (S,Te), nikelin-NiAsS, markezit -  $\text{FeS}_2$ ) larni uchratishimiz mumkin.

Nomda dan minerallardan kvars, xalsedor adulyar, gips, flyuorit, kalsit va boshqalar keng tarqalgan bo'ladi.

Bu guruhga kiruvechi konlar ma'danlari uchun gidrotermal eritmalarining tezda haroratini yo'qotishi natijasida paydo bo'luechi mineral uyushimalar kolloid va metakolloid teksturalari xos bo'ladi. Ba'zan ulardan tashqari ochiq yoriqlarni orasida kristallangan tomirli ma'dan teksturalari ham uchraydi.

Vulkanogen gidrotermal jarayonlarini kuzatib boruvchi (qurshovchi) jinslarda quydag'i o'zgarishlar aniqlangan: eng keng tarqalganlari propilitatsiya, alunitatsiya va kaolinizatsiya.

Propilitatsiya-past haroratga xos bo'lgan o'zgarishlardan bo'lib, asosiy effuziv jins (bazalt, andezit, datsit) larda yuz beradi. Propilitatsiya hodisasi natijasida tog' jinslarining tarkibidagi qoramit minerallar (shoh aldamchisi, piroksen, biotit) bo'yeha xlorit bilan epidot rivojlanib, jinslar tarkibida bulardan tashqari seritsit, pirit, karbonatlar hosil bo'ladi va jinslarning vulqon (shishasimon) strukturasi yo'qolib, donador strukturaga aylanadi. Propilitatsiyaga uchragan jinslar ko'kintir rangli bo'lib, ko'pincha past haroratda hosil bo'lgan oltin va kumush konlarida kuzatiladi.

Alunitatsiya-alunitlanish, (achchiqtoshilanish) degan ma'noga ega bo'lib, nordon, o'rta effuziv va tuf jinslarida yuz beruvechi past harorat o'zgarishlaridan biri. Jinslarning alunitlanishiha gidrotermal eritmalarida konsentratsiyasi baland bo'lgan sulfidlarning roli katta. Alunitning o'zi sanotda alyuminiy olinuvchi xomashyo bo'libgina qolmay, tabiatda sayoz chiqurliklarda tashkit topgan oltin, mis, polimetall va boshqa konlarni ko'rsatuv-chi belgi (nishon) bo'lib ham hisoblanadi.

Kaolinizatsiya - kaolinlanish, ya'ni tuproqlanishtarkibida dala shpatlari bo'lgan jinslarga xos bo'lib, turli effuzivlar ichida yuz beradi. Ko'pincha kaolinlanish bilan qaytadan kvarslanish ham so'dir bo'ladi.

Vulkanogen gidrotermal konlari ma'dan tanalarining tomir, linza, shtokverk va shunga o'xshashlardan iborat bo'lganligiga qaramay, ular uzoqqa cho'zilmaslik va yer ostida tez tamom bo'lish xususiyatlariga egadir.

Ko'rsatilgan konlar orasida turli haroratlari vulkanik gidroterinal konlarga xos bo'lgan formatsiyalar:

Baland haroratda hosil bo'lgan konlar uchun:

1. Qalay va polimetall ma'danlarining tuzilgan formatsiyalari. Bunga Primorye o'lkasidagi Fudzinskiy, Xrustalniy va Lashkerek konlari misol bo'la oladi. Ma'dan minerallari, asosan, galenit, sfalerit, arsenopirit, pirit, xalkopirit va boshqalardan iborat.

2. Mis-molibden ma'dan formatsiyasi. Misol tariqasida Chilidagi Braden konini, Italiyadagi Serro de Pasko va Yugoslaviyadagi Bo'r konlarini ko'rsatishimiz mumkin. Bularga xos bo'lgan asosiy ma'dan minerallari xalkopirit, borit, emargit, molibdenit, pirit va boshqalardir.

3. Oltin ma'dan formatsiyasiga Zarafshon tizmasining g'arbidagi Robinjon mis-oltin koni va Qurama tizmasidagi Qizilolmasoy, Ko'chbuluoq konlari kiradi.

### O'rta haroratda hosil bo'lgan konlar

1. Mis kolchedan formatsiyasi. Bunga Alayerdi (Kavkaz) va Blyavinskiy (Ural) koni kiradi. Shu formatsiyaning konlari Yaponiya, Yugoslaviya, Turkiyada ham uchraydi. Ma'danli minerallar xalkopirit, borit, pirit, pirrotin va aralash aynama ma'dan-lardan iborat.

2. Besh elementli (Co-Ni-Bi-Ag-U) formatsiyasi. Bu vulkanogen formatsiyasiga Chexiyadagi ma'danli tog', Kanadadagi Katta ayiq ko'li, O'zbekistonda Oqtepa konlari kiradi. Ma'danlarning tarkibida, asosan uran, kobaft, nikel, vismut, kumush minerallari va ularidan tashqari xalkopirit, pirit, magnetit va boshqalarni uchratamiz.

### Past haroratda hosil bo'lgan konlar

1. Oltin - kumush ma'dan formatsiyasi. Misol qilib Kripl-Krik (AQSh), Nagiag (Vengriya), Belya gora (Rossiya) va boshqa konlarni ko'rsatishimiz mumkin. Bu formatsiyalarga doir bo'lgan

konlarning tarkibida sof (tug‘ma) oltin va kumushlardan tashqari uarning telluridlari ham uchraydi.

2. Sof oltin formatsiyasi. Misol-Zabaykalyedagi kon. Oltin kollomorf teksturasiga ega bo‘lgan kvarsda juda mayda va tarqoq holatda uchraydi.

3. Simob formatsiyasi. Misol - Monte Amyata koni (Italiya), Qadamjoy (Qirg‘iziston). Ma’danning tarkibida kinovardan tashqari, antimonit, markazit, pirit va boshqalar uchraydi. Aksariyat bu konlar to‘rlamchi davr-ning vulqon jarayonlari bilan bog‘liq.


4. Island shpatlari formatsiyasi. Bu formatsiya konlari Sibirdagi Vilyuy va Tungus rayonlarida topilgan.

5. Alunit formatsiyasiga-Zaglik koni (Zakavkazye) kiradi.

6. Flyuorit formatsiyasidagi konlar Zabaykal-yeda uchraydi.

Vulkanogen-gidrotermal konlar guruhiga kiruvchi Qurama tog‘idagi Ko‘chbuloq oltin koni bilan tanishamiz (23- rasm).

Ko‘chbuloq oltin koni Qurama tog‘ining shimoliy qismida joylashgan. Geologik tuzulishining asosini o‘rta toshko‘mir davirning andezit - datsit tarkibli vulkan yotqiziqlari tashkil etadi. Oz miqdorda subvulqon va dayka jinslari ham uchraydi.



23- rasm. Ko‘chbuloq konining ko‘ndalang kesimi (V.Shabalin va boshqalar bo‘yicha)

1-sienit-diorit-porfirite; 2-kvarsli sienit-diorit-porfirite; 3-diabaz-porfirite;

4-andezit-porfirite (o‘ta, yirik, bo‘laklı); 5-jigarrang andezit porfirite;

6-andezit tarkibli tuf; 7-tektonik buzilishlar; 8-kvars-kalsit-baritli tomirlar; 9- oltinli kvars tomirlar

Ko'ning tomir, finza, qatlamsimon yotqiziq shaklidagi ma'dan tanalari shu vulqon jinslari qat-lamlari orasida va yoriqlarda uchraydi. Bu jaridan tashqari konda yana oltin boy bo'lgan ustunsimon ma'dan tanalari ham ma'lum. Bulardan birinchilari, andezit - datsit porfiritlari bilan turli mi qatlamlari orasida mos yotuvechi linza va yotqiziqlar bo'lsa, ikkinchisi esa shimolty va sharqiy yo'naliishdagi darzliklarni kesishgan uchastkalarida tik tushuvechi shtokverk shaklida uchraydi. Bu shakldagi ma'dan tanalari linzasimon, qatlamsimon tanalarga nisbatan mineral tarkibining murakkabligi va olfinning miqdori ko'pligi bilan ajralib turadi.

Ma'dan tanalari kvars tomirehalaridan va sulfidlardan tuzilgan. Oltin sof holda uchraydi. Undan tashqari telluridlar-persit, kalaverit, silvanit va tetradimit, jocxit keng tarqalgan. Ma'danlarda galenit, sfalerit, pirit, xalkopirit, aralash o'zgargan ma'dan minerallari uchraydi. Noma'dan minerallar kvars (xalsedon), kalsit, ankerit, barit, seritsitlardan iborat. Ma'dan atrofida propilitizatsiya, xloritizatsiya va epidotizatsiya kabi o'zgarishlar mavjud.

Ma'danlarning mineralogik tarkibi, oltin namunasining 850-900 bo'lishi va tellur minerallarining ko'p uchrashi kabi qator dalillar bu kon yer yuziga yaqin masofalarda hosil bo'lganligini ko'rsatadi.

### O'zlashtirish uchun savollar

1. Plutonogen va vulkanogen gidrotermal konlari.
2. Yuqori (mezo)termal konlar.
3. O'rta (gipo)termal konlar.
4. Past(epo)termal konlar.
5. Qalmioqejir, Muruntog', Ko'chbuloq konlari.

Atamalar: vulkanogen, plutonogen, kaolinizatsiya, alunitizatsiya, propilitizatsiya, fatsiya.

## 2.7 KOLCHEDAN KONLARI


Kolchedan konlari guruhiga gidrotermal-metasomatik, gidrotermal-cho'kindi va ularning aralashgan konlari kiradi. Ko'p villar davomida bu konlar cho'kindi konlar gurubi tarkibida o'rganilib kelingan. Faqat A.Zavaritskiyning 1930-1940-yillar davomida janubiy Ural hududidagi quyi devon ohaktosh va vulkanik yotqiziqlar tarkibidagi temir-mis ma'danlarini o'rganishi oqibatida mustaqil konlar gurubi deb tan olingan. Deyarli hamma kolchedan konlarining ma'danlari qay holda va shaklda uchramasini, mineralogik tarkibi bir xil: pirit, pirrotin ba'zan markaziy va bular bilan birga uchraydigan xalkopirit, bornit, sfalerit, galenit va boshqa sulfidlardan iborat bo'ladi.

Ma'dan yotqiziqlarining pastki va ustki qismalaridagi cho'kindi tog' jinslar kon hosil qiluvechi hidrotermal eritmalar (flyuidlar) ta'sirida xloritizatsiya, seritsitizatsiya, piritizatsiya, kvarstashgan va boshqa aytometasomatik o'zgarishlarga uchraydi. Genetik jihatidan kolchedan konlari evgeosinklinal burmalarning boshlang'ich va ibtidoi rivojlanish davrida suv ostida submarin sharoitda sodir bo'la-digan tarkibi bazalt-liporit, vulkanik jarayonlar (formatsiyalari) bilan bog'liq bo'ladi (23-rasm).

Shuning uchun bu guruh konlari ko'pincha qadimiy oseolit va regional metamorfizm oqibatida xlorit-epidotlashgan cho'kindi tog' jinslari tasinalari tarkibida uchraydi. Bunday tasnilar tarkibida kolchedan ma'danlari uzunligi bir necha km bo'lgan qatlamlar holida uchraydi. Xulosa qilib aytganda, barcha kolchedan konlari asos va nordon vulkanik jarayonlar hosilasi deb tan olingan. Bu jarayonlar yer shuning chiuqur bazalt qatlamlarida hosil bo'ladi. Agar eritmalar tarkibidagi foydalı komponentlarning ba'zi birlari yuqoriga chiqish jarayonida yo'l-yo'lakay ajralib qolsa, vulkanik hidrotermal-metasomatik kolchedan konlari, qolgan qismi dengiz ostiga chiqib cho'kindi-vulkanik hidrotermal konlari hosil qiladi.

Kolchedan konlarining uch xil sanoatbop turlari ma'lum:

1-Karelsk turi yoki oltıngugurtlı kolchedan konları. Bu turdagı konları, asosan, oltın-gugurt kislotası olishda xomashyo sıfatıda foyda-lanıldı; 2-Ural turdagı mis-kolchedan konları. Bu turdagı konlardan mis olinadi; 3-Oltoy turdagı ko'pmetalli-kolchedan konları. Bulardan mis, qo'rg'oshin va ruh metalları olinadi. Ba'zan bu turlardagi konlardan asosiy komponentlardan tashqari qo'shimcha sıfatida yana oltın, vismut, marginush, kadmiy, selen, tellur va boshqa elementlar ham olinadi.




24- rasm. Kolchedan konlarining hosil bo'lish jarayonlari (a);  
 (b) Urpin kolchedan koni; (d) Ushnotan (Yaponiya) kolchedan koni  
 1-to'rtlamchi davr yotqiziqlari; 2-andizit-bazalt, datsit vulkanik jinslar;  
 3-porfiritlar; 4-dengiz tubiga qadar otlib chiqqan vulkanlar; 5-andizit-  
 bazalt vulqonlar; 6-zamin (fundament) tog' jinslari; 7-qadimiy terregn  
 yotqiziqlar; 8-qadimiy gneyslar; 9-dengiz osti loyqa yotqiziqlar;  
 10-darzlar; 11-ma'dan yotqiziqlari; 12-ohaktosh yotqiziqlari

Yer sharida deyarli hamma tektono-magnitik sikllarda hosil bo'lgan kolchedan konlari ma'lum: arxey sikli bilan Kanada, AQSh va Rossiya (Karelsk) kolchedan konlari; proterozoy davrida esa Rossiya-ning deyarli hamma qolgan kolchedan konlari (Shimoliy Ural, Baykal ko'li atrofi, Karpat tog'larining orqa qismi va Shimoliy Tyan-Shan konlari) shuningdek. Kanada, Hindiston, Marokash, JAR, Shvetsiya, Finlandiya kolchedan konlari va kolchedan sikli bilan Buryatiya, Garbiy Sayan, Djungar, Alatau, Chexiya, Eron, Norvegiya va boshqa konlar; Gersinidlar bilan esa Ural, Oltoy, Qozog'iston, O'rta Osiyo va Kavkaz kolchedan konlari bog'liq.

Quyida kolchedan konlaridan ba'zilarini ko'rib chiqamiz. Uri koni sof gidrotermal-metasomatik turga kirib, shimoliy Kavkazda joylashgan ma'danlari qatlam shaklida bo'lib o'zgargan kyarsli albitlosir qatlamlari bilan qatlami-qatlam bo'lib yotgan slanes tutlar orasida joylashgan; tarkibi: pirit, xalkopirit, borniy va qorshinchalar; pirrotin, tennantin, magnetit va boshqalar; ma'dan qatlamlarining ostki qismi sof oltingugurt-kolchedan, o'rta qismi pirit-xalkopirit va yuqorisi ko'p metalli kolchedan ma'danlaridan tashkit topgan. Genezisi vulkanik gidrotermal eritmalar devon yoshidagi dengiz osti albitlosir va gneys qatlamlari orqali filrlanishi ogibatida hosil bo'lgan gidrotermal-metasomatik kon deb hisoblanadi.

Kolchedan konlarining aralashgan guruhiiga Yaponiyaning «Kuroko» kolchedan konlari, gidrotermal cho'kindi guruhiiga Uraldag'i ko'pmetalli kolchedan konlari misol bo'la oladi.



25- rasm. Xondiza ma'danlar maydonining  
soddalashtirilgan geologik xaritasi

1-zamonaviy va to'rtlamchi yotqiziqlari; 2-yuqori paleozoy vulqonli jinslar;  
3-porfiritlar; 4-kembriya qadargi granit-gneysslar; 5-ordovik-silur-yoshidagi  
cho'kindi-terrigen jinslar; 6-gneys va slaneslar; 7-darzlar; 8-Xondiza va  
Chinorsoy kolchedan polimetallik konlar va namunalar

O'zbekistondagi bu guruhga kiradigan bitta «Xondiza» koni ma'lum. Bu kon Surxondaryo viloyatining Sariosiyo hududida Surxantau tog'ining (Gissar tog'ining janubiy-g'arb tarmog'i) shimalida joylashgan. Dastlab bu kon ohaktosh qatlamlari bilan bog'langan deb taxmin qilingan.

Lekin 1961-yili berilgan burgilash qudug'i, chuqurlikda yer yuzasiga chiqmagan ko'p ustunsimon ma'danlarini aniqladi. Keyingi olib borilgan tadqi-qotlar konining ko'p metalli-kolchedan turidan ekanligini ko'rsatdi. Xondiza ma'danlar maydoni tarkibiga o'zidan boshqa yana unga yaqin ko'p metalli oltin-kumush namunali uchastkalar: Yangisoy, Chernov, Yong'oqli va boshqalar kiradi (25- rasm).

Bu konlarning hosil bo'lishi, asosan, hududda yuqori paleozoy davrida Boysun O'rta massivining aktivlanishi oqibatida hosil bo'lgan darzlar va vulqonli jarayon bilan bog'liq.

Asosiy ma'danlar andezit-datsit, riodatsit formatsiyalari va quyikarbon ohaktosh qatlamlari tarkibida uchraydi. Markaziy qismi ko'p metalli-kolchedan, qanoti sof kolchedan ma'danlaridan iborat. Ma'dan tanalari buklangan, egilgan va linza shaklida bo'lib, 80-90% pirit, qolgan qismi boshqa sulfidlardan iborat. O'zgargan jinslar: berezitlashgan, propilitlashgan riodotsit tuflar, ba'zan andizitlar. Uzunligi 200 m dan 1-1,2 kmgacha bo'lib, 350-500 m chuqurlikkacha tarqalgan.

### O'zlashtirish uchun savollar

1. Kolchedan koni.
2. Kolchedan konlarining sanoatbop turlari.
3. Xondiza koni.

Atamalar: mis-kolchedan, ko'p metalli kolchedan, eritma.

## **ADABIYOTLAR**

1. Бетехтин А.Г., Голиков А.С. Курс месторождений полезных ископаемых. -М.: Недра, 1964.
2. Дорохин И.В., Богачева Е.Н. и др. Месторождения полезных ископаемых и их разведка. -М.: Недра, 1969 .
3. Вахромеев С.А., Антишин В.Н. и др. Краткий курс месторождений полезных ископаемых. -М.: Высшая школа, 1967
4. Смирнов В.И. Геология полезных ископаемых. -М.. Недра, 1969 .
5. Татаринов Н.М., Карякин А.Е., и др. Курс месторождений твёрдых полезных ископаемых. -М.: Недра, 1975 .
6. Шобкубов Т.Ш., Долимов Т.Н., Голованов И.М., и др. Геология полезных ископаемых Узбекистана. -Т.: Фан, 1998.
7. Голованов И.М. Рудные месторождения Узбекистана. -Т.: Фан, 2002.
8. Авдонин В.В. Поиски и разведка месторождений полезных ископаемых. -М.: Недра, 2003.
9. <http://yandex.ru/www.spmi.ru>

## **QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR**

1. Боймуҳамедов Ҳ.Н. ва боиқалар. Фойдали қазизма конлари геологияси (услубий кўлланма). -Ташкент. ТашДГУ, 1976.

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
<b>I bob</b>	
1.1 Foydali qazilma haqidagi umumiy tushunchalar.....	4
1.2 Foydali qazimalarning xalq xo'jaligidagi ahamiyati.....	7
1.3 Foydali qazilma konlarini o'rghanish tarixi.....	9
1.4 Yer sharining tuzilishi va tarkibi.....	12
1.5 Mineral va elementlarning turli tog' jinslari bilan bog'liqligi.....	17
1.6 Elementlarning mineral hosil qilishi va tabiatda hamkorligi.....	19
1.7 Ma'danlarning struktura-tekstura xususiyatlari va ma'dan hosil bo'lish etap va stadiyaları.....	22
1.8 Foydali qazilma konlarining shakllari va tabiatda yotish sharoitlari.....	25
1.9 Foydali qazilma konlarini tasniflash usullari .....	28
<b>II bob</b>	
Endogen konlarning hosil bo'lish jarayonlari.....	32
2.1 Magmatik konlar.....	34
2.2 Pegmatit konlar.....	45
2.3 Karbonatit konlar.....	56
2.4 Skarn konlarining hosil bo'lishi.....	64
2.5 Albititli va greyzen konları.....	71
2.6 Gidrotermal konlar.....	76
2.7 Kolchedan konlari.....	93
Adabiyotlar.....	98

O'rumentboyev K., Sodiqov S.T., Asabayev D.X.

**MA'DANLI FOYDALI QAZILMA KONLARINING  
HOSIL BO'LISH SHAROITLARI  
VA JARAYONLARI**

*O'quv qo'llanma*

Muharrir

M.M. Botirbekova

Musabhih

Sh.S. Dexkanova

---

Bosishga ruhsat etildi 12.10.2010 y. Bichimi 60x84 1/16.  
Shartli bosma tabog'i 5,82. Nusxasi 50 dona. Buyurtma № 487.

---

TD FU bosmaxonasida chop etildi. Toshkent sh,  
Talabalar ko'chasi 54. tel: 246-63-84.